

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI AL– XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK _____

Masharipov Mansur Masharipovich

Mavzu: Atoqli otlarning grammatik tarkibi

5 A120102– Lingvistika (o‘zbek tili)

Magistr

**akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

prof. Z. Do‘simov

Urganch – 2016

MUNDARIJA

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi	3
I BOB. NOMSHUNOSLIKNING UMUMIY MUAMMOLARI.....	7
I.1. Atoqli otlar va ularning tadqiq qilinishi.....	9
I.2. Nomshunoslik va boshqa fanlar.....	16
I.3. Atoqli otlar tahlili va tadqiq metodlari.....	23
II BOB. ATOQLI OTLARNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYAT- LARI.....	29
II.1. Onomastik ma’no.....	29
II.2. Atoqli otlarda fonetik hodisalar va imlo masalalari.....	32
II.3. Atoqli otlarning leksik-lisoniy guruhlar.....	41
III BOB. ATOQLI OTLARNING TARKIBIY TAHLILI.....	59
III.1. Atoqli otlarning yasalishi va tuzilishi.....	59
III.2. Atoqli otlarning fonetik, grammatik va stilistik xususiyatlari.....	71
XULOSA.....	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	84

KIRISH

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Til – millat ko‘zgusi, madaniyat beshigi, aloqa – munosabat vositasi. O‘z tili va millatini asray olmagan xalq eng g‘arib, eng qashshoq xalqqa aylanadi. Tilga muhabbat ham insonga ona suti orqali qon – qoniga singiguvchi tilsim tuyg‘udir. Ulug‘ qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov e’tirof etganidek, “Har birimiz bizni voyaga yetkazgan, bizga eng bebaho boyligini –tilini hadya etgan onalar oldida qarzdormiz. Tilimizning sofliги uchun, boyishi uchun jon kuydirsak, farzandlik burchimizni ado etgan bo‘lamiz”.

Darhaqiqat, dunyoda nimayiki mavjud mo‘jizalar bor, bari – barisi parvarishga, asrab –avaylanishga muhtoj. Bevosita til ham. Bunda eng katta mas’uliyat tilshunoslar zimmasiga yuklanishi, tabiiy. Prezidentimiz Islom Karimov ham aynan shuni nazarda tutib, o‘zlarining “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” asarlarida quyidagi dono fikrlarni keltirib o‘tganlar: “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab–avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank –moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va milliy o‘zlikni, vatan tuyg‘usini anglashda ezgu maqsadlarga xizmat qilishi, shubhasiz.”

Tilshunoslikda atoqli otlar sohasining o‘rganilishi ham hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Obyektlarga atab qo‘yilgan nomlar nafaqat muayyan joyning tarixi haqida o‘zida ma’lumot tashiydi, shu bilan birgalikda, lingvistik element sifatida ham xalqning tarixiy madaniyati va ma’naviyati haqida guvohlik berib turadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Ma’naviyat xalqning tarixini, uning madaniyatini chuqur bilish va tushunib yetish, unga

suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi” degan fikrini ma’naviy merosimiz va qadriyatlarimizning tarkibiy qismi bo‘lgan toponimik manbalarni o‘rganishda ham dasturulamal sifatida qabul qilishimiz lozim bo‘ladi.

Onomastika keyingi yillarda tilshunoslik fanining alohida sohasi sifatida yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Ushbu sohaning yirik tadqiqotchilari voyaga yetdi. Onomastika, ya’ni atoqli otlarning nazariy masalalariga, geografik obyektlarni hududiy jihatdan tadqiq etishga bag‘ishlangan monografik kuzatishlar birin-ketin paydo bo‘lmoqda, doktorlik va nomzodlik darajasida dissertatsiyalar yozilmoqda. Lekin shunday bo‘lsa ham ushbu mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, tahlil qilish tilshunoslar oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu esa ishning dolzarbligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari. Dissertatsiyaning asosiy maqsadi atoqli otlarning grammatik tarkibini tahlil etishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- atoqli otlar va ularning tadqiq qilinishi haqida ma’lumot berish;
- nomshunoslik va boshqa fanlar;
- atoqli otlar tahlili va tadqiq metodlari;
- onomastik ma’no haqida tushuncha hosil qilish;
- atoqli otlarda fonetik hodisalar va imlo masalalari;
- atoqli otlarni leksik-lisoniy guruhlarga ajratish;
- atoqli otlarning tarkibiy tahlilini amalga oshirish.

Ishning metodologik asoslari va tadqiqot metodlari. Yurtboshimiz I.A.Karimovning tarixiy qadriyatlarimizga bo‘lgan chuqur hurmat va ehtirom, milliy merosimizdan faxrlanish g‘oyasi tadqiqotimiz uchun metodologik asos va yo‘nalish bo‘lib xizmat qildi. Kuzatishda qo‘llaniladigan tahlil metodlari hamda tadqiq usullari bugungi mustaqillik davri ijtimoiy –gumanitar fanlar oldiga qo‘yilgan talablardan kelib chiqib belgilandi.

Xususan, o'zbek toponamist olimlari Z.Dosimov, H.Hasanov, S.Qorayev, T.Nafasov, T.Enazarovlarning ishlarida qo'llanilgan, V.A.Nikonov, E.M.Murzayev, A.L.Xromov, A.V.Supurenskaya, E.A.Begmatov singari taniqli olimlarning asarlarida foydalanilgan diaxron, sinxron, toponimlarning tarkibini o'rganishda qiyosiy, kompleks (keng masshtabli), dala sharoitida ishlash, statistik kabi metod va usullardan o'rni bilan foydalanildi.

Dissertatsiya mavzusining yangiligi. Atoqli otlarning grammatik tarkibi va ularning leksik-semantik xususiyatlari ilk bor monografik planda o'rganilganligi, nomlanishdagi hududiy-tarixiy va lingvistik o'ziga xosliklarni aniqlash tanlangan mavzuning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya xulosalari o'zbek onomastikasida mavjud bo'lgan qarashlarga muayyan darajada aniqliklar kiritadi. Dissertatsiya materiallari tobora yuksalib borayotgan o'zbek onomastikasi fanining rivojida aniq ma'lumotlarga asoslangan faktlar sifatida ishtirok etdi. Unda keltirilgan xulosalar va tavsiya etilgan mulohazalardan Oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlarida o'qitilishi ko'zda tutilgan o'zbek tili tarixi, o'zbek tili dialektologiyasi va bevosita o'zbek onomastikasi, toponimikasi o'qitilishi e'tiborga olingan holda tanlama fanlarda bimalol foydalanish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotning predmeti va obykti. Ishimiz obykti atoqli otlar hisoblanib, ularning til xususiyatlari - grammatik tarkibi va ularning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish tadqiqot ishimizning asosiy manbai hisoblanadi. Mazkur tadqiqot predmetini o'zimizning izlanishlarmiz bo'yicha to'plagan materiallarimiz ham tashkil etadi.

Tadqiqot ishining rejalaniishi va ma'qullanishi. Dissertatsiya mavzusi o'zbek tilshunosligi kafedrasida tomonidan 2014-2015 o'quv yilida monografik tadqiqot sifatida tavsiya etildi va ma'qullanib, Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti rektorining 2014 yil 2-fevral 2-M buyrug'i bilan tasdiqlandi. Ishga o'zbek tilshunosligi kafedrasida professori Z.Do'simov ilmiy rahbar qilib belgilandi.

Mavzu bo'yicha ishlar 2014-2016 yillarda o'zbek tilshunosligi kafedrasida

olib borildi. Ishning borishi o'zbek tilshunosligi kafedrasida bir necha marta muhokama obyekti bo'ldi.

Ishning joriylanishi. Ish UrDU O'zbek tilshunosligi kafedrasida amalga oshirildi. Ishimiz o'zbek tilshunosligi kafedrasida hamda magistrantlar kengashi yig'ilishida muhokama qilinib, ijobiy baholangan. Tadqiqotning asosiy mazmuni «Filologik tadqiqotlar», «Tafakkur ziyosi», «Til gulshani» kabi to'plamlarda hamda kafedra qoshidagi «O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari» ilmiy-nazariy seminar va anjumanlarda o'qilgan ma'ruza va maqolalarda o'z aksini topgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va umumiy hajmi. Dissertatsiya kirish 3 ta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Uning umumiy hajmi 87 sahifadan iborat.

I BOB. NOMSHUNOSLIKNING UMUMIY MUAMMOLARI

Kishilik jamiyatida nomsiz bir narsani ikkinchi bir narsadan farqlab bo'lmaydi. Odatda, hamma narsaning o'z nomi bo'lgani uchun shu nomi bilan aytilishi shart. Xuddi shu ma'noda nom(lar) odamlar uchun yo'l ko'rsatuvchi-kompas vazifasini o'taydi. Mutaxassislar maxsus qurilma bo'lgan kompasdan adashib, yanglishib ketmasliklari uchun qaysi tomon janub, qaysi tomon sharq ekanligini bilib turish uchun ishlatsalar, odamlar esa nomlarni o'zaro munosabatda bo'layotgan kishilarining kimligini, qayerda, nimada turgani va qanday atalgani kabi narsa-vositalarni aniq bilishlari uchun qo'llashadi. Nom bilan kishilarni bir-biridan farqlab chaqirish, murojaat qilish uchun ularning ismi, familiyasi, laqabi, taxallusi va nisbatlarini, qabila-urug' hamda xalq nomlarini, joylarni, gidronimlarni osmon jismlarini, o'simliklarni, hayvonot dunyosi hamda muchal nomlarini va boshqa narsa - hodisalardan ajratib, topib olish uchun esa ularning qanday so'zlar bilan qay tarzda aytilishi va atalganligini bilish mumkin. Buning uchun esa kishilarni nom, nomshunoslik, nom qo'yish, shaxsning yoki aholining xohish-istagi bilan nomlarni almashtirish, to'g'ri, aniq aytish va yozish, nomlash muammolari bilan tanishtirish lozim. Ularni shu sohaga qiziqtirib, nomlarning ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy muammolarining talqini va tahlili ularni ommabop ko'rinishlarda o'rganishga, mavjud nomlarni to'g'ri atash va maxsus ilmiy tahlilga tortish, ajratib ko'rsatish uchun berilgan nomlarga bugungi yoshlarimizning qalbida hurmat, ehtirom tuyg'ularini kuchaytirish uchun kerak bo'ladi.

O'zbek tili davlat tili huquqini olgach (1989-yil 21-oktabr), shuningdek, "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida" Qonuni qabul qilingach, turli toponimik obyektlarga va, umuman, nomlanishi kerak bo'lgan obyektlarga nom qo'yish, nomlarni almashtirish tamoyillari, yangi nomlarni rasmiylashtirish qoidalari, ularni to'plash, jamlab, kartotekasini tuzish va ilmiy tahlilga tortish kabi muammolarga e'tibor berish o'zbek tilshunosligida, shuningdek, geografiya va tarix fanlarida ham hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri

sanaladigan bo‘lib qolgan. Mavjud obyektlarni nomlash va nomlarni tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy xarakterdagi ishlarni bugungi mustaqillik davri talablariga mos ravishda tadqiq, talqin qila bilish hamda asosli, ishonarli dalillar bilan tushuntirish ishlarini olib borib, zarur o‘rinlarda, albatta, ommaviy, ilmiy hamda ilmiy-ommaviy shakldagi tushuntirish ishlarini keng miqyosda, katta doiralarda, ya’ni maktab va oliy o‘quv yurti auditoriyalarida, korxona hamda tashkilotlar, turli xil kompaniya, jamoat joylarida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Albatta, xalqimiz qadimdan madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida jonli hamda jonsiz narsalarni nomlashga va, umuman, narsa, hodisalarni, shuningdek, kishilarni nom bilan atab chaqirishda qo‘llanadigan nomlarga e’tibor berib kelgan. Bu haqidagi ma’lumotlar bugungacha saqlanib qolgan mavjud ilmiy va tarixiy manbalardan ayon. Kishilar o‘zaro muloqotga kirishish uchun, albatta, odamlarni ham, narsa-hodisalarni ham va, umuman, butun bir borliqni ma’lum bir me’yordagi nomlar bilan atab, bir-biridan farqlashga harakat qilishgan. Natijada, nomlarda xalqimizning milliylik, milliy an’ana va milliy qadriyatlari o‘z izini qoldira olgan. Mana shu nomlar milliy o‘zlikni anglashga, xalqimizning ruhiy, ma’naviy sarchashmalari bo‘lgan milliy udum, urf-odat, an’ana va qadriyatlarimizga qayta-qayta e’tibor berishga hissa qo‘shadigan vositalardan biri sanaladi. Prezidentimiz I.A.Karimov to‘g‘ri ta’kidlab o‘tganlaridek, “Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”. Shuning uchun ham xalqimizda “Hurmatini bilgan kishi o‘zgalarning hurmatini joyiga qo‘ya oladi”,- degan hikmatli so‘z bor. Bu fikrning mazmunida odamning hurmat- ehtiromi bilan birgalikda uning yonidagi kishilarning nomlariga munosabati ham o‘z ifodasini topgan. O‘z nomini e’zozlay olgan inson o‘zgalarning nomlarini ham to‘g‘ri va aniq aytish, xatosiz yozish bilan ardoqlashga imkon topadi.

Qadimiy tarixga ega bo‘lgan xalqimizning nomlari nihoyatda rang-barang bo‘lib, yuzaga kelishi va ma’no xususiyati bilan ajralib turadi.

Nomi yo‘q obyektlarni nomlash, turkiy tillardagi, xususan, o‘zbek tilidagi nomlash qonunlarini o‘rganish asosida ularga alohida e‘tibor berish va qo‘llanayotgan ba’zi bir nomlarni imkoniyat doirasida izohli hamda etimologik tahlillar vositasida talqin etish masalasiga xalqimiz juda qadim zamonlardan e‘tibor qaratib kelgan. Bunga islom dinigacha bo‘lgan davr, xususan, O‘rxun-Enasoy toshbitiklari; islom dini davri, aniqrog‘i, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari hamda undan keyingi davrda to XX asrning 80-yillarigacha, shu jumladan, mustaqillikka erishganimizdan to bugungacha yaratilgan turli lug‘atlardagi, shuningdek, badiiy va tarixiy asarlardagi nomlar majmuining jamlanishi, ilmiy tadqiqot obyektlari sifatida e‘tirof etilib, ilmiy-nazariy, amaliy asoslarda talqin etilishi misol bo‘ladi.

I.1. Atoqli otlar va ularning tadqiq qilinishi

Bugungi kunda Muhammad Muso al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Tohirxo‘ja, Nodira, Uvaysiy, Zokirjon Holmuhammad o‘g‘li Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Munis Xorazmiy, Ogahiy kabi allomalar va olim ijodkorlarning o‘zlari yashagan davrdagi nom va nomlash jarayoniga, kishi nomlari hamda ular asarlarining nomlanishiga samimiy, sodda munosabat bildira olishgani uchun ham ularni o‘z davrlarning nomshunoslaridan deyish mumkin.

Hozirgi vaqtda V. V. Radlov, V. Pizani, V. A. Nikonov, E. D. Polivanov, Herman Vamberi, A. V. Superanskaya, N. V. Podolskaya, E. M. Pospelov, A.N.Kononov, E. V. Sevortyan, E. M. Murzayev, O‘ljas Sulaymon, A. G‘ulomov, S.Ataniyazov, F.Abdullayev, V.A.Juchkevich, U.Tursunov, Sh.Rahmatullayev, X.Doniyorov, A.Muhammadjonov, A.Aliyev, N.Rajabov, A.Ishayev, P.G‘ulomov, M.Mirtojiyev, X.Dadaboyev, Sh.Kamoliddinov, M.Mirakmalov kabi tarix, tilshunoslik, geografiya fanlari olimlarining ilmiy ishlariga ayni vaqtdagi ilm-fan ahllari e‘tibor berishmoqda. Bugungi kunda ham o‘zlarining amalga oshirgan hamda davom ettirayotgan tadqiqotlari bilan „O‘zbek tilshunosligi“ni ham,

„Nomshunoslik masalalari”ni ham ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tadqiq etib, yana ham mukammallashtirgan A.Muhammadjonov, H.Hasanov, E.Begmatov, A.Sa’dullayev, R.X.Sulaymonov, Z.Choriyev, E.Fozilov, D.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do’simov, B.O‘rinboyev, I.Jabborov, H.Qudratullayev, B.Bafojev, Q.Mahmudov, B.Yo‘ldoshev, Q.Shoniyozov, A.Aslonov, M.Tillayeva, M.Almamatov singari tilshunoslik, geografiya, tarix, geologiya kabi fan sohalarining olimlari „Nomshunoslik masalalari” (ya’ni umuman nomshunoslik masalalari), shuningdek, “O‘zbek nomshunosligi” sohasining turli bo‘limlarida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ularning tadqiqotlarini mazmunan, tahlil etish yo‘nalishlariga ko‘ra bir-biriga yaqinlashtirish bu sohaning hozirgi davrdagi dolzarb masalalaridan biri bo‘la oladi. Sababi, ular nom, nomlash nazariyasi va amaliyotiga oid zamonaviy me’yor va talablariga ham ma’lum ma’noda javob bera oladi. Haqiqatan ham, „O‘zbek nomshunosligi” kursining hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolarini faqat ma’lum bir fanning zamiridan turib hal qilish bu sohada amalga oshiriladigan tahlil va talqin jarayonlarida ma’lum bir kamchiliklar va anglashilmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun ushbu sohaning ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy muammolarini hal etishda tilshunoslik, tarix, psixologiya, geografiya, etnografiya, geologiya, falsafa kabi bir qancha fanlarning nomlarga, nomsiz obyektlarni nomlash jarayonlariga oid ilmiy-nazariy qoidalari va amaliy xarakterdagi dalillari majmuyidan unumli foydalanish har jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kungacha nomshunoslik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ilmiy tadqiqotlar shaklida bo‘lgan. Nom va nomshunoslik odamlar ongiga milliylik, milliy manfaat, qadriyat, ma’naviyat va ma’rifatni singdiradigan ijtimoiylikka xos bo‘lgan xarakterli xususiyatlarga ega. Mana shunday imkoniyatlar majmui, qulay ijtimoiy vaziyatlar, shart-sharoit va zarur vaqtni bizga mamlakatimizning 1991-yilning 31-avgustida ijtimoiy-siyoiy jihatlardan mustaqillikka erishish berdi. Mustaqillik bizga hayotimizdagi boshqa dolzarb masalalar singari nomlarga ham mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan e’tibor qaratishga imkoniyat yaratdi.

Bu sohada hozirgacha ilmiy tadqiqot ishlari maqola, dissertatsiya, lug‘at, monografiya, ilmiy va ommabop qo‘llanmalar sifatida amalga oshirilgan. Nomshunoslikka oid tadqiqotlarni bir butun holda umumlashtirish va ularning umumlashma xulosalari asosida umumiy nomshunoslik masalalari, shuningdek, o‘zbek nomshunosligining bahsli bo‘lgan nazariy va amaliy masalalari haqida fikr yuritishga imkon yaratish va ularni tadqiq etish lozim.

Nomshunoslikni fanda ikkinchi bir termin bilan onomastika deb ham atashadi. Bu ko‘proq Yevropa, shuningdek, rus, qozoq, ozarbayjon, qirg‘iz, tatar, turkman olimlarining tadqiqotlarida bayon etilgan. O‘zbek tilshunosligi sohasida nomshunoslik alohida bir sohasi bo‘lish bilan birga hozirgi zamon ilm-fanining talablaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Zero, barcha xalqlarda nomga, nomlanishga munosabat e‘tiborda bo‘lgani uchun amalda qo‘llanilayotgan nomlarni to‘g‘ri, aniq va xatosiz yozish bu sohadagi ham savodxonlikni, ham madaniylikni, ham ma‘rifiylikni ifodalalovchi me‘yoriy holatlardan biri sanaladi.

Nomshunoslikning mazmunan ikki turga ajratilishi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, hozirgi kunda nomshunoslik mazmunan ikkiga bo‘lingan: 1) umumiy nomshunoslik; 2)xususiy nomshunoslik. Umumiy nomshunoslik nomshunoslikning umumiy masalalarini o‘rganadi. Unda Rossiya, Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Turkiya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Kanada, Pokiston, Misr, Suriya, Hindiston va Braziliya kabi davlatlardagi obyektlar nomlanishlarining umumiy jihatlari to‘g‘risida fikr yuritish mumkin bo‘ladi.

Xususiy nomshunoslikda esa alohida ajratib olingan hududlardagi nomlanish, qayta nomlanish, ulardagi nomlarni ilmiy asoslarga tayanib tahlilga tortish muammosi birinchi darajali muammo sifatida e‘tiborda bo‘lib, uni ”O‘zbek nomshunosligi” deb atash mumkin. Ushbu nomshunoslik esa bir hudud yoxud davlatga oid etnonim, gidronim, oronim, oykonim, kosmonim, antroponim, antropotoponim, toponim, fitonim, fitotoponim, zootoponim, zoonim, paraggonim, agroonim singari bir qancha nomlar tizimini ilmiy tahlilga tortib,

lingvistik, tarixiy, falsafiy, geografik tahlil zaminida talqin etishga intiladi. Ularning obyektlari oykonim, oronim, gidronim, antroponim, fitonim, zoonim, toponim, agroonim, paraggonim kabi nomlanishga ega bo'lgan joylarning nomlaridir. Nomlarning leksik, semantik, uslubiy, funksional xususiyatlari obyektlarni nomlash va qayta nomlash tamoyillari, antroponim hamda joy nomlarining izohli hamda etimologik tahlil-u tadqiq qilish muammolari va ularning ta'lim masalalariga singdirish bugun ko'tarilayotgan masala emas. Ushbu masalalar umumiy hamda xususiy nomshunoslikda e'tiborda turadi. "O'zbek nomshunosligi" sohasida boshqa olimlar kabi E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do'simov, S. Qorayev, N. Oxunov singari o'zbek olimlari ham XX asrning oxirgi yillaridan to'plagan dalil hamda tajribalari asosidagi o'z fikr-mulohazalarini ilmiy tadqiqotlarining mazmun-mundarijasini imkoniyat va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit(lar)ga qarab bildirib o'tishgan. Nomshunoslik termini darsliklarda ham qayd etilgan va unga oid misollar keltirib o'tilgan. Bu ham mazkur terminning ommalashayotganligini anglatadi.

Har qanday nom (ism)da kishilarning, shu jumladan, xalq, qabila, urug' va elatlarning biror narsani ikkinchi bir narsadan farqlashga qaratilgan fikrlari mavjud bo'ladi. Mana shuning natijasida ijtimoiy ehtiyoj tufayli atoqli otlarning turlari paydo bo'ladi. Nom qo'yish qonuniyatlari (ya'ni nom qo'yish odobi) bo'lgani kabi obyektlari (xoh u jonli yoki jonsiz bo'lsin) ism qo'yish va nom bilan atash odoblari (qonuniyati) ham bor. O'zbek xalqi ham boshqa xalqlar kabi bolalariga va mavjud barcha narsalariga nom (ism) qo'yish, nom bilan atash yuzasidan tarixiy, milliy va etnografik an'analarga ega. Ularni bugungi yoshlarimizning ongiga singdirish va zamonaviy talab, ehtiyojlar asosida ta'lim tizimimizning mazmun-mundarijasida o'z ifodasini toptirish dolzarb muammolaridan biri. Chunki har bir kishi o'z nomining hamda yonidagi ota-ona, aka-uka, do'st-u birodarlari, qarindosh-urug'larining nom (ism)lari nega shunday qo'yilgani, yozilishi, o'ziga xos yashirin va sirli ma'nolarini bilishlari, shuningdek, yashash joylarining nega shunday atalishlarini anglab yetishishlari ularning ma'rifati va ma'naviyatini belgilaydi. Nom - bu kishining atab qo'yilgan ismi, yashash joyi, urug'i, avlod-ajdodi, ular

bilan bog'liq jarayon va holatlarning atab qo'yilgan maxsus atamasi. Ayni vaqtda bu atamani nomshunoslikdan boshqa joyda qo'llab bo'lmaydi.

Nom so'zining izohi. Shu o'rinda nomshunoslik terminining o'zagi bo'lgan nom so'ziga berilgan izohga murojaat qilinsa, ba'zi bir noaniqliklar oydinlashgan ham bo'ladi:

"Nom (fors-tojikcha) 1. Shaxs yoki narsa-predmetlarga qo'yilgan ot, ism. shahar nomlari. Nom qo'ymoq. Nom bermoq. Keksayib qolgan eshonning xotirasi ancha pasayganidan ko'p vaqt o'z o'g'illarining nomlarini ham xotinidan so'rab olar edi. P. Tursun. O'qituvchi. Biror sohaga, guruhga oidlikni bildiruvchi atama. Ulug' nom.

2. Faoliyatning biror sohasida erishgan yutuq, malaka darajasini ko'rsatish uchun rasmiy yo'l bilan beriladigan unvon. Faxriy nom. Xizmat ko'rsatgan artist degan nom. Klassik kurash bo'yicha mamlakat chempioni degan nom.

3. Ko'pchilik orasida ma'lum-mashhurlik, dong, dovrug', shuhrat. Nomi chiqqan kurashchi.

Frazeologizm. Nomi bilan topshirig'i, vakolati bilan.

Nomlarda tarix muhrlangan ham bo'ladi. Masalan, *Toshkent, Buxoro, Qo'qon, Qoryog'di* singari nom (toponim)larda, so'zsiz, xalqimizga tegishli tarix hamda taqdir yashiringan. Masalan, Toshkent shahrining shimoliy-g'arbiy qismidagi mahalla hozir Birlik deyiladi. Ammo XX asrning boshlarida P.G.Mallitskiyning ma'lumotlariga ko'ra, bu joy zax, sizot bo'lganligidan qurbaqalar ko'p bo'lganligi sababli *Qurbaqaobod* deyilgan ekan. Shuningdek, Qarshi shahri ham 1920-yildan 1930-yilgacha *Behbudiy* deb atalishi ko'pchilikka ma'lumdir. Bular ham ijtimoiy hayotda nomlarning o'rni va roli alohida ahamiyatli ekanligini bildirib turibdi.

Demak, har bir nomning birinchi ma'nosi xususiy ma'no (ya'ni atoqli ot) bo'lsa, ikkinchi hamda uchinchi ma'nolari esa umumiy ma'nolardir. Shu o'rinda nomlarni o'rganish, ism (nom) qo'yish odoblarini o'zlashtirish ayni ma'noda ma'rifiy, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etib ta'kidlash lozim. Ammo hozirgi davrda o'quvchi, tinglovchi va talabalarni yana

ham qiziqtiradigan, bahsli nomlarning ilmiy tahlillari bilan qoniqtiradigan turli ilmiy ma'lumotlar majmuini shakllantirish masalasi esa qisman bo'lsa hamki, tadqiqotchilarning e'tiboridan chetda qolgan.

Shuningdek, bu fanni o'rganadiganlarning har biriga ham nomlarga eng nozik narsa deb, mas'uliyat bilan qarash tendensiyasini singdirish, kuchaytirish shart. Aks holda, o'z ismini, familiyasini, tug'ilgan joyi va sevimli narsalarning nomlarini to'g'ri yoza olmaydigan, aniq talaffuz qila bilmaydigan, ularni izohlab, tushuntirish qo'lidan kelmaydigan kishilarning ushbu sohadagi no'noqligini qanday tushunish mumkin, ularni qay tarzda oqlasa bo'ladi?! Ming afsuski, ularni hech ham oqlab bo'lmaydi. Zero, nomlar bu insonning madaniyati, ma'rifati, qadr va qimmati, himmatining real ifodasi. Yuqoridagilardan ayon bo'lib turibdiki, nom so'zi keng ma'noda qo'llangan, ya'ni shaxs yoki narsalarga atab qo'yilgan ot, ismdir. Bugungi kunda nomlar haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchilarni nomshunoslar deb, ikkinchi nom bilan esa onomastlar deb ham atashadi. Hozirgi vaqtda birinchi termin ko'proq, ikkinchi termin esa nisbatan kamroq qo'llanmoqda.

Agar nutqiy jarayonda nom, nomlar, nomlanish hodisasi bo'lmaganda, shunday tushunchani ifodalovchi so'zlar ham bo'lmasdi. Buning natijasida kishilar bir-birlarinikiga, do'st- birodarlarinikiga, ishga, dam olishga, bozorga, magazinga va umuman, istalgan biron bir joylarga bora olmasdi. Shuningdek, pochta bir shahardan ikkinchi bir shaharga yuborilmas, samolyotlar qayerdan qayerga uchishini bilmas, mashinalar yurmas, xatlar adres va manzili bo'lmagani uchun hech joyga bormas, avtobus, samolyot-u poyezdlar harakatga kelmas edi. Ularning harakatiga va umuman, kishilik jamiyatining taraqqiyotiga nomlar va nomlanish masalasining ahamiyati nazariy-amaliy jihatdandan ham katta. Nomlanish jarayoni va qonuniyatlari insonning tosh, temir qurollarni topib, tabiat hamda jamiyatda tubdan o'zgarishlarni qila olganidek, narsa-hodisa, jonli va jonsiz buyumlarni bir-biridan farqlashlari uchun qo'llaniladigan lingvistik, psixolingvistik, falsafiy, geologik, geografik, tarixiy qonuniyatlarning bir butun ifodasi sanaladi. Shuning uchun ham xalqimizda ismi, yani nomiga mos bo'lmaganlarni tanqid qilib yaratilgan maqollar ham uchrab turadi. Buni nomlarga e'tibor ma'nosidagi tabiiy

va qonuniy hol deb bilamiz: “ *Nomi kalon – shahri vayron. Nomi ulug‘ – supراسi quruq*”.

Bugungi kishilarning ma’naviy-ma’rifiy hamda ijtimoiy ehtiyojlari natijasida mavjud nomlar tizimini ilmiy-nazariy asoslarda tahlil-u talqin etish uchun lingvistik, falsafiy, psixologik, estetik zamin tayyorlash shart. Chunki vaqt o’tishi bilan mazkur nomlar ularni amalda qo’llaydigan har bir xalqning urf-odatlarini, an’analari bilan farqlanib qolmasligi kerak. Shuning uchun ham eski, arxaiik nomlar esa vaqt o’tgan sari asta-sekinlik bilan qo’llanishdan qolib ketadi. Natijada tarixiy nomlar, ya’ni tushunilishi va tushuntirilishi ancha murakkab nomlar yuzaga keladi.

Ularni saqlash va xalq, urug‘, qabilalar milliy an’analarni e’tiborga olgan holda ilmiy asoslarda tahlil-u talqin etish qadim-qadimdan vatan, iymon, erk-u e’tiqod ramzi, milliylik bezagi, madaniyatlilik belgisi, ya’ni mukammal inson ramzi bo’lgan komillilik ko’rinishi sanaladi. Shuning uchun ham qadimdan kishilar ona-yurtlariga qadam qo’ygan har bir odamlarning do’st yoki dushmanligini ularning nomlanishidan, mamlakatlaridagi, shaharlaridagi nomlarga munosabatlaridan bilib olishlari mumkinligi haqidagi tarixiy rivoyat-u hikoyatlar bizgacha yetib kelgan. Shu bilan birga nomlarni xoh u joy nomi bo’lsin, xoh u kishi nomi bo’lsin, xoh etnonim nomi bo’lsin, bilib-bilmasdan buzib aytish, noto’g’ri yozish, ulardan ba’zi birlarining ma’nolari so’ralganda noto’g’ri hamda ishonarsiz tarzda izohlashlarning mavjudligi bugungi kunda uchrab turadigan hollardan biri. Bu hol ham nomshunoslik bilan shug’ullanadigan tadqiqotchilarni doim jiddiy o’ylatayotgan bahsli muammolarning biri ekanligi aniq.

Albatta, nomlarni nomlanish jarayoni va nomlanish muammolarni tadqiq etishni davr talablaridan kelib chiqqan holda muvaffaqiyatli amalga oshira olinsa, turli fanlar doirasidagi nom, nomlanish jarayoni hamda terminologiya masalalariga munosabat ham ravshanlashadi. Tillarning vaqt o’tishi bilan fonetik, leksik, semantik va grammatik jihatlaridan o’zgarishi yoki unutilishi nomlar, nomlanish jarayonining ham o’zgarib borishini ko’rsatadi. Nomlar, shu jumladan, kishi nomi, etnonim, gidronim, fitonim, kosmonim, teonim, zoonim, joy nomlari va ularga xos

xususiyatlar majmui qadim tarixga ega bo'lgan qabila, urug'ga xos bo'lgan kichik bo'limlar, elat, millat hamda xalqlarning o'ziga xos noyob yodgorliklaridan biri.

Xullas, "O'zbek nomshunosligi"ning kelajakdagi vazifalarini oydinlashtirib olish mavjud nomlarni tadqiq etish, ilmiy manbalarga asoslanib, izohli va etimologik tahlil etishga kirishishga imkon beradi. Shu bilan birga nomlarga ongli va madaniy munosabatda bo'lish madaniyatini aholining barcha qatlamlariga singdirish, nomlarning talqini va tahlilini yoshlarga o'rgatish zarurligini anglatib turadi.

I.2. Nomshunoslik va boshqa fanlar

"O'zbek tilshunosligi"ning asosiy maqsadi - mamlakatimiz hududidagi umumiy hamda xususiy nomshunoslik masalalariga xos bahsli muammolarning ilm-fanning zamonaviy talablariga tayanib, asosli va o'rinli yechimlarini topishdan iborat. Buning uchun ayni shu sohaning zamon talablariga javob bera oladigan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish hamda ta'lim yo'nalishlari tizimida mazkur sohani ilmiy, qiziqarli va bahsli dalillar asosida o'qitishni mukammal holatga keltirish yo'llarini izlash maqsadga muvofiq. Albatta, bunday maqsadni amalga oshirishga mamlakatimizning mustaqillikka erishishi bizlarga bu sohada beqiyos obyektiv hamda subyektiv imkoniyatlarni yaratib bergan. Faqat ulardan zaruriyatga qarab, o'rinli foydalanishni kuchaytirish kerak. "O'zbek tilshunosligi"ning ayni vaqtda hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) mamlakatimizdagi nom va uning turlarini aniqlab, ularning turlari tarixiy, ayni vaqtdagi holati, kelajagi, aytilishi va yozilishi masalalarini imkoniyat darajasida aniqlashtirib, nomlash va qayta nomlash terminlarining ma'nolariga oydinlik kiritib, nom berish, nomlash tamoyillari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini asoslab, ko'rsatish;

2) nomlangan obyektlarning nomi bilan noma'lum va tushunarsiz atamalar bilan atalgan obyektlarni, ya'ni agnonimlarni farqlashning me'yorlarini belgilab,

mamlakatimizdagi onomastik ko‘lamni yoritish asosida mavjud nomlarning statistikasini yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish;

3) nom, nomlash va ularni tasniflab, tahlil qilish muammolari nafaqat tilshunoslikda, shu bilan birga tarix, geografiya, geologiya, etnografiya, psixologiya, falsafa kabi fanlar doirasida ham o‘rganilishi lozimligini ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy mazmundagi dalillar bilan amalga oshirish;

4) «O‘zbek nomshunosligi»ning shakllanishi hamda rivojida tilshunoslik, falsafa, geografiya, tarix, geologiya, etnografiya va boshqa fanlarning o‘ziga xos o‘rni va mavqeyini ilmiy asoslarda talqin qilish;

5) tadqiqqa tortilgan nomlarni nomlanish tamoyillari bilan tahlil etish tendensiyasini kuchaytirib, ushbu sohaning ilmiy-nazariy va amaliy muammolarining aniqroq yechimini qidirish;

6) onomastik kontinuum masalasini hamda nomlash masalalarida qo‘llanadigan metodlar tavsifi va tasnifini amalga oshirish orqali ularning metodologiyasini atroflicha tarzda yoritish;

7) «O‘zbek tilshunosligi»ning obyektlarni o‘rganish hamda ilmiy jihatdan tadqiq etish yo‘llari, jihatlari, yo‘sinlarining rad qilib bo‘lmaydigan mavjud dalillari bilan asoslangan to‘g‘ri, aniq bo‘lgan ilmiy va amaliy xarakterdagi tahlil va talqinlarining ishonarliligini aniqlash;

8) «O‘zbek tilshunosligi»ning bo‘limlariga tegishli imlo, izohli va etimologik lug‘atlarini yaratib, nomlarning xato, nuqsonli holatda aytilishi va yozilishining obyektiv sabablarini asoslab, ularning to‘g‘ri, aniq bo‘lgan variantlarini tushuntirish.

Mana shu vazifalardan ham ko‘rinib turibdiki, nom hamda ularning atrofidagi hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar nomlarning majmui kabi bir butun tizimlilikni hosil qiladi va kelajakda ular birin-ketinlik bilan amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, o‘zligimizni, so‘zligimizni anglatadigan nom va nomlarimiz hamda mavjud toponimlarni, shu jumladan, “Turon-Turkiston-O‘zbekiston” degan muqaddas va tarixiy nomlarning mazmuni, bir-biridan farqi va mushtarak jihatlarini bilishimiz lozim.

“O‘zbek nomshunosligi”ning mavjud fanlar kesimidagi o‘rni. Uning shakllanishi va rivojlanishini bugungacha faqat tilshunoslik fani bilan bog‘lab qo‘yish hollari manbalarda qayd etilgan. Bu fikr, aslida biryoqlama qarash sanaladi. Hozirgi kunda bu fan bir qancha fanlarning tutashgan nuqtasida ularga oid materiallar majmui vujudga kelgan, ularning ishonarli dalillari tizimi bilan taraqqiy etgan, deyish eng to‘g‘ri fikr hisoblanadi. Shuning uchun uning yuqorida qayd etilgan fanlarning ham o‘rganish, ilmiy asoslarda tadqiq etish obyektlaridan biri. Quyida ularni birma-bir ko‘rib o‘tish o‘rinli hisoblanadi.

1. *“O‘zbek nomshunosligi” va tilshunoslik fani.* Umuman olganda, nomlar qanday bo‘lmasin, aslida ular so‘z (asos) va qo‘shimcha (formant)lardan tashkil topgan bo‘ladi. Ular nom bo‘lgani uchun endi oddiy so‘zlik (lug‘aviy) ma’nosiga ega emas, balki atalganlik yoxud ixtisoslashganlik asosida shakllangan nomlik ma’nosiga ega bo‘ladi. So‘zning bunday ma’nolari esa H.Hasanov, E.Begmatov, Z.Do‘simov, S.Qorayev, Ziyovuddin Rahim singari bir qancha olimlarning ism va nomlar haqidagi nomshunoslikka oid bo‘lgan maxsus lug‘atlarida bayon etilgan. Mavjud nomlarning leksik-grammatik, leksik-semantik, uslubiy-funksiyaviy xususiyatlari va ularni izohli hamda etimologik jihatlardan tahlil qilish masalalarining yechimi bilan tilshunoslikning «Nomshunoslik (Onomastika)» bo‘limi shug‘ullanadi. Shuning uchun ham tildagi so‘z hamda qo‘shimchalar tilshunoslik fanining o‘rganish obyekti sanaladi. Odatda, obyektlarning nomlanishi uchun tilimizdagi mavjud so‘zlar tanlab olinib, nomlar sifatida qo‘llanadi. Tanlangan so‘zlar konversiya jarayonida nomlik (onomastik) sathiga o‘tgan. Natijada, so‘zdagi leksik ma’no ikkinchi planga o‘tib, ixtisoslashgan ma’no, ya’ni nomlilik ma’nosi esa amalda birinchi planga o‘tadi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, bu soha tilshunoslik fanining o‘rganish obyekti bo‘la oladi.

2. *«O‘zbek tilshunosligi» va tarix fani.* Chunki har bir nomda ularning predmetlariga tegishli qandaydir tarzdagi katta yoxud kichik tarix yoki tarixiy voqelik ramzi muhrlanganligini esdan chiqarmaslik lozim. Shuning uchun bu sohada tarixiy voqealar nomi, hodisalar nomi, jarayonlarning nomlari ham e’tiborga olinadi hamda rejali holatda ilmiy tahlilga tortiladi. Shu sababli bu

sohaga oid fikr-mulohazalar «O‘zbekiston tarixi», «Tarixiy toponimika», «O‘lkashunoslik», «Tarixiy manbashunoslik» nomli bir qancha o‘quv kurslarida ham bayon etiladi. Shuning uchun ham nomlar maxsus o‘quv kursida o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Bizningcha, nomlarning bir ko‘rinishi bo‘lgan toponimlar «O‘zbek nomshunosligi»ning «Toponimika» nomli bo‘limida o‘rganilgani kabi mazkur bo‘limda quyidagi mavzular bayon etiladi: Toponimiya - tarixiy manba. O‘rta Osiyo tarixiy toponimiyasining manbalari. O‘rta asrlar yozma manbalarida qadimgi toponimlar. Toponimik kartalarda makrotoponim va gidronimlar. Tarixiy toponimlarni o‘rganishning nazariy, ilmiy va uslubiy asoslari: hududiylik, tarixiylik va til jihatdan mansublik. Toponimik qatlamlar. Tarixiy toponimiyaning substrati-o‘zagi hamda nom yasovchi leksema –komponentlari. Tarixiy toponimlarning etimoni va ularning ilmiy mohiyati. Albatta, bu mavzularga to‘xtalish uchun keng qamrovli tarixiy materiallar va manbalar tadqiqotchilarga kerak bo‘ladi. Bu fanda tarixiy atamalar voqea -hodisalarning nomlari ma’lum bir o‘rinlarda narsa yoki joyning nomi sifatida qo‘llanadi. Shu sababli ham X.Yu.Bekmuhammedov va Z.Choriyevlar tarix atamalarining qisqacha izohli lug‘atlarida mazkur masalaga e’tibor qaratishgan. Mana shu lug‘atlar asosida tarixiy nomlarni tushunish, tahlil qilishga ma’lum bir imkoniyat hamda yo‘l topiladi.

3. *”O‘zbek nomshunosligi” va etnografiya fani.* Etnografiya fani tarix fanining bir qismi bo‘lib, xalqning ayni vaqtdagi va o‘tmishdagi urf-odati, yashashdagi va nom berishdagi an‘analari, moddiy-ma’naviy madaniyati va ma’rifatining o‘ziga xos milliy xususiyatlarini ilmiy dalillar talqini asosida o‘rganadigan maxsus sohaning nomi. Shuning uchun ham nomlar haqidagi turli qarashlar, fikr-mulohaza va xalqona talqinlar, albatta, etnografik tadqiqotlarda ham asosiy e’tiborda bo‘ladi. N.Mirzayevning o‘zbek tili etnografizmlari bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqoti natijasida “O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati”ni nashr ettirgan. Bu ham aynan shu sohada e’tirofqa loyiq ilmiy ishlardan biri. Lekin nomlar bilan etnografizmlarlarning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatuvchi maxsus tadqiqot ish haligacha amalga oshirilgani yo‘q. Bu esa etnografizmlarga bog‘liq

nomlarni maxsus tadqiq etish zarurligini anglatadi.

4. *"O'zbek nomshunosligi" hamda geografiya fani.* Geografiya tabiat va yer ilmiga bag'ishlangan fanlardan biri bo'lishi bilan birga nomlarga ham aloqador fan sanaladi. Ular bu fanda geografik nomlar termini bilan ataladi. Sababi, yerimizdagi obyektlar nomlanib, boshqalaridan farqlanadi. Shu o'rinda geografik terminlar geografik nom (toponim)lar tarkibida uchrashini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Shu uchun ham "Geografiya terminlari lug'ati" hamda "Geografik terminlar va tushunchalar izohli lug'ati" nomli lug'atning nashr etilgani to'g'ri hamda o'rinli bo'lgan. N.Oxunov "Toponimlar paydo bo'lishining geografik jihatlari" haqida ham fikr yuritgan. M.Mirakmalov esa "Geografiyada toponimika" nomli o'quv qo'llanmasida nomlarning bir turi bo'lgan toponimlar masalasiga geografiya fani nuqtai nazardan maxsus to'xtalgan. Demak, yuqoridagilardan ayon bo'lib turibdiki, "O'zbek nomshunosligi" ham geografiya fanining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlardan o'rganish sohasiga kiradi. Ushbu sohada P.G'ulomov, M.Mirakmalov, S.Qorayev singari olimlar tadqiqotlar olib borishmoqda.

5. *"O'zbek nomshunosligi" va geologiya fani.* Sababi, geologiyada yer usti hamda yer osti qazilma boyliklarini o'rganish uchun, albatta, ularning xususiyatlari bilan birgalikda nomlarini bilish, tahlil ham qila olish shart. Shundagina geologik qidiruv ishlarining salmoqdorligi kuchayadi. Konlarning nomlari geologik qidiruvlar asosida shakllangan. Chunki geologlar nima(lar)ni, qayer(lar)da qidirish mumkinligini bilish uchun ham ularni nomlashlari, shuningdek, turli obyektlarning nomlarini bilishlari kerak bo'ladi. Ammo geolog olimlarning bu sohadagi ishlari hozircha juda kam.

6. *"O'zbek nomshunosligi" hamda psixologiya fani.* Psixologiya insonning tabiat va jamiyat o'rtasidagi doimiy munosabatlarini ma'lum bir me'yorga solib turadigan soha. Umuman olganda, inson psixologiyasining o'zi ham mavjud narsa, hodisalarni boshqalardan farqlab, ajratib, nomlashni talab qiladigan bir butun jarayonlar majmuidir.

Ruhshunos olimlar bilan suhbatlardan shu narsalar ayon bo'ldiki, bahsli muammolardan biri sanaladigan yaxshi hamda yomon ism(nom)lar degan

tushunchalarning ma'nosiga oydinlik kiritish imkoniyati yuzaga keldi. Yaxshi va yomon nomlar degan gaplarga oydinlik kiritishda psixologiya fanining yordami zarur bo'ladi. Kishi ba'zi bir nomlarni aytganda yaxshi tuyg'ularni ko'ngliga tugib aytishadi. Natijada, nomni aytayotgan kishining biotoki shu nom talaffuzi, ya'ni aytilishi bilan nom egasiga ko'chadi. Shu o'rinda biotok atamasining ma'no-mazmuniga to'xtalinsa: "Tirik organizmdan chiquvchi ma'lum bir energiya turi biotok", deb ataladi. Biotok ikki turga ajraladi: 1) ijobiy ohang, ya'ni plus biotok; 2) salbiy ohang, ya'ni minus biotok. Agar nom minus biotok bilan aytilsa, salbiy fikrni uyg'otadi, shuning uchun kishi o'z nomini eshitsa, boshi og'rishi ham mumkin. Salbiy ohang bilan, ya'ni minus biotok bilan aytiladigan nomlarga chaqaloqlarga qo'yilgan el-yurtga ma'lum va mashhur kishilarning, shuningdek, payg'ambarlarning nomlari oid bo'lib, ularning ma'nosini hamma biladi. Bu nomlardan birining chaqaloqqa qo'yilishiga negadir yaqin kishilarda e'tiroz bo'lganligini kuzatish mumkin. Shu tufayli ham aytilayotgan har bir nomning ma'nolarini bilmagan kishilar ularni bilib- bilmasdan minus biotok bilan beixtiyor aytishadi. Odamning ismi ijobiy ohangda, ya'ni plus biotok bilan aytilsa, nom va uning egasi to'g'risida ijobiy fikrlarni kuchaytiradi. Shu sababli inson o'z nomini plus biotok bilan aytadigan kishilardan eshitsa, yana ham xursand bo'lib ketadi. Ijobiy ohang bilan, ya'ni plus biotok bilan aytiladigan nomlar, odatda, oddiy hamda odatiy nomlar bo'lib, kishilar ularni odatdagiday aytishgani uchun ularning ko'ngli va dilidan minus biotok yuzaga kelmaydi, balki plus biotok hosil bo'ladi va talaffuzda aytiladi. Shuning uchun ham ayni vatqda mavjud yoxud mavjud bo'lmagan xalq, urug', qabila, elatlarning etnopsixologiyasi ta'sirida shakllangan amaldagi turlicha nomlash va sharh-u tahlillarga ehtiyoj sezilib turgan nom(ism)lar ham uchrab turadi. Ularni bugungi kunning fan yutuqlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslarda to'g'ri sharhlash, to'g'ri talqin etish uchun esa psixologiya fanining ko'magi lozim bo'ladi.

7. *"O'zbek nomshunosligi" va falsafa fani.* Falsafa tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarga, shu munosabatlardagi inson manfaatlari, ular asosida yuzaga kelgan bir qancha nomlarga dialektik qonuniyatlar bilan aniqlik

kiritadi. Mazkur fan nomlardagi mantiqiylikni ma'lum ma'noda ta'minlab turishi tabiiy hol. Nomlar har bir xalqning an'ana va qadriyatlar shaklidagi bilimlar majmuining bir qirrasini sanaladi. Shuning uchun nomlarda xalqning qadimiy va zamonaviy falsafasi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Xullas, falsafa fani ham nom hamda nomlanish jarayoniga ham o'ziga xos bo'lgan dialektik munosabatda bo'ladi.

8. *"O'zbek nomshunosligi" hamda arxeologiya fani.* Arxeologiya qadimiy bo'lgan shahar, qal'a, qishloq, daha, qabristonlarni, ularning qoldiqlarini ilmiy asoslarda o'rganadi. Bu haqida arxeolog olimlarning rasmiy hisobotlarida, shuningdek, O'zbekistondagi arxeologik qazishmalarning ahvoli to'g'risida, jumladan, Toshkent, Qing'irtepa, Yapaloqtepa, Ishtixon, Sherobod, Samarqand, Kavardan kabi tarixiy joy nomlari va o'sha yerdagi arxeologik qazilma ishlari haqidagi yozma fikr-mulohazalari yilma-yil nashr etiladigan "Археологические открытия» nomli kitobda ham o'z ifodasini topgan. Bulardan ko'rinib turibdiki, arxeologik qazilmalarning boshqalardan ajratib turadigan xususiyatlari tarixiy nomlarda o'z ifodasini topgan. Shu tufayli ularning tarixiy va unutilgan nomlariga murojaat qilinishi bugungi kun uchun tabiiy hol. Ular yozma ilmiy manbalarda, qadimiy qal'a, ichki qo'rg'on va imoratlarda, shu jumladan, toponimik afsona hamda rivoyatlarda qayd etilganligini ko'rish, kuzatish mumkin.

9. *"O'zbek nomshunosligi" hamda tarixiy o'lkashunoslik fani.* O'lkashunoslikning ilmiy, ya'ni davlat o'lkashunosligi, jamoat o'lkashunosligi va maktab o'lkashunosligi singari uchta bo'limdan tashkil topganligi toponimlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib turibdi. O'quvchi va talabalarni mamlakatimizning buguni va o'tmishi bilan tanishtirishda "O'lkashunoslik", "Tarixiy o'lkashunoslik" fanlari tarixiy, eski va yangi nomlar bilan munosabatda bo'ladi. Tarixshunoslarning bu sohada bir qancha ishlari e'lon qilingan.

10. *"O'zbek nomshunosligi" va biologiya fani.* Chunki o'simlik va hayvon nomlari ham mazkur fanda o'rganiladi. Ularning nomlari biologiya fanida laboratoriya ishlari asosida maxsus o'rganiladi. Hozirgacha mamlakatimiz hududida qancha hamda qanday o'simlik va hayvonlarning yashayotgani nomma-

nom ko'rsatilgan mukammal ilmiy ishlar amalga oshirilmagan. Bu esa shu sohaga oid bo'lgan mavjud o'simlik va hayvonlarning nomlarini to'liqroq bilishga turtki bo'ladi. Sababi, biologlar o'simliklarni o'rgangani kabi ularning nomlariga ham e'tibor qilishadi. Bu esa fitonimlarning o'ziga xosligini asoslashda biologlarning xizmatlari, ya'ni ilmiy ishlarini e'tiborga olish lozimligini ko'rsatadi. Albatta, mana shunday tadqiqotning yuzaga kelishida "O'zbek nomshunosligi"ning o'rni katta.

"O'zbek nomshunosligi" masalalarining bugungacha bo'lgan talqini va ularning o'rganilishi *masala- muammo- talqin- tahlil- yechim* shaklida bo'lib, tavsifiy tahlil, izohli va etimologik tahlillar ko'rinishida amalga oshirilgan. Shu o'rinda tavsifiy tahlil, izohli va etimologik tahlillar ayni bir vaqtda amalga oshirilmagan, balki bosqichma- bosqich holatida amalga oshirilgan tavsifiy tahlil> izohli tahlil> ensiklopedik tahlil > va etimologik tahlillardir. Bu tahlillar jarayonida quyidan yuqoriga qarab borilmaydi. Chunki nomlar etimologik tahlil qilingandan so'ng ularning tavsifiy, izohli, ensklopedik tahlillarga tortishning hojati yo'q (mana shu tarzdagi tahlil qilish jarayoni nomlarning tahlillari tizimida asosli me'yoriy holatlardan biri sanaladi).

Demak, o'zbek nomshunosligining dolzarb muammolari bugungi kunda hal etilishi lozim bo'lgan masalalarni o'rganish, o'zlashtirish jarayonida davrning ilmiy fan oldiga qo'ygan ilmiy va amaliy talab, taklif va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda geografiya, etnografiya, tarix, tilshunoslik, falsafa, geologiya kabi bir qancha fanlarning tutashgan nuqtasida vujudga kelgan.

I.3. Atoqli otlar tahlili va tadqiq metodlari

Har bir sohaning o'z o'rganish obyektlarini tadqiq etish metodlari bo'lganidek "O'zbek nomshunosligi"da ham qo'llanadigan bir qancha metodlar bor. Ularning mazmuni va talqinida tilshunoslikka oid dalillarning e'tiborga olinishi nazardan chetda qolmasligi shart. Nomshunoslik, ya'ni onomastika ham tilshunoslikning tadqiqotlar olib boriladigan bir sohasi sifatida tavsifiy, qiyosiy solishtiruv, areal (hududiy), semiotik, stilistik, statistik metod singari o'ziga xos

metodlar tizimi ishini o'rganadi.

Shuningdek, nomshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlarda qo'llanib kelinadigan metodologiya esa dunyoni ilmiy bilishga qaratilgan dialektik nomlarni yig'ish, to'plash, jamlash, kartotekalashtirish, bilish, tushunish, anglab yetish, ilmiy asoslarda tahlil-u talqin qilishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlarini olib borishning nazariy va amaliy qonuniyatlari, ko'nikmalarining majmui sanaladi. Bularni amalga oshirishda nomlarga tegishli materiallar ko'p bo'lishi shart.

Quyida nomshunoslikka oid tadqiqotlarda qo'llanib kelinadigan metod (usul)lar to'g'risida qisqacha to'xtalamiz.

Tavsifiy metod. Unda onomastik (nomshunoslik)ka oid birliklarga tavsif berib borish yo'lidan boriladi. Zero, nomlarga tavsif berish uchun o'sha urug' va elatlarning nom berishga oid tamoyillarini, nomlarni izohlash va etimologik tahlil qilish yo'llarini bilib olib, so'ngra yakuniy fikrga kelish maqsadga muvofiq. Hojima'don, Qiyot, Saksonkapa, Beltepa, Pisandi, Elyor, Azizbek, Aziza, Farrux, O'lmas, Qo'rqmas, Tursunoy, O'g'iloy, Qoryog'di, Tupli, Hulkar, Mamarajab, Mamat, Eshtemir, Normurod, Eshmat, Toshmat kabi nomlarni tavsiflab berish uchun ular mansub bo'lgan urug', xalqning an'analarini, shevaga oid bo'lgan xususiyatlarini e'tiborga olish zarur bo'ladi.

Tarixiy metod. Bunda tarixiy taraqqiyotdagi til va tariximiz, madaniyatimizning rivojlanish bosqichlari zaminida kerakli hamda ishonarli dalillar, ashyoviy manbalar sifatida jamlanib, ma'lum bir xulosaga kelish yo'lidan boriladi. Albatta, unda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan dalillar majmui bo'lgan tarixiy voqea, hodisalar nomlarining keltirilishi va dalillar vositasida asoslanishi hal qiluvchi rol ni bajaradi. Qo'shko'pir, Tayloq, Farg'ona, Namangan, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qamashi kabi nomlarni tarixiy metodda tahlil qilish mumkin. Bu metod bilan nomlarni, shu jumladan tarixiy toponimlarni o'rganishning nazariy, ilmiy va uslubiy asoslari: hududiylik, tarixiylik va til jihatdan mansublik masalalariga munosabat bildirish imkoniyati yuzaga keladi.

Qiyosiy- chog'ishtiruv metodi. Ushbu metodda qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning materiallari asosida onomastik masalalarga munosabat

bildirish yoʻlidan boriladi. Nukus, Karmana, Poyariq, Parkent, Olmaota, Kasbi, Zomin, Gulisafsar singari nomlarni ushbu metodda tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bunda yonma-yon yashayotgan qardosh hamda qardosh boʻlmagan tillarning nomshunoslikka xos boʻlgan xususiyatlarini toʻplangan materiallarga tayanib eʼtiborga olish zarur boʻladi.

Areal (hududiy) metod. Mazkur metodda esa ajratib olingan maʼlum bir hududdagi onomastik birliklar birma-bir, birin- ketinlik asosida talqin etiladi. Bunda oʻsha hududga xos va mos keladigan nomlar, nomlanish tamoyillari, nomlarni talqin etish yoʻllari haqida maʼlumotga ega boʻlish lozim. Molguzar, Ishtixon, Suvtushar, Qoryogʻdi, Oʻgʻiloy, Yodgor, Bolta, Ketmon, Toʻxtasin, Kimsan, Toshkan kabi nomlarni talqin va tahlil etishda, areal metodning materiallari va dalillari majmuidan bimalol foydalanish mumkin.

Semiotik metod. Bu metodda soʻzlar asosiy rol oʻynamaydi, balki topoobyektlar ifodalaydigan ishora, belgilar majmui va ularning soʻz shaklidagi ifodasi-yu maʼnosi yetakchi vazifani amalga oshiradi. Bunga misol Qirqqiz togʻi, Yakkatogʻ, Sinabogʻ qishlogʻi, Sina tepaligi, Qizil emchak qiri, Xolboy, Xolli, Xolmat, Ayirgʻi arigʻi, Odamtovi kabi bir qancha nomlar misol boʻladi. Natijada, bir obyektning, bir kishining ikki nomga ega boʻlib qolish hollarini ham mana shu semiotik metod vositasida talqin etib, tushuntirish mumkin boʻladi.

Stilistik metod. Ayni shu metodda turli manbalar, badiiy matnlar va nutqdagi nomlarning uslubiy talqinini berish va misollar vositasida talqin etish oʻrinli boʻladi. Shu oʻrinda, manbadagi nomlarga oid uslubiy xususiyatlar qidiriladimi, albatta, ularning takror qoʻllanishi, buzib aytilishi kabi hollar eʼtibordan chetda qolmasligi shart. Bunday metod bilan maʼlum bir ijodkor asarlaridagi nomlarning uslubiy xosligini talqin etish mumkin. Badiiy adabiyot tilining lugʻat tarkibiga bagʻishlangan tadqiqotlar jumlasiga X.Mamadov, Q.Samadov va E.Qilichevlarning ilmiy ishlarini koʻrsatish mumkin. X.Mamadovning “Alisher Navoiy prozasining leksik-stilistik xususiyatlari” haqidagi tadqiqotining birinchi bobida shoir prozasining leksikasi genetik (shu jumladan, baʼzi nomlar ham kelib chiqish nuqtai nazaridan) jihatdan tasnif qilinadi.

Q.Samadovning ilmiy tadqiqotlarida Oybekning tildan ijodiy-individual foydalanish mahorati, yozuvchining nutqiy jarayondagi novatorligi hamda badiiy ijod jarayonida yozuvchining soʻz tanlash mahorati, xususan nomlardan foydalanishi ilmiy tahlil va talqini koʻrsatilgan. Shuning uchun ham muallifning Oybek asarlari tiliga oid ilmiy tadqiqotlari, E.Qilichevning tadqiqotlarida S.Ayniy asarlariga xos boʻlgan uslubiy xususiyatlar, S.Karimovning shoira Zulfiya asarlari tilining ilmiy talqiniga bagʻishlangan ishlarida bu metod ularda qoʻllanilgan nomlarga nisbatan ham oʻrinli ishlatilgan. Albatta, ularda leksik birliklar majmuida umuman, nomlarga ham eʼtibor qaratilganligi ularning uslubiy xususiyatlari hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Lingvopsixologik metod. Mazkur metodda ham til, ham tilshunoslikka, ham psixologiyaga oid dalillar insonlarning psixologik vaziyati, holatlariga qarab ishlatilishi yoki talqin va tahlil etilishi kabilarda kuzatiladi. Baʼzi bir nomlarning talqini asosidagi misollarga murojaat etaylik. Toshkent nomining kelib chiqishini toshga bogʻlagan tadqiqotlar bor. Bu ayni vaqtdagi lingvopsixologik vaziyat natijasida chiqarilgan xulosadir.

Aslida esa bu topoobyekt hosildor yerli, xirmon joyli hudud maʼnosidagi Chosh (Choch), Shosh shakllaridagi fonetik oʻzgarishlarga uchragan Chosh soʻzidan yuzaga kelgan. Chosh - hosil xirmon joyda yigʻib, uyilgan holati. Keyinchalik unda turkiy va fors- tojik tillarning taʼsirida turli fonetik oʻzgarishlar boʻlib, Chosh> Shosh> Tosh shakllaridagi oʻzgarishlar roʻy berishi natijasida Toshkent toponimi yuzaga kelgan.

Psixologik jarayon taʼsirida shakllangan kishi ismlari ham nomlar jumlasiga kiradi. Boʻrigul- onasi qornidan yigʻlab tugʻilganlarga qoʻyiladigan nomlardan biri. Bobomurod- yoshlar unashtirilgandan keyin, qanaqadir sabablar bilan toʻy kechiktirilib turilgan holda yoki toʻydan keyinroq qizning oʻz uyida (yaʼni bobo uyida) farzand koʻrilsa, shu tugʻilgan farzandga qoʻyiladigan nomlardan biri. Xolbozor- badanida xoli bor yoki xoli koʻp bolalarga qoʻyiladigan nomlardan biri. Yosh chaqaloqlarga bu tarzda nom berish natijasida bolalar baʼzan ikki xil ismga ega boʻlishadi- rasmiy hujjatda boshqa ism, xoli koʻp boʻlgani uchun ularga

Xolbozor deb ikkinchi ism qo'yilishi, shu ismni faolroq ishlatish kerakligini keksalar aytishadi. Ikkinchi ism oila davrasida bo'lsa ham, faolroq aytilsa, ishlatilsa, bolaning badanidagi xollar kamayishi va hattoki, yo'qolib ketishi mumkinligi amalda kuzatilgan. Ikkinchi ismni esa tor doirada ham aytishmay yoxud kam aytilishi esa bolaning badanidagi dog'- xollarning kamaymasligiga, aksincha, ko'payishiga asos bo'ladi. Bu oilada, xalq hayotida qadim-qadimdan an'ana bo'lib qolgan milliy va ma'naviy nomlash, etnopsixologik vaziyat tufayli yuzaga keladigan nom berish tamoyillarining o'ziga xosligini va yana bola salomatligiga u yoki bu darajada ta'siri borligini ko'rish mumkin. Bunday tarzda misollar boshqa xalqlarda, urug', qabila, elatlarda ham uchrashi tadqiqotchi olimlar tomonidan maxsus kuzatilgan va ilmiy manbalarda qayd etilgan.

Statistik metod. Ushbu metod mavjud nomlarning statistikasini, ya'ni ularning ma'lum bir hudud (tumanlar, viloyatlar va respublika)da mavjud miqdorini, qo'llanish darajasini, qo'llanish yo'nalishini ko'rsatuvchi metod sanaladi. Chunki nomlarning umumiy miqdorini, shuningdek, faol qo'llanayotgan nomlarning miqdorini bilmasdan turib, nomlanish va nom ma'nosini izohlash to'g'risida gapirish o'rinsiz hisoblanadi. Masalan, ma'lum bir hududda yoki tumanda toponimlarning, kishi ismi yoki laqablarining qo'llanishining miqdoriy darajasi, miqdoriy faolligi masalasini mana shu statistik metod tadqiq etib, zarur umumlashma fikrlarni qayd etish mumkin. Agar ba'zi bir o'simlik nomlarining, Qurbaqaobod, Yalang'och, Qonqus, Qayrabsoldi, Jo'gi, Baytqo'rg'on, Do'kchilik, Varaksar, Dapsan, Qatog'on, Hayrabot, Saksonkapa, Hojima'don, Gonchi kabi qishloq nomlarining, Shernazar, Pirnazar, Sino, Chingiz, Shohrux, Zokir, Elbek, Farruh kabi kishi ismlarining, Tanqas, Qorasuv, Tinnatentak daryosi kabi ba'zi bir daryo nomlarining ma'lum bir hududdagi qo'llanish miqdori va me'yorini o'rganish ham mana shu statistik metodning zarurligini asoslay oladi.

Shu o'rinda Samarqand toponimining ikki-uch o'rindagina ishlatilishi, bu shaharning barpo bo'lganligining 2750 yilligi 2007- yil 25- avgustda nishonlanishi kabi ma'lumotlar ham uning tahlilida statistik metodning zarurligini asoslaydi. Agar ba'zi bir nomlar bugungi kun uchun noto'g'ri deyilgan holda miqdor jihatdan

anchagina qo'llangan bo'lsa, ularni xato deyish mumkin emas, chunki uning to'g'riligini, tasodifiy nomlar emasligini qo'llanish miqdori ko'rsatib turibdi. Ushbu metodning talablari ham bor, ya'ni onomastik birliklar deb talqin etilayotgan mavjud nomlarning yalpi miqdorini o'rganish zarur bo'lgani kabi bir necha nomlarning qo'llanishini ham tadqiq etish tor doiradagi ishdir.

Kishilarning ism va nomlarimizga munosabatini ham mana shu metod yordamida bilib olish mumkin bo'ladi. Buning uchun o'z ismingizni odamlar qanday aytayapti, qanday vositalarni qo'shib, qanday ohangda talaffuz etayapti, qanaqa nomaformantlar (ism yasovchi qo'shimcha) bilan aytilayotganiga e'tibor berish kerak.

Xulosa shuki, ismingizni ko'p marta turlicha aytsa, u sizni yoqtirmaydi. Agar Sizning ismingizni to'liq aytib, uni samimiy ohangda tugal tarzda aytsa, ko'p emas, ikki- uch martagina ismingizni tilga olib, qolgan hollarda do'stim, birodar, kursdosh, deb murojaat etsa, bilingki, u(lar) sizni hurmat qilishadi. Xalqimizda "O'zini, o'z nomini hurmat qilganlar, boshqalarning ismini ham, o'zini ham hurmat qiladi", degan oqilona gap bor. Bunga amal qilishda statistik metodning yordami zarur bo'lib qoladi.

Mamlakatimizdagi hududiy bo'linish va toponomik hududiy bo'linish ham ularga xos umumiy hamda individual belgilarni jamlab, tahlil qilish statistik metodning faolligini oshiradi.

Bizningcha, "O'zbek nomshunosligi" sohasidagi to'plangan mavjud barcha so'zlar majmui mazkur metod bilan o'rganilishi ilmiy tadqiqotlar olib borishning birinchi, avvallgi sharti deyish mumkin. Masalan, rus olimasi P.P.Podolskayaning nomshunoslik masalalariga, shu jumladan, unda qo'llanadigan metodlarning talqini va tavsifiga bag'ishlangan terminologik lug'ati 1977, 1988 -yillarda to'ldirilgan va tuzatilgan holda ikki marta nashr etilgan. Demak, nomshunoslikda qo'llanadigan metodlar bilan nomlar qancha ko'p o'rganilsa, bu sohadagi tadqiqotlar misollar bilan shunchalik boyib boradi.

II BOB. ATOQLI OTLARNING LEKSIK-GRAMMATIK

XUSUSIYATLARI

II.1. Onomastik ma'no

Atoqli ot. Bunday soʻzlar nutqda narsa, hodisalarni, kishilardan birini atab, chaqirish uchun ishlatiladi va kim?, kimlar?, qayer? kabi soʻroqlarga javob boʻladi. Shuning uchun ham ular ilmiy ishlarda onomastik leksika deyiladi. Bu yerda onomastik leksika deganda nomga asos boʻlgan soʻzlar va ulardan shakllangan nomlar tushuniladi. Shu oʻrinda onomastika terminidan esa nomshunoslik degan ma'no anglashiladi. Demak, onomastik leksika atoqli otlarning shakllanishiga asos boʻlgan soʻzlar va nom degan ma'noni anglatadi. Atoqli otlar, ya'ni nomlar tildagi hamma soʻzlardan tuzilmaydi, balki tilimizdan tanlab-tanlab olingan soʻzlar majmuida yana saralanib olingan holda shakllanadi. Shu sababli atoqli ot tushunchasiga kengroq toʻxtalish lozim boʻladi.

Ilmiy manba va kitoblarda narsa-hodisalarning bir-biridan farq qilib turishga koʻmak beradigan atoqli otlarga narsa-hodisalarning umumiy nomi boʻlgan turdosh otlarni qarama-qarshi qoʻyiladi. Shu oʻrinda mustaqil soʻz turkumlaridan biri boʻlgan ot soʻz turkumidagi soʻzlar majmuini ma'no farqlab turishiga koʻra atoqli va turdosh otlarga ajratilishida ma'lum asoslar bor. Ma'lum ma'noda bu toʻgʻri holdir.

Yuqorida koʻrsatilganidek, atoqli otlarning obyektlari xilma-xil koʻrinishlarga ega. Ular fanda onomastik leksika, ya'ni nomlarga asos boʻladigan soʻzlar, deb guruhlanga, turdosh otlar apellyativ leksika deyiladi.

Atoqli ot boʻlishi uchun soʻzlar: a) biron narsani atashi lozim; b) u nomlik ma'nosiga ega boʻlishi shart; v) turdosh otlik xususiyati unutilgan yoki xiralashgan boʻlishi kerak (Ravshan-kishi ismi, ravshan-yorugʻlik ma'nolarida); g) orfografik jihatdan ularning birinchi harfi bosh harf bilan yozilishi-bu me'yoriy talab bajarilmasa, atoqli otlik xususiyatini asoslab berish ogʻir boʻladi; d) ba'zi bir oʻrinlarda esa nomlar qoʻshtirnoqqa ham olinishi lozim boʻladi; e) orfoepik nuqtayi nazardan atalganlik tarizida toʻgʻri, aniq va ravshan tarzda aytilishi oʻrinli boʻladi.

Zamonaviy tilshunoslikda atoqli otlarni o'rganish. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida atoqli otlarni jiddiy o'rganishni boshlab bergan olimlardan biri professor E.Begmatov hamda uning shogirdlari sanaladi. U XX asrning 60-yillari boshlarida kishi ismlari yuzasidan filologiya fanlari nomzodligi uchun yozgan ilmiy ishida o'zbek tilshunosligida antroponimlarni tadqiq etish lozimligini ilmiy-nazariy planda asoslay oldi. Bugungi kunda ushbu olimning shogirdlari o'zbek nomshunosligining o'zbek antroponimikasi va toponimikasi sohalarida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Ushbu olimning qariyb qirq yillik izlanishlari va bir qator ilmiy tadqiqotlari kitoblar sifatida nashr etilgan. Shulardan biri 1998-yilda nashr etilgan "O'zbek ismlari. 14600 ismlar izohi" nomli lug'ati bu sohada salmoqli tadqiqotlardan biri. U "Nashriyotdan", "Lug'atning tarkibi va tuzilishi", "Asosiy qisqartmalar va shartli belgilar", "Alloh ismlari", "Ismlarning izohli lug'ati", "O'zbek ismlarining etnografiyasi" nomli qismlardan tashkil topgan. Ayni vaqtda bu asar ilmiy xodimlar qo'lida, turli xizmat xodimlarida va umuman xalq vakillari qo'llaridan tushmayotgani uning zarur kitoblardan biri ekanligini asoslab turibdi.

O'zbeklarning nom (ism) qo'yish odatlari, undagi yetakchi an'ana va tendensiyalar esa O'zbekiston Respublikasining butun hududida bir xil emas. Shuningdek, boshqa xalqlarning nom qo'yish odatlari ham turlicha. Respublikamizning turli joylarida o'sha viloyat, tuman, qishloq kengashi uchun xarakterli bo'lgan ba'zi rasm-rusmlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda tarixiy an'analarni uchratish mumkin. Bu ko'p holda mahalliy aholining etnik tarkibi, tarixiy o'tmishi, muayyan milliy an'analari bilan uzviy aloqadordir. Bugungi kunda ham o'zbeklarning hududiy va viloyatlar bo'yicha antroponimiyasi deyarli tadqiq etilgani yo'q. Respublikamizning har bir regional hududidagi o'ziga xos takrorlanmas ismlarni, ularni tug'diruvchi betakror, odatda rasm-rusmlarni atroflicha to'plash, lisoniy hamda etnolingvistik tahlil qilish tilshunoslik fani uchungina emas, qolaversa, adabiyot, tarix, folklor, falsafa, etnografiya, psixologiya kabi fanlar uchun ham ilmiy va amaliy qimmatga ega dalillar majmuining talqini sanaladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turganidek, zamonaviy tilshunoslikda atoqli otlarni o‘rganishishning quyidagi muammolari bor: 1) mamlakatimizdagi atoqli otlar ko‘lamini aniqlash; 2) sinxron tahlil jarayonidan diaxron tahlil jarayoniga o‘tish; 3) nomlarga tegishli bo‘lgan izohli tahlilni kuchaytirish; 4) nomlarga oid bo‘lgan etimologik tahlil va tadqiqni tadqiqotchilarni doirasi bilan birga olib borish; 5) atoqli otlarning turlari doirasida tadqiqotlar olib borib, maxsus etimologik lug‘atlarni tuzish; 6) nomshunoslikka, xususan, o‘zbek nomshunosligiga oid termin va tushunchalarning talqini, tahlili yuzasidan tadqiqotlarni olib borish; 7) atoqli otlarning “Qizil kitobi”ni shakllantirish va chop qilish.

Har bir narsaning o‘z nomi bor. Nom(ism)lar esa fanda atoqli otlar majmui hisoblanadi. Shuning uchun insonlarning ismi, laqabi, familiyasi, taxallusi, nisbasi; urug‘ qabila, el – elat, xalq; tog‘, tepa; qabriston, kosmik jismlar, tarixiy obidalar, o‘rmon, qo‘riqxonalar, dasht, cho‘l, sahro; soch, qo‘l, dengiz, daryo, ariq, hovuz, suv ombori; o‘simlik, hayvon, shahar, qishloq, guzar, bozor, maydon, ko‘cha, yo‘l, ko‘prik, o‘lka, xilma-xil mahsulot nomlari, gazeta, jurnal, badiiy asarlarning nomi, turli tashkilot, muassasa, davlat, qit‘a (materik) kabilarning nomlari yuqorida tilga olingan atoqli otlar tizimining ma‘lum bir qismini tashkil qiladi.

Ularning nomlari, nomlanishi, ma‘nosi va ularning tahlillari talqini otabobolarimiz tomonidan azal-azaldan o‘rganilib kelingan. Bugungi kunda esa ular maxsus so‘roqliklar vositasida yig‘ilgani singari tilimizdagi mavjud umumiy nomlar tizimining bir butunligini ta‘minlashga xizmat qilishiga ham ko‘mak beradi.

Ayni vaqtda atoqli otlarning quyidagi nomlari ilmiy jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilib, ham ilmiy, ham nazariy jihatlardan o‘rganilmoqda: 1) joylarning nomlari – toponimlar, shahar, qishloq, ovul, mahalla, guzar, tuman, viloyat nomlari; 2) kishi ismi; 3) kishi familiyasi; 4) kishi taxallusi; 5) kishi nisbasi; 6) kishi laqabi; 7) kino nomlari; 8) badiiy asarlar nomlari; 9) gazeta nomlari; 10) jurnal nomlari; 11) suv inshootlari nomlari; 12) mashina nomlari; 13) osmon jismlari nomlari; 14) materiallar nomi; 15) tarixiy nomlar; 16) tarixiy voqea-

hodisalar nomlari; 17) sarlavhalar; 18) muchal nomlari; 19) oronim nomlari; 20) korxona va tashkilotlarning nomlari; 21) maktablar nomi; 22) futbol komandalari nomlari; 23) stadion nomlari; 24) radio kanallari nomlari; 25) teledasturlar nomi; 26) haykallar nomlari; 27) bekatlar nomlari; 28) telefonlar nomi; 29) tanga va pul nomlari; 30) diniy nomlar, 31) ilohiy nomlar; 32) dromonimlar; 33) ko‘prik nomlari; 34) kasalliklar nomlari; 35) rasm nomlari va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Demak, atoqli otlarga kishi ismi bilan birga boshqa obektlarning atoqli otlari ham oid. Bu hol ham atoqli otlar masalasi ancha bahsli holatda ekanligini ko‘rsatadi. Ularning yana boshqa turlarini berish mumkin. Biroq ana shular ham atoqli ot degan tushunchani biror narsaning nomini atash bilan bog‘liq tushuncha deyish mumkin.

II.2. Atoqli otlarda fonetik hodisalar va imlo masalalari

Atoqli otlarni qo‘llash hamda yozishda bir necha tamoyillarga egaligini ham hisobga olish shart. Ular quyidagilardan iborat:

1. Barcha atoqli otlarning birinchi harfi gap boshida, gap o‘rtasida hamda gap oxirida kelsa ham bosh harf shakli bilan yoziladi.
2. Ba’zi bir atoqli otlarning biror elementi ikkinchisidan chiziqcha bilan ajratiladi. Misol: “Devon-ul lug‘atit turk” .
3. Bir qancha atoqli otlar qo‘sh tirnoq ichida yoziladi: “Olmos kamar”, “Qirq besh kun”, “Odam bo‘lish qiyin”, “Navoiy”, “Yulduzli tunlar” kabilar.
4. Ba’zi bir atoqli otlar qisqartirib ham yoziladi: O‘ZMU, SamDU, QarDU kabi.
5. Ba’zi bir obyektlarga bir vaqtning o‘zida ikkita nom berish holatlari ham uchraydi. Hamid Olimjon nomidagi Jizzax davlat universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, Mairzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti va boshqalar.
6. Atoqli otlar tarkibida omonimlik holati uchrab turadi. Navoiy (shoirning taxallusi), “Navoiy” (shoir haqidagi roman nomi), Pushkin, “Pushkin” (shoir haqidagi roman nomi).

7. Ba'zi bir atoqli otlarning barcha elementlari bosh harfi bilan yoziladi. Masalan: bir qancha asar nomlari kitobning old sahifasida bosh harflar bilan yoziladi.

8. Ba'zi bir atoqli otlar oddiy so'z ma'nosida qollanganida kichik harf bilan ham qayd etiladi

9. Ba'zi atoqli otlarning oldidan ularning aniqlovlari to'liq va qisqartirib ham beriladi. Matbuot sahifalarida atoqli otlar faol ishlatiladi. Ularsiz biror bir xabar, ma'lumot, maqola muallif kutganidek o'zining yaxshi mazmuniga ega bo'la olmaydi, ammo ularning qo'llanishi va yozilishi masalasi ancha bahsli holatlardan biridir.

O'zbek tilshunosligida "Nomshunoslik" (onomastika) bo'limida atoqli otlar muammosi ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan mavjud dalillar vositasida tahlil hamda talqin etiladi. O'rxun-Enasoy qabr toshlaridagi kishi ismlari, joy nomlarida, shuningdek, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida kishi ismlari, shahar, o'lka nomlari misolida atoqli otlarga munosabat bildirgan. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida esa atoqli otlarga oid aytib o'tilgan munosabat ijodiy barkamollikning yuksak pog'onasiga ko'tarilgan. Shuning uchun Alisher Navoiy asarlarining qahramonlari xalqimizning eng sevimli ismlari sifatida yod bo'lib qolgan. Boburning "Boburnoma" asarida ona-Vatan mehri, uni qo'msash va unga intilish ruhi, shukuhi va shukronasi asarda hurmat-u ehtirom bilan tilga olingan Farg'ona, Andijon, Marg'ilon, Toshkent, Samarqand, Shahrisabz singari yuzlab toponimlarga tushganligi bilan ayni vaqtda hammaning e'tibor va e'tirofini ham qozonib kelmoqda. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida H.Hasanov, E.Begmatov, T.Nafasov, A.Muhammadjonov, Z.Do'simov, S.Qorayev kabi o'nlab olimlarning xatti-harakatlari bilan XX asrning 60-yillaridan boshlab mamlakatimiz hududidagi atoqli otlarni ilmiy asoslarda o'rganish masalasi ko'tarildi va o'zining zamonaviy shakldagi real, ya'ni dalillar bilan asoslangan ilmiy yechimini topmoqda.

Nomlarning yozilishi. Nomlarning yozilishi masalasi o'zbek nomshunosligida ayni vaqtda bahsli masalalar jumlasiga aylangan. Sababi, ular adabiy orfografik talablar asosida yoziladi va adabiy orfografik talablar asosida

yozi olmaydigan, aniqrogʻi, shevada nomlangani uchun yozishning iloji yoʻq koʻrinishlari bor. Masalan, Bugʻdoyzor, Bugʻdayzor; Ravot; Rovot; Mangʻit, Mangit; Mashinasaroy, Moshinsaroy; Damba, Domba; Denov va Jdenov nomlarini olish mumkin. Juft nomlarning birinchisi adabiy orfografik talablar asosida yozilsa, ikkinchisini esa adabiy orfografik talablar bilan yozib boʻlmaydi. Agar ular adabiy orfografik talablar bilan yozilganda shu nomlarni qoʻllaydiganlar uchun begona boʻlib qoladi. Ular mamlakatimizdagi qishloq, aholi punkti, maydon, ekin maydonlarining nomlari.

Nomlarning yozilishidagi yana bir salbiy holat – bu kishi ismini qisqartirib, familiyani toʻliq yoki ikkalasining ham birinchi harflarini saqlab qolgan holda yozish hollardir: S.Salimov-S.S; T.Ernazarov: T.E... Bunday yozish gazeta, jurnallarda ayni vaqtda tez-tez uchrab turishi kuzatilmoqda.

Quyida nomlar imlosidagi nuqsonlarni tugʻdiruvchi sabablar, ikki xil shakl (variant)da yozishga yoʻl qoʻyiluvchi holatlar, toponimlar imlosining umumiy tamoyillari, tub va sodda, yasama va qoʻshma toponimlar imlosi, nomlarning ikki xil shakl (variant)da yozishga yoʻl qoʻyiluvchi holatlar hamda yozilishidagi nuqsonli holatlar toʻgʻrisida toʻxtalamiz:

Nomlar imlosidagi nuqsonlarni tugʻdiruvchi sabablar. Oʻzbekiston hududida uchraydigan joy nomlari imlosining deyarli oʻrganilmagani, ular imlosining muayyan qoidalar olinmagani, toponimlar yozilishini meʼyorlashishining ilmiy tamoyillari ishlanmaganligi joy nomlarining turli yozma matnlarda xilma-xil yozishga sabab boʻlmoqda. Holbuki, toponimlar turli yozma matnlarda umummaqbul qilingan (kodifatsiyalangan va standartlashtirilgan) shakllarda yozilmogʻi kerak.

Toponimlar imlosidagi asosiy nuqson nomlarning turli shakliy variantlarda yozilayotganidir. Bu quyidagilarda koʻrinadi.

- 1.Nom(lar)ni tarixiy va sinxron shaklda yozishning ikki xil boʻlishi.
- 2.Nomlarni adabiy va lahjaviy shakllarda qayd etish.
- 3.Nomlarni oʻzbekcha hamda ruscha shakllarda yozish.
- 4.Nomlar shaklini xalq hamda ilmiy etimologiyasiga tayangan holda belgilash,

yozib borish.

Toponimlar imloviy variantlarini tug'diruvchi asosiy sabablar quyidagilar:

1. Toponimning mahalliy lahja va shevalaridagi shaklini o'zbek adabiy shaklidan farqlamaslik.
2. Toponimlarni to'g'ri yozishni belgilab beruvchi qoidalar, ma'lumatnomalar imlo lug'atlarining yo'qligi.
3. Toponimlar imlosining hozirga qadar deyarli o'rganilmaganligi va imloviy umumlashtirilmaganligi.
4. Toponimni yozuvchi shaxsning savodxonlik darajasiga e'tiborsizligi va mas'uliyatsizligi.

Toponimlar imlosidagi imloviy nuqsonlar quyidagilarda ko'rinadi:

1. Toponimlarning fonetik shaklida uchraydi.
2. Toponimlarning morfologik shaklida bo'ladi.
3. Qo'shma toponimlarning komponentlarini qo'shib yozishlikda uchraydi.
4. Qo'shma toponimlar komponentlarini, aksincha, ajratib yozishlikda ko'rinadi.
5. Nom komponentlari orasiga defis qo'yilishida ham uchrab turadi.
6. Nom ikkinchi qismning goh kichik harf bilan, goh bosh harf bilan yozilishida ko'riladi.
7. Nom komponentlarini goh qo'shib, goh ayrib yozilishida uchraydi.
8. Nom ikkinchi qismida egalik qo'shimcha (-i) mavjud nomlarning ikki xil: goh qo'shib, goh ajratib yozilganida ko'rinadi.
9. Ikkinchi qismi mustaqil atoqli ot bo'lgan toponimlarning ikki xil raqam qilinayotganida uchraydi.
10. Nomlarning lahcha va shevaviy shakllarining sun'iy ravishda adabiy lashtirilishida.
11. Toponimlarning ruscha shakldagi yozilishida uchraydi.
12. Toponimlarning tarixiy yozilish shakli va hozirgi yozilish shakllari orasida imloviy farqlarda ham uchrab turadi.
13. Toponimlar tarkibidagi geografik termin va indikatorlar- ularni goh ayirib, goh qo'shib yozilayotganida va boshqa hollarda uchraydi.

Ikki xil shaklda yozishga yol qo'yiluvchi holatlar. Ba'zi bir toponimlarning ikki xil yozilishiga yo'l qo'yiladi. Buning sababi bir qator toponimlarning tarixiy-an'naviy shaklda, adabiy til va shevada, lahjaviy talaffuz shakllarida mavjudligi va ikkala imloviy shakllarning topoobyektlarni atashda, nomlashda faol qo'llanishidir. Shuning uchun ham bunday nomlarni imloviy jihatdan bir xil, ya'ni adabiy shaklga keltirish imkoni yo'q, chunki bunday qilinsa, ba'zi bir toponimlarning asrlar davomida iste'molda tabiiy obyektiv talaffuz hamda yozuv shakllari buziladi. Mavjud nomlarning lahjaviy va shevaviy shakllarini adabiy lashtirish esa o'z-o'zidan ularni yozishda sun'iylikni keltirib chiqaradi. Natijada, mazkur holat mahaliy hudud aholisiga g'ayritabiiy tuyuladi hamda singmaydi. Bugungi kunda onomastika (nomshunoslik)ning, uning bir bo'lagi bo'lgan o'zbek toponimikasining asosiy maqsadi- bu toponimlarni hududiy, sheva va lahjaviy xususiyatlarini imkoniyar darajasida saqlab qolish bilan ularning o'ziga xos tarixiylashtirishning davomiyligini ko'rsatish sanaladi.

Mana shunday xususiyatlarga ega toponimlarning xarakterli guruhlaridan namunalar quyidagilar:

- tov, tog'* so'zlari mavjud toponimlar: Bukantov, Yetimtov;
- jamon//yamon* so'zlari bor toponimlar: Jamandara, Yomonjar;
- bov// bog'* so'zlari bor toponimlar: Uchbov, Qorabov
- Xild//Xizr* so'zlari bor toponimlar: Xildosh
- Xonza// Xonaqoh* so'zlari bor toponimlar: Xonqa
- qo'bdubdu// xubdu* so'zlari bor toponimlar: Qo'bu;
- voq// bog'* so'zlari bor toponimlar: Chorvoq;
- jilon// ilon* so'zlari bor toponimlar: Jilonli;
- qand// kent* so'zlari bor toponimlar: Toshkent, Samarqand;
- kechuv // kechish* so'zlari ma'noli toponimlar: G'uzor;
- nukus // neguz* so'zlari bor toponimlar: Nukus;
- rud // ro'y* so'zlari bor toponimlar: Qo'shrud;
- siyob // siyoh* so'zlari bor toponimlar: Siyob, Siyob daryosi;
- chuvildoq // chuvilloq* so'zlari bor toponimlar: Chuvilloq;

-kan // kant soʻzlari bor toponimlar: Zarkand, Parkand;

-jar // yor soʻzlari bor toponimlar: Jarqishloq;

-qand // at soʻzlari bor toponimlar: Toshkent, Parkent;

-yomchi // jomchi soʻzlari qoʻllangan toponimlar: Jomchi;

-joʻ // joʻy soʻzlari bor toponimlar: Pastjoʻy, Yuqorijoʻy.

Shuningdek, -juz(eti)//yuz; -udaychi// -xudaychi; -bahrin// hudaychi; -dorugʻa; -yobi// -yovon; -jayima// -yoyilma; -yom// -jom; -zan// -zak// -zey, -zulqaynar soʻz(lar)i mavjud toponimlar ham kam boʻlsa-da uchraydi.

Toponimlarni ikki xil shaklda yozishdagi bu asosiy hollar alohida boʻlib, mukammal holda bayon etish moʻljallangan.

Nomlar imlosining umumiy tamoyillari. Toponimlar imlosida quyidagi umumiy tamoyillar mavjud:

1. Toponimlarning imloviy meʼyorlari 1995- yilda qabul qilingan “Oʻzbek tili imlo qoidolari” talablariga boʻysunadi.

2. Ular atoqli ot boʻlgani uchun doimo bosh harf bilan yoziladi.

3. Toponimlar adabiy tilda va lahjaviy shakllarga ega. Barcha toponimlarni bir xilda imloviy shaklga keltirish mumkin emasligi sababli har bir toponim imlosiga konkret aniqroq yondashiladi. Toponimlarning imlosida nomning lahjaviy shaklda yozilishiga ham yoʻl qoʻyiladi: Jarqoʻrgʻon, Bukantov.

Toponimlarning imloviy shakllarini toʻgʻri belgilashda nomning sinxron holati, yaʼni isteʼmolda boʻlgan shakliga tayaniladi .

Tub va sodda nomlar imlosi. Bunday nomlar ikki xil boʻladi: nomlar tuzilishiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi. 1. Tub va sodda nomlarning yozilishi toponimlarni hosil qilgan soʻzning adabiy holatiga tayanadi: Orol (toponim) – orol (apellyativ), Gʻuzor, Guzar (toponim)- guzar (apellyativ), Supa (toponim) – supa (apellyativ), Qayirma (toponim)- Qayirma (apellyativ), Qaqir (toponim)- Qaqir (apellyativ) va boshqalar.

Urugʻ va qabila, qabila va millat nomlariga nisbat berilgan toponimlar (etnotoponim) yozilishi. Ularda etnonimlarning imloviy shakli saqlangan holda yoziladi: Jaloyir, Saroy, Mirishkor, Arablar, Ommogʻon, Bayot, Doʻrman,

Mangʻit, Sayyot va boshqalar.

Yasama nomlar imlosi. Yasama nomlar quyidagi koʻrinishda yoziladi:

1. Toponim tarkibidagi koʻplik sonini bildiruvchi –lar qoʻshimchasi doimo –nar, -la tarzida emas, balki –lar shaklida yoziladi: Arablar, Shagʻallar, Boylar, Zargarlar, Beklar, Qargʻalar kabi.

2. Koʻplik sonini anglatuvchi -on, -yon qoʻshimchasi nom tarkibida qanday talaffuz etilishiga koʻra -on, -yon shakllarida yoziladi: Kosagaron, Sayidon, Arabon, Namozgaron, Xudoyon singari.

3. Koʻplik sonni anglatuvchi tarixiy –ot qoʻshimchasi bir xil –ot shaklida yoziladi: Bogʻot, Rabotot, Qishloqot va boshqalar.

4. Oʻrin- joyning holatini, egalik maʼnosini anglatuvchi –loq, -lik, -liq qoʻshimchalari nom tarkibidagi talaffuz shakliga koʻra yozilladi:

-loq: Sangloq, Goʻrloq, Qumloq, Toshloq

-liq: Boyliq, Xoʻjaliq, Soyliq, Jomboyliq, Chimboyliq, Qoʻqonlik;

-lik: Attorlik, Zargarlik, Tepalik;

-kor qoʻshimchasi doimo –kor (-kar shaklida emas) yoziladi: Lalmikor, Paxtakor, Sabzikor;

-goh qoʻshimchasi har doim odatdagi shaklda yoziladi: Janggoh, Nomozgoh, Sayilgoh, Korishgoh, Shamolgoh;

-li qoʻshimchasi –lik, -lu shaklida emas, balki har doim –li shaklida yoziladi: Anjirli, Alili, Burganli, Piyozli, Tolli, Ilonli, Chayoli, Oʻroqli

-zor qoʻshimchasi –zar shaklida emas, balki –zor tarzida doimo yoziladi: Bodomzor, Archazor, Oʻrikzor, Bedazor, Sangzor, Terakzor, Chilonzor;

-chi qoʻshimchasi har doimo oʻz holicha yoziladi: Tuyachi, Qoshiqchi, Zominchi, Oloychi, Oʻnarchi, Oʻqchi, Qulonchi, Aravachi, Boʻyrachi;

-iston qoʻshimchasi –uston, -ston shaklida emas, balki har vaqt –iston shaklida yoziladi: Oʻzbekiston, Sebiston, Turkiston, Shoriston, Bogʻiston;

Qoʻshma nomlar imlosi. Oʻshma nomlar quyidagicha holatlarda yoziladi: Qismlari qoʻshib yoziluvchi toponimlar. Toponimlarning bu guruhiga oid quyidagi tiplari har doim qoʻshib yoziladi:

- a) ot-ot model(qolip)li nomlar: Qumqoʻrgon, Qorovulbozor, Toshbuloq, Qumquduq, Naymanqishloq, Qozoqovul, Koʻrpamahalla;
- b) sifat-ot model(qolip)li toponimlar: Balandmachit, Yangibozor, Oqqoʻrgʻon, Koʻkbuloq, Oqdaryo, Qiziljar, Qoratogʻ, Shoʻrquduq, Pastqishloq;
- v) son-ot model(qolip)li toponimlar: Beshbuloq, Mingchinor, Beshqayragʻoch, Toʻqsonkamar, Oʻttizovul, Yakkasupa, Yolgʻizqum, Qoʻshkoʻprik, Qoʻshtol;
- d) birinchi qismi kishi ismi va ikkinchi qismi indikordan iborat model(qolip)li toponimlar: Rahimobod, Yunusobod, Abdullaqishloq, Abdullachek, Ismattepa, Shofaizquloq;
- g) feʼl-ot , ot-feʼl model(qolip)li, ega kesim va aniqlovchi aniqlanmish tuzilmali toponimlarda nomlarning qisimlari qoʻshib yoziladi: Borsakelmas, Gadoytopmas, Soykeldi, Suvbosgan, Qumbosdi, Uygantosh, Uchganjar singarilar.

Qisimlari ajratib yoziladigan nomlar. Ushbu toponimlarning quyidagi tiplari doimo ajratib yoziladi:

- a) birinchi qismi sifat, ikkinchi qismi toponim (atoqli ot)dan iborat nomlar:
 - katta-toponim: Katta Oqtepa, Katta Beshkapa, Katta Naymancha,
 - kichik-toponim: Kichik Aravon, Kichik Qoʻrgʻoncha, Kichik Amirobod, Kichik Toshloq;
 - pastki-toponim: Pastki Oyoqchi, Pastki Qorasuv, Pastki Sariqqamish, Pastki Uyshun;
 - past- toponim: Past Diktor, Past Ommagʻon;
 - quyi-toponim: Quyi Beshrabot, Quyi Shoʻrobod, Quyi Nazmetan;
 - etak-toponim: Etak Saroy, Etak Boybuta, Etak Oqqoʻrgʻon, Etak Qoramozor;
 - oʻrta-toponim: Oʻrta Qorabogʻ, Oʻrta Rahimobod, Oʻrta Shoʻrchi, Oʻrta Saydov;
 - yuqori-toponim: Yuqori Arabxona, Yuqori Oloy, Yuqori Qoraqiya, Yuqori Jurmiz;
 - yangi-toponim: Yangi Baliqchi, Yangi Gulbogʻ, Yangi Mirishkor;
 - eski-toponim: Eski Toshloq, Eski Hayirobod, Eski Albayon, Eski Haqqulobod.

Qayd qilingan nomlarda kelgan soʻzlar toponimning bir qismi boʻlgani katta harf bilan boshlab yoziladi: a) ikkinchi qism atoqli ot boʻlgani uchun uning

birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi; b) kishining ismi, si, taxallusi va laqablariga nisbat berilgan toponimlar tarkibidagi ism va qo'shib yozilmaydi, ajratib yoziladi: Abdulla Qodiriy mahallasi, Habib Abdullayev ko'chasi kabi, v) toponim tarkibidagi indikator egalik affiksi -i qo'shimchasini olgan hollarda asosiy qismga qo'shib yozilmaydi: Cho'lpon ko'chasi, Mustaqillik maydoni, Yozyovon cho'li kabilar.

Ba'zi tarixiy toponimlarda indikatorlar egalik qo'shimchasini olmagan holda ham uchraydi. Bunday hollarda indikatorlar nomning asosiy qismiga qo'shib yoziladi: Akbarko'cha, Yunusmahalla, Madaminchek, Xo'jaqishloq.

Nomlarning yozilishidagi nuqsonli holatlar. Hozirgi kunda nomlarning yozilishidagi holatlarga jiddiy e'tibor qaratilgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach ham, ularni nuqsonli tarzda yozish noto'g'ri ekanligini e'tirof etish kerak.

Nom, ya'ni toponimlar quyidagicha nuqsonli holatlarda berilmoqda:

1.Ko'p bo'g'inli toponimlar ikki qismga bo'lib, ular o'rtasiga chiziqcha qo'yib yozilishi uchramoqda: Bel-tepa, Qo'y-luq, Tosh-kent, Yunus-obod.

2.Ko'p bo'g'inli toponimlarning ikki qismda ruscha yozish elementlari uchrab turibdi. Misol: Surxan-darya, Amu-darya.

3.Sheva so'zligi ta'sirida toponimlardagi r/l undoshlari almashinib qo'llaniladi: Morguzar>Molguzar

4.Nomlarning yozilishida talaffuzdagi shakllari ham uchraydi: Toshkent-Toshkand, Samarqand-Samarkand-Samarkan.

Nomlarning to'g'ri va noto'g'ri yozilishining so'zga, shuningdek, leksikologiyaga bog'liqligi shundaki, adabiy orfografik talablar asosida yozilgan nomlar so'zlik sifatida leksikologiyada ham o'rganiladi. Nomlanishi kerak bo'lgan obyektlar sheva so'zlari bilan nomlanilsa, ular adabiy orfografik xususiyatlarni ifodalay olmaydi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, nom(toponimning ham) larning imlo lug'atlarini tayyorlab nashr etish hamda ko'paytirish zarurati sezilib turibdi.

Nomlarning aytilishi ularning orfoepiyasi hisoblanadi. Odatda, nomlarning

to'g'ri va noto'g'ri aytilishi nutqiy jarayonda uchrab turadi. Shuning uchun ularning talaffuz etish lug'atini tayyorlash va nashr etish lozim. Masalan, Denov va Jdenov nomlarini olsak. Ular mamlakatimizdagi ikkita shaharning nomi bo'lgan holda kirill yozuvida bir xil talaffuz etiladi. Bu esa nomlashda, atashda turli xil darajadagi yanglishlarni, chalkashliklarni yuzaga keltirishi aniqdir. Mamlakatimiz poytaxti nomi bo'lgan Toshkent-Toshken, Toshkand, Tashkand, Toshkan shakllarida, Shahrisabzning *Shahaar* deb aytilishi uchraydi. Bunday holatlar ham nomlarning aytilishidagi individual xususiyatlar sanalgani kabi, nuqsonli holatlar ham hisoblanadi. Yozilishi ham, aytilishi ham bir til doirasida bir xil, jiddiy o'zgarishlarga uchramagan, qo'pol ma'nosi bo'lmagan nomlar miqdorini ko'paytirish ayni paytda to'g'ri yo'l sanaladi. Shundagina nomlarning kelib chiqishi va ma'nolari haqidagi turlicha talqin-u tahlillar ham kamayadi va ilmiy tahlilga kirishiladi.

II.3. Atoqli otlarning leksik-lisoniy guruhleri

"O'zbek nomshunosligi"ning bir-biridan tubdan farqlanadigan bo'limlari mavjud. Shu sababli ham undagi har bir bo'lim va ularning obektlari individual belgilari bilan boshqalaridan farqlanib turadi. Ularning ba'zi birlari to'g'risida "O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati"da qisman bo'lsa ham sharh va izohlar mavjud¹. Ular haqidagi mukammal, jiddiy tadqiqotlar ayni vaqtda amalga oshirilmoqda.

Ular obektlarning turiga ko'ra quyidagilardan iboratdir:

Antroponimika (kishi ismini o'rganadi), toponimika (joy nomlari), kosmonimika (osmon jismlari nomini o'rganadi), etnonimika (xalq, urug', qabilalarning nomlarini tadqiq qiladi), fitonimika (o'simlik nomlarini ilmiy asoslarda tahlil etadi), zoonimika (hayvon nomlarini ilmiy asosda o'rganadi), gidronimika (suv inshootlarining nomini tadqiq qiladi), oykonimika (aholi punktlarining nomlarini o'rganadi), agronimika (maydon va bozorlarning nomlari

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006. 103-бет.

tahlil etiladi), agroonimika (dala, ekin maydonlari, adirlar, yer uchastkalarining nomlarini o'rganadi), agionimika (muqaddas, ilohiy narsalarning nomlari ilmiy tahlilga tortiladi), xrononimika (tarixiy voqea va hodisalar nomlarini o'rganadi), andronimika, astionimika, venusonimika, gelonimika, geonimika, dignitonim, drimonimika, dromonimika, ktematonimika, komonimika, nekronimika, okeanonimika, oronimika, planetonimika, paragonimika, xoronimika, xrematonimika va boshqalar.

Bularning har biri bir necha ilmiy tadqiqot ishi uchun maxsus mavzu sanaladiki, ularning farqli hamda o'xshash xususiyatlari borligini ham ilmiy ish olib borishda unutmashlik shart. Biz mavjud imkoniyatlarimizdan kelib chiqqan holda ulardan ba'zilarini qisqacha bayon etishga, xususan, ba'zi birlarining tahlilini berishga harakat qilamiz.

O'zbek antroponimikasi. Kishi nomi, ismi, otasining ismi, laqabi, taxallusi, nisbalari antroponimlar deyiladi. Ularning majmui antroponimiya deyiladi. Ularni o'rganuvchi "Nomshunoslik" sohasining kichik bo'limi esa antroponimika deyiladi. Antroponimika "O'zbek nomshunosligi" bir qismi sifatida talqin etilishining ma'rifiy, ma'naviy, estetik asoslari bor. Sababi, bu ularni qo'llaydigan xalqlarning mavjudligi hisoblanadi. Bugungi kunda barcha xalqlarda qo'llanilayotgan kishi ismi, familiyasi, taxallusi, laqabi, nisbasi kabilarning orfografik jihatdan to'g'ri hamda aniq yozish me'yorlarining har bir xalq yozuvi tizimida amal qilinayotgan orfografiyalari zaminida ishlab chiqilganligi umumiy hamda xususiy antroponimikaning yutuqlari jumlasiga kiradi. "O'zbek nomshunosligi"ning bir qismi, bo'lagi bo'lgan "Antroponimika"ni ham shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: umumiy antroponimika va xususiy antroponimika. Uni ismshunoslik¹, o'zbek antroponimikasini esa ikkinchi bir nom bilan o'zbek ismshunosligi deyish ham mumkin.

Umumiy antroponimikada dunyo tillari va xalqlarida qo'llanilayotgan kishi ismi, familiyasi, laqabi, taxallusi, nisbasi kabilarning turli sohalardagi qo'llanish me'yorlari hamda darajasining tadqiqini kuzatish mumkin. Bundan ancha yillar

¹ Комилов Н. Исми шариф // Соҳиб Камол. 505 исм маъноси. Қарши, Насаф, 2004. 5-бет.

oldin nashr qilingan bo'lsa hamki, “Ономастика Востока”, “Ономастика и норма”, “Ономастика Калмыки”, “Ономастика Узбекистана”, “Материалы конференции о проблемах Азербайджанской ономастики” nomli bir qancha qo'llanma hamda ilmiy anjuman materiallarida umumiy va xususiy antroponimikaning dolzarb masalalariga to'xtalangan. E.Begmatov o'zining qirq yillik ilmiy kuzatishlarini jamlab “Antroponimika” nomli monografiyani e'lon qilgan¹.

Xususiy antroponimikada esa biror til yoxud xalqqa oid bo'lgan kishi ismi, familiyasi, laqabi, taxallusi, nisbasi kabilar ilmiy asos va tamoyillarda tadqiq etiladi.

Antroponim termini uchta terminga asos bo'lgan: 1) “O'zbek nomshunosligi” masalalarining bir bo'limi – o'zbek antroponimikasi; 2) o'zbek nomlarining yig'indisi, majmui- o'zbek antroponimiyasi; 3) o'zbeklarning nomi, ismi, familiyasi, taxallusi, nisbasini anglatuvchi tushuncha – antroponim. Ular bir-birini taqozo etadigan termin sanaladi.

Xususiy antroponimikaning bir bo'limi sifatida o'rganilayotgan “O'zbek antroponimikasi”ni quyidagi tarzda davrlashtirib o'rganish maqsadga muvofiq, deb bilamiz:

XX asrning 60-yillaridan boshlab E.Begmetovning kishi ismlarini ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlari bilan ilmiy- nazariy va amaliy yo'nalishlardagi tadqiqotlarni boshlab xuddi shu yo'nalishdagi tadqiqotlarga rahbarlik qilib, mazkur sohadagi ishlarni rivojlantirgan T.Nafasov, N.Husanov, N.Oxunov, Z.Do'simov, S.Qorayev, S.Nayimov kabi boshqa olimlar ham bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Mana shu jihatlarini hisobga olgan holda nomlarni ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etish o'rinli.

“*O'zbekiston toponomikasi*” tarixidan. Toponomikaning asosiy qonuni (Основной закон топонимики –bu V.A.Nikonov tomonidan qo'llanilgan termin) bu toponimlarning jamiyat tomonidan qo'llanishi ekanligini e'tiborga olsak, u

¹ Бегматов Э. Антропонимика. Тошкент: Фан, 2012.

holda toponimlarning ham o'z tarixi bo'lgani kabi "O'zbek toponimikasi"ning ham tarixiy taraqqiyotini aks ettiradigan o'z tarixi bor. Buni shartli ravishda uchga bo'lish mumkin:

- 1) qadimgi davrlarda to X asrgacha bo'lgan bo'lgan davrlardagi toponimlar- bu davr uchun eng qadimiy qo'lyozmalardan tortib, "Avesto" kabi diniy-ilohiy kitoblar, O'rxun- Enasoy yodgorliklari, ilk diniy asarlar manba bo'lib xizmat qiladi. Ammo bu davr manbalaridan toponimlar yig'ib, tadqiq etilmagan;
- 2) X asrdan to XV asrgacha bo'lgan toponimlar – mazkur vaqtga Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy kabi shoir va olimlarning asarlari manba bo'la oladi. Ushbu davr manbalaridagi toponimlar ham jamlanib, ilmiy tahlilga tortilmagan;
- 3) XV asrdan to XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan vaqtdagi toponimlar- ushbu davrda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Furqat singari shoir va geograf, tarixchi olimlarning ishlari o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bu vaqtdagi manbalardagi toponimlar qisman o'rganilgan, xolos;
- 4)XX asrning 20-yillaridan to XX asrning 80-yillarigacha bo'lgan davr- sho'ro davri adaboyoti, geografiyasi va tarixchiligiga oid manbalar mazkur davr uchun material bo'la oladi. Biroq bu davr manbalaridagi toponimlar to'plab ilmiy tahlil qilingan bo'lsa-da, negadir mukammal ilmiy tahlili amalga oshirilmagan;
- 5) XX asrning 90-yillaridan to bugungacha, ya'ni XXI asrning yigirmanchi yillarigacha bo'lgan davrdagi toponimlar- sho'ro davrining oxiri hamda mustaqillik davri manbalari asosida muhrlangan toponimlar.

"O'zbek toponimikasi"ning bugungi holati. Har bir davlatning hududidagi toponimlarning o'zi amal qilayotgan yozuv tizimidagi qoidalari asosidagi yozuv tizimi mavjuddir. Shuning uchun jahondagi mavjud har bir davlat boshqaruvining idora organlari, transport va aloqa muassasalari, fan, maorif hamda madaniyat idoralari, matbuot (gazeta, jurnallar), radio va televideniya tashkilotlari mavjud toponim (joy nomlari)ning bugungi kunda tan olingan xalqaro tillarda, xususan, davlat tili sifatida tan olingan milliy tillarda to'g'ri va qat'iy yozilishidan har bir davlat, shu jumladan, boshqa davlatlar kabi O'zbekiston Respublikasi ham

madaniy, ma'rifiy, tarixiy, shuningdek, siyosiy jihatlardan manfaatdordir. Bu yerda endi ularning yozilishini standartlashtirish masalasini hal etish zarur bo'lib turibdi. Ushbu hol "O'zbekiston toponimikasi" ning ayni vaqtdagi ahvoli ancha yaxshiligini ko'rsatib turibdi. Ularda o'zlari mavjud bo'lgan hududga, ya'ni yerga xos geografik, etnolingvistik, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy belgi va xususiyatlar yashirin tarzda o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham yurtboshimiz I.A.Karimov: *"Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, ifodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir. Zotan, tarix – xalq ma'naviyatining asosidir"*, - degan ta'kidlari har jihatdan o'rinlidir. Tarix deganda tarixiy voqea- hodisalar bilan birgalikda ular tarkibidagi hudud hamda joylarning nom(toponim)lari ham nazarda tutilganligini e'tirof etish lozim.

Kattami, kichikmi, har qanday geografik obyekt nomining yozilishini rasmiy va umumiy iste'mol uchun ko'p qo'llanadigan yagona shaklining yozilish va aytilish me'yorlarini aniqlash hamda ularni aniq o'sha tarzda aytilishi hamda turli manbalarda yozilishini qat'iylashtirish, ya'ni ularni bir me'yoriy holga keltirib, geografik nomlarni standartlashtirish bugungi kundagi dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Buning uchun, albatta, toponimlarning o'ziga xosligini e'tiborga olgan holda ularning yozilishi va aytilishining me'yorlarini ishlab chiqish lozim. Toponimlar qadim tarixni yoritish orqali u yoki bu joyning o'tmishdagi tabiiy geografik va tarixiy sharoiti, siyosiy holati, etnik jarayonlari, iqtisodiy mavqei, xalqaro aloqalari, ijtimoiy va madaniy hayoti, madaniyati, qishloq xo'jaligi, sanoati va boshqa narsalar haqida ma'lum bir davrga oid bo'lgan zarur ma'lumotlarni olish mumkin. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizga hamda xalqlarimizga taqdiriga daxldor bo'lgan qadim tarixga ba'zi bir aniqliklarni kiritadi. Har bir viloyat, shahar, qishloqlar tarixining o'z o'rnini bor va uni tarixiy manbalarga tayanib o'rganish ilmiy hamda amaliy jihatdan juda muhim. Shuning uchun ham qadim tariximizni yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyitishda obyektlarning atoqli oti

sifatida joy nomlarini o'rganish dolzarb masalalar qatorida turadi.

Standartlashtirish jarayoni xalq xo'jaligining barcha tarmoq hamda sohalariga xos bo'lgani kabi topoobyektlarning nomi bo'lgan toponimlarga ham tegishlidir. Toponimlarning to'g'ri yozilishi hamda ma'lum me'yorlarda aniq, ravshan berilishi standartlashtirish talablaridan biri sanaladi. Hozirgi vaqtda dunyodagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida toponim(geografik nom)larni ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy asoslarda o'rganadigan maxsus muassasalar, ilmiy tekshirish institut, ilmiy bo'lim va laboratoriyalari bo'lib, ular davlat kartografiya muassasalari bilan uzviy hamkorlikda ishlab kelmoqda. Shuning uchun ham O'zR VM huzuridagi geodiziya, kartografiya va davlat kadastri bosh boshqarmasi Geoinformatika va kadastr milliy markazi Toponimika laboratoriyasida toponimlarning turlari bo'yicha standartlashtirish jarayonini amalga oshirish maqsadida bir qancha qo'llanmalar tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasidagi toponimik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasining 2006-yilning 13-dekabr kunida bo'lib o'tgan majlisi qarorida toponimik obyektlarni nomlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi tavsiyalar ijro uchun qabul qilingan:

- 1.Viloyatlar, tumanlar, shaharlarga shaxslarning nomi berilmaydi.
- 2.Shaxsning hayot chog'ida uning nomi biror joyga qo'yilmaydi.
- 3.Shaxs nomi uning vafotidan keyin kamida 5 yil o'tgach yoki shaxsning obro'-e'tibori kamida chorak asrlik muddatga bardosh bergandagina biror obyektga qo'yilishi mumkin.
- 4.Mayda, davlat ahamiyatiga molik bo'lmagan obyektlar (firma, xo'jaliklar, kichik korxonalar, jamiyatlar, xususiy do'konlar va boshqalar) buyuk ajdodlarimiz (allomalar) nomi bilan atalmasligi kerak.
- 5.Tanlangan va quyidagi nom o'zbek tili toponimiya tizimini buzmasligi, unga zid kelmasligi, tarixiy, milliy an'alariga, umumdavlat manfaatlariga mos bo'lishi lozim.
6. Joyning avvaldan mavjud tarixiy nomini yetarli asoslarsiz o'zgartirmaslik.

7. Avvaldan mavjud joy nomini o'zgartirish zarur bo'lganda, iloji boricha joyning o'tmishda mavjud bo'lgan tarixiy nomini tiklashga harakat qilish lozim.
8. O'zbek xalqining tarixiy milliy an'alariga intilish va orzu-istaklariga, istiqlol davri mafkurasiga yot bo'lgan sovet tuzumi va kommunistik mafkura bilan aloqador nomlar bartaraf qilinishi va yangilanishi lozim.
9. Bitta nomni birdan ortiq obyektlarga takroran qo'yaverish, shuningdek, bir xil, shaklan o'xshash nomlarning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.
10. Berilgan nom shaklan qisqa, talaffuzi qulay, til, imloviy normalari talablariga mos bo'lmog'i lozim.
11. Joylarga nom berishda o'zibo'larchilik, suiste'molchilik, loqaydlik, tanish-bilishchilik va boshqa xil buzilishlarga yo'l qo'ymaslik kerak.

Ushbu tavsiyalar olim va tadqiqotchilarning bir necha yillik ilmiy kuzatishlar zaminida shakllangan hamda zamon talablariga mos kela olgani sababli ham hammaga ma'qul keladigan mazmunga ega. Albatta, yuqorida berilgan tavsiyalar asosida ba'zi bir nomlarni yangisi bilan o'zgartirish o'rinli va maqsadga muvofiq.

Mamlakatimiz ko'p asrlik boy tarixga ega va undagi joy nomlarida turli davrlardagi tabiat, xo'jalik, siyosiy va iqtisodiy mavqe, aholisi va uning turmush tarzi, ma'rifati, madaniyati xususida ham noyob ma'lumotlar aks etgan. Faqat ularni tushunib, sharhlash, ilmiy tahlil qilib, ommabop shakllarda talqin etish lozim bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida *"Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Tarixiy xotirasi bor inson-irodali nison"* deb qayd etgan edi. Tarix, tarixiy xotira, so'zsiz, toponimlarda ham o'chmas izini qoldirgan.

Toponimlarda so'zning ma'nosi emas, balki toponimik ma'no yashiringan bo'ladi. Shuning uchun ham ular o'zlari ifodalayotgan obyektlarning hajm ko'lami xususiyatlariga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) makrotoponimlar, ya'ni to'g'lar, tekisliklar, daryolar, shahar-qishloqlar kabi yirik geografik obyektlarning nomlari; 2) mikrotoponimlar, ya'ni jarlik, tepalik, ariq, mozor, ko'cha kabi kichik geografik obyektlarning nomlari. Toponimist olimlarning fikricha, yirik topoobyektlarning

nomlari, asosan, qadimiy bo'ladi; kichik topoobyektlarning nomlari esa o'zgarib turadi va ko'proq shu hududda yashayotgan xalqlar tilining va yana shu yerda yashovchi (ehtimol yashab ketgan boshqa xalqlar tiliga xos ba'zi bir leksik birliklaridan tarkib topadi. Aytilgan fikrning shartliligi yana shundaki, toponimlarning qaysi tilga mansubligi uch xil bo'ladi. Masalan, kelib chiqishiga ko'ra turkiy toponimlar va ishlatilishiga, qo'llanish ko'lamiga ko'ra turkiy toponimlar. Shuni maxsus ta'kidlash lozimki, o'zbek ismlari orasida arabcha, forsha so'zlardan shakllangan atoqli otlar, ya'ni so'zlar talaygina; o'zbek tilining lug'aviy tarkibida ruscha hamda rus tili orqali kirgan xalqaro so'zlar va boshqalar oz emas. Shu bilan bir qatorda forsha so'zlardan tarkib topgan toponimlar qo'llanishi, so'zsiz, turkiy, o'zbekcha toponimlar jumlasiga kiradi. Chunki bunday nomlar o'zbek tilining lug'aviy tarkibidan o'rin olgan so'zlardan o'zbeklar tomonidan qo'yilgan toponimlar hisoblanadi.

Har bir tarixiy davr toponimiyasi boshqa davrlarning toponimlaridan ma'no-mazmuni, grammatik tuzilishi, yozilishi va qo'llanish darajasiga ko'ra farq qiladi. Chunki har qanday hududda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar u yoki bu holatda geografik nomlar shaklida muhrlanib qoladi. O'zbekiston xaritasida qadimiy tarixiy davrlarning guvohlari bo'lgan ko'hna geografik nomlarni ko'plab uchratish mumkin. Antik dunyo mualliflarining asarlarida, xitoy xronikalarida, so'g'd hujjatlarida, arab va fors-tojik tarixchilarining qo'lyozmalarida ko'plab qadimiy geografik nomlar tilga olinadi.

Mamalakatimiz toponimlarini har tomonlama tadqiq etishga kirishgan olimlar fanning quyidagi sohalari bo'yicha o'rganishgan: A.Muhammadjonov ularni tarix fani nuqtayi nazaridan tahlil va tadqiq qilgan. T.Nafasov, Z.Do'simov, N.Oxunov, T.Ernazarov, N.Ulug'ov, Y.Xo'jamberdiyev, S.Nayimov, T.Rahmatov, L.Karimova, A.Otajonova, V.I.Bolotov, X.Xolmo'minov, Sh.Qodirova, Q.Abdumuratov toponimlarni o'zbek tilshinosligi nuqtayi nazaridan tahlilga kirishgan. H.Hasanov, S.Qorayev, P.G'ulomov, M.Mirakmalov kabi olimlar toponimlarni geografik jihatdan ilmiy tadqiq etishgan va bir qancha maqola, kitob, monografiyalarni e'lon qilishganligi ilm ahliga ma'lumdir.

Kelib chiqishi qaysi tilga mansubligi noma'lum bo'lgan geografik nomlar substrat toponimlar deyiladi. Ana shunday jumboq toponimlarni izohlab, sharhlab berish tilshunoslik fanining, shuningdek, uning alohida bo'limi bo'lgan nomshunoslikning hal qilinishi shart bo'lgan vazifalaridan biri. Etimologiya o'z ahamiyati va qiyinligi jihatidan tilshunoslikning boshqa sohalari orasida alohida o'rin tutadi. Ba'zan etimologiya semantika termini bilan bir ma'noda ishlatiladi, lekin tushuncha va ma'nosida farqli o'rinlar mavjud. Respublikamiz olimlarining etimologik izlanishlari to T.Enazarovning "O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'llari" nomli doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingungacha bo'lgan davrda asosan toponimlarning semantika (ma'no)sini aniqlab berishdan iborat bo'lgan. Aslida, toponimik etimologiya o'ziga xos bo'lgan individual xususiyatlari mavjudligini e'tiborga olgan holda ish olib borish lozim. Ma'lumki, atoqli otlarning eng mukammal turi bo'lgan toponimlar ba'zan bir komponentdan, ko'pincha birdan ortiq komponentlardan ham iborat bo'ladi. Ulardagi har bir qadimiy komponentning semantikasi (ma'no)ni ochib berishning o'zi oson ish emas.

O'zbekiston toponimlari alohida nomlanish va motivlash tizimining mavjudligi; ham tarixiy, ham bugungi davrga xos bo'lgan xususiyalarga egaligi, shuningdek, turli toponimik hududlarga bo'linganligi bilan boshqa davlat va xalqlarning toponimlaridan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlarning majmuyi toponimlarni etimologik tadqiq qilishning bugungach o'rganilmagan tamoyil va usullariga, bu tadqiqda yondashilgan masalalarda, shuningdek, ularning motivlanish jarayoniga bir butun holda qarash kerakligini ko'rsatib turibdi. Toponimlar va ular lug'aviy asoslari etimologik tadqiqining ishonchliligini ko'rsatuvchi ilmiy dalillar majmuining bo'lishi, fanning hozirgi kundagi talablariga javob beradi. Buning uchun toponimlar va ularga asos bo'lgan lug'aviy asoslarning etimologik tadqiqida yondashilgan masalalar, tadqiqotning tamoyili, usuli kabi masalalarni etimologik tahlil hamda shu taqiqning yo'llari, ya'ni nazariy asoslari sifatida o'rganish zarur. Toponimlar va ular lug'aviy asoslarining etimologik tadqiqi yo'llari sifatida taqdim etilayotgan tamoyil, usul, omil hamda motivlanish

masalalari boshqa fanlardagi nazariy asoslardan u yoki bu darajada farq qiladi. Har bir fan yoki sohaning o'rganish obyekti, predmeti, tushunchaviy bazasi bo'lgani kabi toponimikaning ham o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bor.

"O'zbekiston toponimikasi" bo'limlarining tasniflanishi va talqin etilishi quyidagicha ko'rinishga ega: 1) o'zbek oykonimikasi - aholi punktlari nomini o'rganuvchi bo'lim; 2) o'zbek oronimikasi - tog', tepa, pastliklarning nomlarini tadqiq etuvchi bo'lim; 3) o'zbek etnotoponimikasi - o'zbek, turkiy qabila, urug', elatlarning nomlari bilan nomlangan joylarni o'rganib, ilmiy asosda tahlil qiladigan bo'lim; 4) o'zbek gidrotoponimikasi - ariq, kanal, daryo, dengiz, ko'l nomlarining mazmunini tadqiq etadigan bo'lim; 5) o'zbek fitotoponimikasi-o'simliklar dunyosi nomi bilan atalgan topoobyektlarni tahlil hamda talqin qiluvchi bo'lim; 6) o'zbek zootoponimikasi - hayvon va qush nomlari bilan atalgan joylarning nomlarini tahlil hamda talqin etuvchi bo'lim. Bu yerda yana boshqa bo'limlarning nomlarini ham keltirish mumkin, ammo ularni tadqiqotlarning hajmi nuqtayi nazaridan hozircha keltirishni o'rinli topmadik. Bular ham boshqa bo'limlar kabi o'zbek toponimikasining alohidaligini ishonarli tarzda asoslay oladigan materiallar majmuyi hisoblanadi.

"O'zbekiston toponimikasining leksik qatlamlari. Bu masala hanuz bahsli holatda ekanligini e'tirof etish kerak. Chunki bu sohada juda kam ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo ular ham so'zlarimiz kabi eng avvalo to'rtta guruhga bo'linadi: 1) o'z qatlam so'zlarida tashkil topgan toponimlar; 2) o'zlashgan qatlam so'zlaridan tashkil topgan toponimlar; 3) o'z va o'zlashgan qatlam so'zlardan tashkil topgan topoimlar; 4) kelib chiqishi noma'lum bo'lgan lug'aviy birliklardan tashkil topgan toponimlar majmuyi. Bularning har biriga oid misollar bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida berilganligi uchun bu yerda ular berilmadi.

O'zbekiston kosmonimikasi. Kosmonimlar osmon jismlarining alohida tarzda atalgan nomi, ularga yulduz, sayyora va planetalar nomlari oiddir. Ularning majmui kosmonimiya deyiladi. Ular haqida ma'lumot beradigan "O'zbekiston nomshunosligi"ning maxsus bo'limi esa O'zbekiston kosmonimikasi deyiladi. Albatta kosmonimikaning ikkita maxsus turi bor: a) umumiy kosmonimika;

b)xususiy kosmonimika. Uni ikkinchi nomi bilan O‘zbekiston kosmonimikasi deyish mumkin. Umumiy kosmonimikada dunyodagi turli qabila va xalqlarning tillaridagi mavjud kosmonimlar tadqiq etiladi. Xususiy kosmonimikada esa alohida hududdagi, xususan, O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi xalqlar tilidagi kosmonimlar o‘rganiladi.

Osmon jismlari o‘rnining o‘zgarishi yerdagi vaziyatni o‘zgartirishini qadimdan ilm-fan ahllari yaxshi bilishgan. Kompas bo‘lmagan vaqtda yulduzlarni mo‘ljal qilib savdo karvonlari kecha-yu kunduz yo‘l yurishgan. Xalq ertaklarida qahramonlar o‘z yo‘llarini kechqurunlari yulduzlarga, ularning joylashish o‘rinlariga qarab topishi bayon etilgan.

Kosmonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari borligi ko‘p ijodkor va olimlarning e‘tiborida bo‘lganligi hammaga ma’lum. Masalan, XVIII asrning ikkinchi yarmida Xorazimda yashagan Abuja’far Muhammad ibn Muso-al Xorazmiy “Zij” nomli astronomiya jadvalini yozgan. IX asrning 70-yillarida Sirdaryo bo‘yidagi Farob qishlog‘ida tug‘ilgan, Sharq Arastusi (“Sharq Aristoteli”) va Aristoteldan keyingi ikkinchi ustoz - “Muallim – us soniy “ nomlari bilan shuhrat topgan Abu Nasr Farobiy astronomiyaga oid asarlar yozib, osmon jismlarining o‘ziga xosliklarini bayon etgan.

973 – yilning 4-sentabrida Xorazmning Fir (oldingi Kat) shahri yaqinida tug‘ilgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy astronom sifatida “Astronomiya kaliti”, “Mas’ud jadvali” asarlari bilan o‘z davrida O‘rta Osiyoda “Astronomiya” faniga katta hissa qo‘shib, yerning yumaloqligi, tortish quvvati, fasllarning o‘zgarishi, yer va boshqa sayyoralarning quyosh atrofida aylanishi to‘g‘risidagi ilmiy fikrga yaqinlashdi, astrologiyani fosh qildi. Bu olim tabiat hodisalarini o‘rganish va ularning sirlarini ochish mumkin, buning uchun fakt va predmetlarni chuqur, izchil o‘rganish, predmetning xususiyatlarini bilib olish, ma’lumdan noma’lumga, yaqindan uzoqqa qarab borish lozim, degan asosli ilmiy xulosalarga kelgan.

XI asrning donishmandi, davlat arbobi, atoqli shoir bo‘lgan Yusuf Xos Hojib o‘zining 1069- 1070 -yillarda yozib tugatgan “Qutadg‘u bilik” nomli 73 ta

bobdan iborat dostonning muqaddimasida yettita planeta to'g'risida maxsus to'xtalgan: 1.Oy. 2.Mirrix-Mars. 3.Zuhra-Venera . 4.Quyosh. 5.Atorud- Merkuriy 6. Mushtariy- Yupiter. 7. Kayvon- Saturn. Bularni Yusuf Xos Hojib o'n ikkita burj bilan qiyoslab, ma'lum bir ilmiy xulosaga keladi. Natijada qadimgi O'rta Osiyo va Gretsiyaning mashhur olimlari kabi to'rtta unsur (element)dan, ya'ni o't, suv, havo va tuproq yoxud issiq, sovuq, ho'l hamda quruqdan iborat degan falsafiy qarashni qo'llab quvvatlashgan.

O'zbekiston fitonimikasi. Fitonim- o'simliklar nomi. Fitonimiya – o'simlik nomlari majmui bo'lsa, fitonimika esa tilshunoslikning fitonimlarni o'rganuvchi bo'limi sanaladi. Fitonimikaning umumiy va xususiy ko'rinishlari bor. Umumiy fitonimika bugungi dunyo zaminidagi o'simliklar dunyosini ilmiy me'yorlarda tadqiq etish yo'lidan boradigan sohadir. Xususiy fitonimikaning alohida bir ko'rinishi sifatida O'zbekiston Respublikasi zaminidagi o'simliklar nomlari majmuini "O'zbek nomshunosligi" va "Nomshunoslik masalalari" fanlarining ilmiy-nazariy dalillari vositasida tadqiq qiladigan "O'zbekiston fitonimikasi"ni ko'rsatish mumkin. Mamlakatimizdagi o'simliklarning barcha xususiyatlarini biolog olimlar o'rganishgan. Fitonomlarning ko'pchiligi dorivorligi bilan ajralib turadi.

Abu Rayhon Beruniyning "Saydana" asarida yetti yuzga yaqin dorivor giyohlar nomlari tasniflangan. Shuning uchun ular fitonimlarning nomlarini ham ma'lum darajada e'tiborga olishsa-da, ularning nomlari yuzasidan tadqiqotlar olib borishmaydi, balki o'simliklar bilan ish olib borishadi. Shuning uchun fitonimlarning nomlarini o'rganishda ikkita obyektga murojaat qilish foydadan holi emas: 1)Bevosita o'simlik nomlarini o'rganish uchun ular o'sadigan joylarda yashayotganlardan so'rab surishtirish; 2) biologlar tomonidan o'simliklarga bag'ishlab tayyorlangan kitob – o'quv qo'llanmalari, darsliklar va lug'atlarni o'rganib chiqish, ularda qo'llanilgan o'simliklar nomlarini o'zgarishsiz yozib olish.

O'zbekistondagi fitonimlarning nomlanishini haligacha ilmiy va amaliy jihatlardan ham jiddiy tarzda o'rganilmagan. Masalan, mamlakatimizda

o‘sadigan o‘simliklar sho‘ro davrida ruscha aytilgan, hozir ham ularning ruscha nomlanishi qo‘llanadi-yu, o‘zbekcha nomlanishiga e‘tibor negadir jiddiy emas. Tol, Terak, Chinor, O‘rik kabi bir qancha fitonimlar ko‘proq uchraydi, shuning uchun ular toponimlashib, fitotoponimga ham aylangan. Bunga quyidagilar misol bo‘ladi: Qo‘shol, Qatortol, Qo‘shterak, Terakli, Chinor, Chinorli, O‘rikkapa, O‘rikzor, O‘rikli va boshqalar. Bu nomlarda tol, terak, chinor, o‘rik so‘zlari topoasos vazifasini bajargan.

“O‘zbek fitonimikasi” umumiy fitonimikaning ko‘rinishi sifatida quyidagi taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan: 1) ”O‘zbek fitonimikasi” tarixi; 2) ”O‘zbek fitonimikasi”ning bugungi holati. Hozirgi vaqtda o‘zbek fitonimlari lug‘ati shakllangan bo‘lib, uni mukammal shaklga keltirish zarur.

Fitonimlar ham so‘zlardan shakllanadi, ammo barcha so‘zlar fitonim bo‘lavermaydi. Ular qanday leksik birliklardan tashkil topganiga ko‘ra ikkita katta guruhga bo‘linadi: a) umumturkiy va o‘zbek tili so‘zlaridan tashkil topgan fitonimlar; b) o‘zlashgan so‘zlardan shakllangan fitonimlar. Shuning uchun ularni ilmiy asoslarda o‘rganish ularga xos nomlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

O‘zbekiston etnonimikasi. O‘zbek xalqi turkiy xalqlar ichida ko‘p urug‘, qabilaga bo‘lingani bilan ajralib turadi. Etnonim – qabila, urug‘, xalq nomi. Bu ta’rifni sal mukammallashtirish tarafdorimiz – etnonimlar bu qabila, urug‘, aymoq, el, elat va xalqlar nomi hisoblanadi desak, tadqiqotchilarning nazaridan qolib borayotgan el, elat, aymoq terminlarini ham e‘tiborga olgan bo‘lamiz. Bu terminlarning har biri o‘ziga xos ma’nolarga ega.

Aymoq so‘zi ilmiy ishlarda ma’nosi arxaiklashgan terminlardan biri sifatida negadir qo‘llanilmaydi. Mana endi qo‘llanmoqda: “Tilimizda “Urug‘ingdir – aymog‘ingdir yoki birorta maymog‘ingdir”, “Falonchi serurug‘, urug‘-aymog‘lari ko‘p” degan iboralar tez-tez uchrab turadi. Bunda bir hududda yashovchi qarindosh oilalar tushuniladi, urug‘ va aymoq so‘zlari bir xil ma’noda qo‘llaniladi. Aymoq atamasi qalmoq, barmoq, tarmoq, maymoq kabi qadim turkiy so‘zlardan bo‘lib, bugungi kunda Buriyatiya va Oltoy

o'lkalarida kichik ma'muriy hududlar –tuman ma'nosida ishlatiladi. Bu so'z mo'g'ul tilida ham bo'lib, nisbatan kattaroq, ma'muriy – hududiy birlikni bildiradi. Aymoq atamasi turkiy qabilalardan birini bildirishdan tashqari bir qancha qabila va urug'lar ittifoqi ma'nosiga ham ega (bu yerda maxsus aymoq urug' haqida gap bormoqda). 1924 – yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida 4 mingga yaqin kishi o'zini aymoq deb ko'rsatgan.

Har bir so'zning bir necha ma'nosi bo'lgani kabi el so'zining ham bir necha ma'no noziklilari mavjud: “El eng qadimgi turkiy so'zlardandir. Avvalo bir joyning odamlari ma'nosini bildiradi: Xorazm eli, Qoshg'ar eli. Bir qabilaga mansub kishilarga qo'llaniladigan: qipchoq eli, mang'it eli. El so'zi millat, xalq ma'nolarini ham ifodalaydi. Ilgari “El bayrog'i” gazetasi ham chiqqan. Yurt, mamlakat ma'nolarida ham qo'llanadi. Masalan, qozoq eli deganda qozoq xalqini ham, Qozog'istonni ham tushunish mumkin. Yoki bo'lmasa, chet ellar deganda xorijiy xalqlarni ham, xorijiy mamlakatlarni ham anglash va anglatish mumkin.

El iborasida, shuningdek, ittifoq, totuvlik, ahllik ma'nolari ham bor. El yovning zididir. “El bo'ldi” deganda do'stlashdi, birlashdi ma'nosi anglashiladi. Elning ana shu mazmunidan elat atamasi kelib chiqqan.

Albatta, el bor joyda uning jamini bildiruvchi elat bo'lishi shart. Shuning uchun ham “Elat atamasi, eng avvalo, qabilalar ittifoqini kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligini bildiradi. Uni xalqning millat bo'lib shakllanishidan oldingi bosqichi deb ham ataydilar. Elatning kelib chiqishiga bir-biriga ko'p jihatdan yaqin bir necha qabilalarning uyushuvi asos bo'lgan. Kishilarning elat-elat bo'lib, bir hududda yashashlari ular orasidagi qon-qarindoshlik, umumiy manfaatdorlik his-tuyg'larini kuchaytirgan.

Etnonimlashuv - so'zning etnonimga aylanishi. Etnonimika tilshunoslikning urug', qabila, xalqlarning nomlarini o'rganuvchi bo'limi. Bu bo'lim o'z ichida ikkiga bo'linadi: umumiy etnonimika va xususiy

etnonimika. Umumiy etnonimika fanning dunyoda mavjud va yo‘qolib ketgan xalq, qabila, urug‘, elatlarning nomlarini ilmiy - nazariy asoslarda tadqiq etish yo‘lidan boradigan bir sohasi. Etnonimlar, ularning kelib chiqishi va taraqqiyoti masalalari tilshunoslarninggina qiziqish doirasida qolib ketmagan, balki tarixchi va etnograflarning ham qiziqish sohalarining markaziy o‘rnida turgan. Bu soha bo‘yicha N.N. Mikluxo – Maklaya nomli etnografiya instituti xodimlari maxsus tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, V.A.Nikonov mas’ul muharrirligida 1970 – yilda nashr etilgan “Этнонимы” nomli maqolalar to‘plamini misol keltirish mumkin. Unda yigirma yettita olimning etnonimika doirasida tayyorlangan maqolalari mavjud. Unda E.V. Uxmilining maqolasida makro va mikroetnonimlar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Bu sohada professor X.Doniyorov tadqiqot olib borib, 99 urug‘-qabila birlashmasidan shakllanganini korsatib, o‘zbek urug‘larining tarqalishi va sonini tarixiy manbalar bilan talqin qilgan. Ular etnotoponimlar uchun asos vazifasini o‘taydi. A.Otajonova mamlakatimizdagi etnotoponimlarni o‘rgangan. N.Oxunov esa Fargona etnooykonimlariga to‘xtalgan. A.Turobov esa Samarqand viloyatidagi etnooykonim, toponimik aniqlagichli etnooykonimlarga e’tibor qaratgan. Xususi etnonimika sifatida „O‘zbek etnonimikasi”ni e’tiborga olish mumkin. O‘zbek etnonimi xususi etnonimning bir shakli sifatida quyidagi taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan:

- 1) o‘zbek etnonimi tarixi;
- 2) o‘zbek etnonimining bugungi holati.

Mamlakatimizdagi etnonimlarni ikkita katta guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) Umumturkiy va o‘zbek xalqiga tegishli etnonimlar
- 2) Umumturkiy bo‘lmagan etnonimlar

Umuman, etnonimlarning, shu jumladan, turkiy etnonimlarning yozilishi masalasi ham bahsli. Etnonimlar atoqli otlar tarkibiga kirar ekan, demakki, ularni bosh harf bilan yozish shart. Ammo bugungi kungacha gap boshida kelgan etnonimning nomigagina bosh harf bilan yoziladi. Qolgan hollarda esa har qanday etnonim nomi negadir kichik harf bilan yozilishi ommalashgan.

Ularning nomlaridan joylarning maxsus nomi bo'lishi uchun va etnotoponimlar shakllanishi uchun manba sifatida foydalanish ham mumkin. Mamlakatimizdagi ko'p toponimlar etnotoponimlar sanaladi. Masalan, Qoraqalpoq (q), Qipchoq (shahar nomi) , Nayman (q) , Chiroqchi(q) , Ayoqchi(q), Boyqozoq (q), Avoqli (q), Qoraxitoy (q) va boshqalar .

“Turk so'zi tarixiy va zamonaviy ma'nolarga ega. Turk degan so'z, eng avvali olis o'tmishda Turon mamlakatida tavallud topgan va yashagan xalqning nomini bildiradi. Turk eli deyilganda Turon mamlakati tushunilgan – bu birinchidan. Ikkinchidan, turk degan so'z sifatni ham anglatgan. Turk eli deyilganda esa mard, yovqur, qo'rqmas, bahodir, mustaqil xalq ma'nosi anglashilgan. Majoziy ma'noda sifat vazifasini o'tab, ko'rkam, qomati kelishgan, sog'lom, jismonan baquvvat, chidamli, chiniqqan, sabrli, boshga tushganni Tangrining buyrug'i deb bilib, shukur qiladigan odam tushunilgan. Turk o'g'lon degani shunday ma'naviy va jismoniy fazilatlarga ega yigitdir. Shuningdek, go'zal ma'nosini ham bildirgan. Ma'lumki, qadimda tilimizda „o“ tovushi bo'lmagan, „k“ o'rnida „g“ ham ishlatilgan. Shundan kelib chiqsak, „ko'zal“, keyinchalik hozirgi shaklini kasb etgan.

Turk so'zi “go'zal” so'zi o'rnida ham ishlatilib, ko'rganning suqi, his etganning iqi tushadigan darajada go'zallikka nisbatan ishlatilgan va shunday fazilatlar sohibasi bo'lmish maftun etuvchi suluvni bildirgan. Shoir Hofiz Sheroziy turk iborasini ikki ma'noda – ham turkiy millatga mansublik, ham maftunkorlik ma'nolarida qo'llagan, buni badiiy adabiyotda so'z o'yini – so'z san'atining bir ko'rinishi deyiladi. Mushohada qilib ko'ring:

„Agar ko'nglimni olsa o'shal turki jonon,
Qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni”

Yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, etnonimlar ham so'zlardan, aniqrog'i, tanlangan so'zlar sanaladi. “Etnonim- boshqa so'zlar kabi til qonunlariga bo'ysunuvchi so'zdir”. Xullas, etnonimlar orfografiyasi masalasini jiddiy o'ylab ko'rish vaqti keldi: uyg'ur, o'zbek, qozoq, tatar shaklida emas, balki Uyg'ur, O'zbek, Qozoq, Tatar shaklida yozish ularning onomastik tizimdagi mavqeini

ko‘rsatib ham turadi. O‘zbek etnonimlari lug‘atining imlo va izohli shakllaridagi mukammal ko‘rinishlarini tayyorlash zaruriyati sezilib turibdi.

Etnonimlar ularning tarixi va taraqqiyoti masalalariga tarixchi olimlar ham e‘tibor berib kelishmoqda. Masalan, Ahmadali Asqarov o‘zining “O‘zbek xalqining etnogenizi va etnik tarixi” nomli kitobida xalqimizning kelib chiqish tarixi, ularning o‘z davridagi ahamiyati, bugungi kundagi holatiga e‘tibor qaratgan. Tarixchi olimlardan yana biri Iso Jabborovning “O‘zbeklar” nomli monografiyasida o‘zbeklarning turli urug‘, qabilalardan kelib chiqqanligi, an‘anaviy xo‘jaligi, turmush tarsi va etnomadaniyatiga jiddiy to‘xtalangan. Unda mamlakatimizdagi urug‘- qabilalarning o‘tmishi, ayni vaqtdagi holati masalasiga e‘tibor berilganligi diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston zoonimikasi. Mamlakatimiz aholisi o‘zini qurshab turgan hayvonlar hamda qushlar olami bilan faxrlanishadi. Chunki ular ham boylik, ham hayot, ham go‘zallik ramzi sanaladi. Zoonimlar- hayvon va qush nomlari. Zoonimiya- hayvon va qush nomlarining yig‘indisi. Zoonimika- nomshunoslikning hayvon va qush nomlarini o‘rganuvchi bo‘lim. O‘zbekistondagi zoonimlar majmuini o‘rganadigan “O‘zbek nomshunosligi”ning bir bo‘limi O‘zbekiston zoonimikasi hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida uchraydigan (sudraladigan, yuradigan, uchadigan) hayvon nomlari amalda bir necha nom bilan ataladi. Zoonimlar asosida xalqimiz qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelishmoqda. Xalq dostonlarida zoonimlar lishilarning hamrohi, do‘sti sifatida ko‘p marta ishlatilgan va ularga baxshilar tomonidan e‘tiborli va e‘tirofli nomlar qo‘yilgan. Masalan, G‘irot Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarida juda faol qo‘llaniluvchi zoonim sanaladi. Sher ham hayvonlarning bir turi. U o‘zbek tilida sher, hayvonlar podshohi kabi bir qancha nom bilan ataladi. Arab tilida esa sherning yetti yuzga yaqin nomi bo‘lib, shundan biri “Zirg‘omdir”.

Hayvon nomlaridan biri bo‘lgan tulki zoonimi maxsus o‘rganilib, etimologik tahlil ham qilingan. Xalqimizda ishlatiladigan zoonimlar olimlar tomonidan qisman bo‘lsa ham yig‘ib olingan. Shuning uchun ham suvsizlikka chidamli hayvonlardan biri bo‘lgan tuyaning quyidagicha nomlari bor:1)tuya-1,2 o‘rkachli,

yirik sut emizuvchi hayvon; 2)bug‘ro- erkak tuya; 3)nor- bir o‘rkachli erkak tuya; 4)moya- urg‘ochi tuya; 5)lo‘k- boshi kichi, bo‘yni uzun, bir o‘rkachli, yetakchi tuya; 6) xarvona- lo‘k tuyaning urg‘ochisi; 7)bo‘ta (bo‘taloq)- tuyaning bolasi; 8) norcha- tuyaning bolasi.

Asosiy transport vositalaridan biri, ko‘pkari, poyga kabi sport turlarining asosiy vositasi bo‘lgan otlar amalda quyidagi nomlar bilan ataladi: 1) ayg‘ir- 3,4 yoshli erkak ot; 2) biya- urg‘ochi ot; 3) g‘o‘non- 2 yoshli ayg‘ir; 4) do‘non- 3 yoshga to‘lib, 4 yoshga o‘tgan ot; 5) talon- 12 yoshli ot; 6)tarlon- ola targ‘il chavgil ot; 7)qulun- otning yangi tug‘ilgan bolasi; 8)toy- otning 2 yashardan kichik bolasi; 9)toyloq- kichik toy, toycha; 10) yobi- nasli past ot; 11)qirchang‘i- ko‘rimsiz ot; 12)chubur- hashaki ot; 13)bayir- jaydari ot; 14)qorabayir- beli tekis, keng saman ot; 15)qora-qizil to‘q tusli jiyron ot; 16)jiyron- qizg‘ish malla ot; 17) saman- och malla, saman rang ot; 18)bedov- uchqur, o‘ynoqi ot; 19)tulpor- chopqir, uchqur ot, arg‘umoq; 20) samanto‘riq- samancha, mallaga moyil rangli ot; 21)xosa tulpor- boqilgan, poygada pishgan zotdor ot; 22)burul- xoldor, ko‘kish ot; 23) chavkar- ola-bula qora xolli, xol-xol ot.

Yerda sudralib yuruvchilar ham, xususan, ilonlar zoonimlarning bir turi hisoblanadi. Shuning uchun ham ilon zoonim, Ilonli etnotoponimdeyilsa, yanglishilmagan bo‘linadi. Tildagi qush nomlari ham maxsus ravishda ilmiy-tarixiy asoslarda o‘rganilmoqda. Kaptar zoonim bo‘lgani kabi. Kaptarxona zoonimi ham mavjuddir.

Zoonimlardan antroponim va toponimlar yasalishi mumkin. Qo‘ziboy, Qo‘zivoy, Toyloq, Bo‘rijar, Kaotarxona, Tulkixona kabi nomlar zootoponimlar sanaladi. Zoonimlar gap boshida bosh harf bilan, gap o‘rtasida kichik harf bilan yoziladi, ammo zootoponimlar gap boshida ham, gap o‘rtasida ham, gap oxirida ham bosh harf bilan yoziladi. Misol: Bo‘rijar, Kaptarxona.

Mana shularning o‘zi ham o‘zbek zoonimikasining bahsli va hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolari ko‘pligini ko‘rsatib turibdi.

III BOB. ATOQLI OTLARNING TARKIBIY TAHLILI

III.1. Atoqli otlarning yasalishi va tuzilishi

Har bir tilning soʻz yasash qonuniyatlari, shubhasiz, atoqli otlar yasash tizimida ham oʻz ifodasini topadi. Ammo atoqli otlar soʻz yasashning har bir tilda oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Shuning uchun ham masalaning bu jihatini oʻrgangan S.Qorayev “slavyan toponimik tipida affikslar (affikatsiya) asosiy oʻrin tutadi desak, turkiy toponomik tipda soʻzlar qoʻshilmasi (словоложение) birinchi oʻrinda turadi”, deb taʼkidlagan edi.

Bu oʻziga xosliklarni tahlil etishdan avval atoqli otlar, xususan, soʻz yasashning anʼanaviy usullari haqida mulohaza yuritish maqsadga muvofiq boʻladi.

Toponomlar strukturasi toponegiz, topoformant, toponimik aniqlagichlar, mavjud. “Toponegiz- topoformatlarni qoʻshish vositasida negizida toponimlar shakllanadigan har qanday leksik morfemadir”. Toponegizlar, odatda, tub soʻzdan va juda koʻp hollarda bir yoki ikki boʻgʻinli qurilmalardan iborat boʻladi: Adas, Andoq, Baland, Saroy kabi. Shu bilan birga, u yasama soʻzdan tashkil topgan boʻlishi mumkin: vatak, vatkan, Javtut, Jozmon singari.

Bu strukturadagi ikkinchi shakl topoformantlardir. “Topoformantlar apellyativ leksikadan onomastik leksika uchun topoleksema yasaydigan qoʻshimchalar hisoblanadi”, deydi N.V.Podolskaya¹. “Topoformantlar - toponomik soʻz yasash vositasi sifatida qollaniladigan qoʻshimchalar yoki ularga teng boʻlgan yordamchi morfemalardir”². Demak, topoformantlar ham yasovchi qoʻshimchalardir. Ammo ularning tildagi boshqa qoʻshimchalardan farqi shundaki, u toponimika sohasiga xoslangan. Ular, asosan, quyidagilardir: -ay, -ak, -al, -ar, -vul, -gan, -gun, -il, -i, -kan, -lash, -li, -lik, -loq, -ma, -ni, -oq, -t, -ul, -cha, -chi kabi. Ularga nisbatan tilshunosligimizda affiks/qoʻshimcha, formant/topoformant atamaları qoʻllanilmoqda.

¹ Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. –Душанбе: Ирфон, 1975. –С. 9.

² Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. –Душанбе: Ирфон, 1975. –С. 3-4.

Topoformantlar tarkibida shunday affikslar mavjudki, ularning etimologiyasini aniqlash (oradan uzoq davrning o'tganligi ham bunga sabab bo'lishi mumkin) nihoyatda qiyin. Shuning uchun ularni L.Karimova "Toponimlarning morfologik tuzilishi" nomli maqolasida "qotgan affikslar" deb ko'rsatgan. Masalan, Cho'r+noq, Qar+noq, Sig'+noq, O't+ror, Ar+quq kabi. Bu holatni N.V. Podolskaya va A.V. Superanskayalar nol toponimik affikslar deb atashgan¹.

Taniqli toponimist olim E.M. Murzayevning mahalliy geografik turdosh atamalarining hech qanday o'zgarishsiz atoqli otga aylanish qonuniyati haqidagi fikri mavjud. Ana shu qonuniyatga asoslanadigan bo'lsa, ular bu jarayonda toponegizga aylanadi va o'ziga yangi mazmun kashf etgan holda toponimik tizimdan mustahkam o'rin egallaydi. Toponimik elementlar o'rtasidagi o'zaro semantika yaqinlik topoformantning toponegizga aylanishiga sabab bo'ladi. (Murzaev Э.М. Местные географические термины, в кн.: "Транскрипция географических названий". М., 1960, стр. 71). Masalan: Nurak, Nurakli, Nog'orachi, Nurdum, Sovg'on, Sazag'on kabi.

Demak toponimlarning vujudga kelishida tildagi o'zak+qo'shimcha=morfemaga teng keladigan toponegiz+topoformant =toponegiz jarayoni uzluksiz davom etib turadi. Topoformantlar "qotgan bo'lishi" yoki so'z tarkibida nol holatiga kelganligidan qat'iy nazar toponimlar etimologiyazatsiyasi davomida ularni ajratib tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi. Zero, toponimik birlikni grammatik jihatdan o'rganishning ahamiyati ham ana shunda.

Toponimik ma'no anglatuvchi uchinchi shakl toponimik aniqlagichli birikmalardir, Ular toponegiz va topoformantlardan struktural farqli ravishda toponimik birikma tarkibida bo'ladi. Manbalarda ushbu aniqlagichlar sifatida *ariq, adir, buloq, dala, jilg'a, yo'l, ko'l, ko'priq, ovul, suv, soy, tosh, to'qay, tepa, tog', cho'l, cho'qqi, quduq, qoya* singari leksik birliklar e'tirof etiladi.

"Aniqlagich" atamasi haqida turli xil qarashlar mavjudligi tufayli ularga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Ilmiy adabiyotlarda bu birliklarga nisbatan

¹ Подольская Н.В., Суперанская А.В. Терминология ономастики // Вопросы языкознания, 1969, 4. –С.144.

geografik terminlar, toponimik nomenklaturalar, toponimik indikatorlar kabi atamalar qo'llaniladi. Ularga nisbatan aniqlagich atamasining ishlatilishini o'zbek tilshunoslari ishlarida uchratamiz. S.Naimov ularni maxsus tadqiq etishga bag'ishlangan "Toponimik aniqlagichlar haqida" nomli maqola ham yozgan¹. Olim ushbu maqolasida o'zbek tilidagi qo'shma yoki birikmali toponimlar tarkibidagi bunday so'zlar ko'p hollarda qo'shma toponim tarkibiga singib ketishini ta'kidlab, *toponimik indikatorlar* atamasini B.A.Serebrennikov qo'llaganligini, Z. Do'simov esa bu atamani o'zbek tilshunosligiga olib kirganligi haqida ma'lumot beradi.

Darhaqiqat, Z. Do'simov 1972- yilda "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida "Toponimik indikatorlar" nomli maqola e'lon qilgan edi. Bu maqola ham uning toponimlarning yasalishi va tasniflariga oid ishlari kabi diqqatga sazovordir. Maqola muallifi bu so'zlarga nisbatan geografik terminlar, geografik nomenklaturalar atamalarini E.M.Murzayev, G.K.Konkashbayev, N.A. Baskakov kabi olimlar qo'llaganligi, G. N.Donidze, V.N. Popova kabi toponimistlar ularni toponimik yoki gidronimik terminlar deb atashni ma'qul ko'rganligi haqida yozadi.

Z.Do'simov maqolada bu birliklarni mazmun va xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratgan edi:

I.1.Obyekt bildiruvchi indikatorlar: qal'a, ovul, tog' tepa, atiz, bozor, to'qay, bog'.

2.Belgi-xususiyat bildiruvchi indikatorlar: bo'z, obod.

3. Tomon bildiruvchi indikatorlar: orqa.

4. O'rin bildiruvchi indikatorlar: baland, past, yuqori, tuban.

5. Rang-sifat bildiruvchi indikatorlar: ko'k.

6. Son bildiruvchi indikatorlar: uch, besh, qirq, to'qson, ming.

7. Jamlik bildiruvchi indikatorlar: jam.

II. Gidronimik indikatorlar: daryo, arna, irmoq, yop, salma, salba, ko'l, aydin, chungul, quyi, hovuz kabi.

N.V. Podolskaya va A.V. Superanskayalar ularni ba'zan termin indikatorlar, determinativlar va tasniflovchi so'zlar tarzida nomlashlari haqida ham ma'lumot beradi.

¹ Наймов С. Топонимик аниқлагичлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983,4.-Б. 62-63.

T.Enazarov indikator yoxud geografik termin deyishdan ko‘ra toponimik aniqlagich deyish to‘g‘ri ekanligini qayd etib, “Toponimik aniqlagich –TA atamasini birinchi bo‘lib biz qo‘llaganmiz”, deydi. S.Naimovning yuqorida tilga olingan va 1983- yilda yozilgan maqolasida toponimik aniqlagichlar terminini ishlatish tarafdori ekanligini aytganligini inobatga oladigan bo‘lsak, T.Enazarovning bu atamani qachon birinchi bo‘lib qo‘llagani no‘malum bo‘lib qolmoqda. Chunki bu fikrni uning 2002-yilda nashr etilgan asaridan o‘qiymiz¹.

Ammo kim va qachon o‘zbek tilshunosligida ushbu atamani qo‘llaganligidan qat’iy nazar, *toponimik aniqlagich* atamasi talabga javob beradi va uni bemalol iste’molda qo‘llash mumkin.

T.Enazarov “Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi” asarida ularning o‘zbek tiliga oid bo‘lgan so‘zlardan tashkil topgan bir, ikki, ba’zan uch bo‘ginli ko‘rinishlari mavjudligini aytib, ularning butun bir arsenalini keltiradi. Ham toponimik asos, ham toponimik aniqlagich vazifalarini o‘tay oluvchi bu sodda so‘zlar quyidagilardir: avloq, arpa, ariq, adir, yo‘l, bel, besh, boy, bola, bosh, bolta, baliq, barlos, buloq, bo‘z, bobo, ber, balchiq, botqoq, bo‘y, bor, boldir, do‘rmon, dara, do‘ng, dala, durkun, yetim, yetti, yosh, jilg‘a, jar, jiyda, irmoq, issiq, kal, ko‘ylak, ko‘ch, kel, kamar, katta, ko‘k, ko‘prik, kepeng, ming, moy, mo‘g‘ul, nayman, oq, ot oyoq, olma, omon, ota, oyna, orol, sanchiq, sut, so‘l, soy, suv, tepa, tol, tesha, tasma, tosh, turk, tut, to‘da, tog‘, tikan, tik, tamg‘a, toy, to‘qay, tevarak, tuz, terak, to‘sh, to‘g‘ri, tup, ters, egar, umoch, uzum, uch uya, uzun, chakalak, chosh, cho‘ltoq, cho‘l, ega, yuz, yangi, yantoq, o‘rta, o‘q, o‘ngir, o‘rmon, yallachi, chang, chaqa, miqti, qosh, qish, qayna, qiyot, qaychi, quduq, qo‘l, qirq, qora, qo‘chqor, qutil, quyi, qum, qayir, qov, qir, qiyalik, qipchoq, qangli, qatag‘on, qizil, quruq va boshqalar.

T.Enazarovning yuqorida nomi tilga olingan asarida bu so‘zlarning toponimik atamashunoslikda, odatda, apellyativ so‘zlar deb atalishi, toponimlashuv jarayoni amalda birdagina ro‘y bermasdan, balki ikkinchi, ba’zilarida uchinchi darajali jarayon sifatida amalga oshishi mumkinligi haqidagi fikri

¹ Энazarов Т. Туркий sodda toпонимларнинг этимологик tadқиқи. –Т.: Университет, 2002. –Б.12.

toponimlashuvning tarixiy-lingvistik jarayon ekanligidan dalolat beradi: "...toponimlar tarkibidagi topoformantlarning o'zgarmagan holda hamda fonetik jihatdan o'zgarishlarga uchragan holda qo'llanishi, ularning toponimik derivatsiyada ishlatilishi onomastik leksika sathiga xos odatiy hollardan biridir", -deydi T.Enazarov.

Z.Do'simovning "Toponimlarning yasalishi masalasiga doir" maqolasini o'zbek tilshunosligida nafaqat toponimlarning yasalishi balki, toponimika nazariyasiga oid yaratilgan yaxshi ishlardan biri deyish mumkin. Shuning uchun bu o'rinda maqoladagi muhim fikrlarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Olimning fikricha, toponimlarning yasalish prinsipi jihatdan so'z yasalishidan farq qilmaydi. So'z yasalishi usul va vositalari toponim yasashda ham ishtirok etadi. Ammo ... atoqli otlarning o'ziga xos bir qator semantik va grammatik xususiyatlarini e'tiborga olmoq lozim bo'ladi.

Toponimlarning yasalish xususiyatlariga to'xtalar ekan, maqola muallifi o'ta nozik bir jihatni payqaganligi ma'lum bo'ladi. Bu lingvistik birliklar o'rtasidagi assotsiativ aloqa masalasidir. Muallif bir qator yasalmalar va yasovchi qo'shimchalarni tahlil etar ekan, ular orasida –lik elementiga diqqatni qaratadi: "So'z yasalish strukturasi hamma vaqt yasovchi va yasalmaning semantik-morfologik munosabati bilan belgilanar, qismlar orasidagi assotsiativ aloqa sezilib turishi lozim deb qaralar ekan, keltirilgan bu toponimlarning birortasi ham –lik affiksi orqali yasalgan deb bo'lmaydi. Masalan, bazzozlik va hurlik so'zlarning bu holati ularning toponimgacha bo'lgan ko'rinishidir"¹. Z.Do'simov so'z qachon toponimga aylanganligi haqidagi masalani qo'yadi: u muayyan qo'shimchani olgunga qadar toponimlashganmi yoki uni olgandan keyinmi? Aslida undan oldin ham emas, keyin ham emas. So'z ushbu holatda -lik qo'shimchasini olgandan keyin ham toponimiya bilan aloqasi bo'lmagan. U bir necha muddat apellyativ holatda bo'lgan. Keyinchalik esa "bu leksemalar ma'lum obyekt bilan bog'lanadi va ushbu obyektни ifodalash uchun maxsuslanadi. Leksemalarning toponimga aylangunga qadar bo'lgan ma'nosi ikkinchi planga tushadi. Leksema toponimga

¹ Дўсимов З. Топонимларнинг ясашиш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 2. –Б. 45.

aylangach, uning asosiy funksiyasi ma'lum obyektни xuddi shunday boshqa obyektдан farqlashdan iborat bo'ladi. Shunday ekan, bu holatlar bilan bog'liq holda uning formal-morfologik xususiyati o'zgaradi¹.

Z.Do'simovning bu fikri nazariy ahamiyatga ega bo'lgan qarashdir. Bu masalaga ko'pincha yuzaki qarab, masalaning mohiyatini chuqur anglab yetmasdan, toponimni -lik, -li, -lar, -kor, -kash yoki boshqa qo'shimchalar vositasida yasalgan, deb xulosa chiqarib qo'ya qolamiz. Aslida esa bunday emas, Bazzozlik, Hurlik, Ilonli, Bolg'ali tipidagi toponimlarning yasaliш структурасida muallif ularning nolga tengligini qayd etadi. Leksemalar toponimga aylangach, ularda qator o'zgarishlar yuz beradi, -deydi maqola muallifi, - jumladan, ular kategoriya jihatdan o'zgaradi (boshqa leksik- grammatik guruhga o'tadi), sintaktik holatida o'zgarish sodir bo'ladi, semantik jihatdan ham o'zgarishga (ma'no maxsuslanishiga) uchraydi. Shuningdek, ularning formal-morfologik xususiyatlari ham o'zgaradi². Mana shular toponimlar yasaliшidagi o'ziga xos alomatlaridir.

Olim bu yerda ko'chim sodir bo'lganligini qayd etadi. Uning "Toponim yasaliшining leksik – grammatik xarakterdagi bu usulini apellyativning toponimizatsiyalashuvi yoki onomastik konversiya deb yuritish mumkin" degan fikri g'oyat qimmatlidir³. Shuning uchun ham u so'zlarning toponimga aylangunga qadar bo'lgan ma'nosi bilan toponimik ma'nolarini farqlash kerakligini uqtiradi va "onomastik konversiya orqali toponimlar yasalganda, leksema o'z funksiyasi, sintaktik qurshovini o'zgartirish bilan birga o'z paradigmasini ham o'zgartiradi", deb ta'kidlaydi⁴.

Muallif fikricha, toponimlar tarkibidagi barcha qo'shimchalar to'g'risida ham bir xil fikrni aytib bo'lmaydi. "... o'zbek tilida -iston, -obod, -kent (kat) tipidagi qo'shimchalar borki, ular doimo joy nomlari yasaydi. Shuning uchun bunday qo'shimchalarni toponim yasovchi affikslar (topoaffikslar) deyish o'rinlidir". Yana :-chi, -lar, -li, -zor, -loq, ...o'zlarining ayrim ma'nolariga ko'ra

¹ Дўсимов З. Топонимларнинг ясалиш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 2. –Б. 45.

² Ko'rsatilgan asar. –Б. 44.

³ Ko'rsatilgan asar .–Б. 45.

⁴ Ko'rsatilgan asar . –Б. 46.

toponimlarga yaqin soʻzlar yasaydi. Shuning uchun ham ular, koʻpincha, toponim yasash strukturasi obyektini koʻrsatuvchi formal elementga oʻxshab qoladi. ...Ular toponimik modellarga mos keladi. (Koʻsalar, Olmali). Shuning uchun ham bu tipdagi qoʻshimchalarni toponimik formant (topoformant) deb atash toʻgʻriroqdir.

Aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, hamma soʻz yasovchilar ham, hatto joy nomlari yasovchi qoʻshimchalar ham topoformantlar tarkibida ishtirok etsa-da, toponimlar yasovchi sifatida eʼtirof etilmaydi. Ammo oʻzbek tilida umuman boshqa vazifani ado etuvchi –lar singari qoʻshimchalar toponimik derivat sifatida soʻz tarkibida ishtirok etishi mumkin. –lar adabiy tilda koʻplikni bildiruvchi qoʻshimcha ekanligi maʼlum. Lekin quyidagi toponimlar tarkibida esa koʻplik maʼnosini yoʻqotib, joy nomini atashga xoslangan: Beklar, Boylar, Mavrlar, Minglar, Xoʻjalar kabi. Bu holat toponimik elementlarning oʻzbek tili umumiy leksik fondida oʻziga xos leksik-grammatik jihatlari bilan ajralib turishi haqidagi fikrni yana bir bor isbotlaydi.

S.Qorayev –lar yordamida toponimlarning yuzga kelishini keyingi 200-300 yil –koʻchmanchi xalqlarning oʻtroqlashishi bilan bogʻliq, deb hisoblaydi va buni ularning koʻpchiligi etnonim ekanligi bilan asoslaydi.

Koʻplikni ifoda etuvchi –on qoʻshimchasi ham toponimlar tarkibida ishtirok etadi. S.Qorayevning koʻrsatishicha, ular maʼlum millatga mansublikni (Arabon, Qirgʻizon), etnik guruhga tegishlilikni (Qalmoqon, Mangʻiton), maʼlum bir mansabga dahldorlikni (Mirzayon, Tarxonon), u yoki bu kasbga aloqadorlikni (Kosagaron, Soʻzangaron), dinga oidlikni (Mugʻon, Xudoyon) bildiradi¹.

–lar dagi bu xususiyat umurturkiy xarakterga egadir. Masalan, T.I.Teplyashina „Из патронимии каринских татар“ nomli maqolasida uning oilaviy –nasliy ismlarga qoʻshilib kelishi toʻgʻrisida ham fikr yuritgan va quyidagilarni misol keltirgan: Arslonpilar-oʻgʻillar, Arslonning avlodlari; Ataspilar-oʻgʻillar, Xoʻrozning avlodlari va boshqalar.²

¹ Караев С.О. О показателях множественности в топонимах Узбекистана // Советская тюркология, 1979,5. – С.27.

² Т.И.Тепляшина. Из патронимии каринских татар// Советская тюркология, 1972,5. –С.54.

Z.Do'simov „Xorazm toponimlarining yasalishi“ nomli maqolasida, qisman bo'lsa-da, ushbu masalga yana to'xtalgan. Maqolada Shimoliy Xorazmda sifat+ot maketida tuzilgan toponimlarda ko'p uchrovchi –li/ лы qo'shimchasining qozoq, qoraqalpoq, tatar turkman tillaridagi qurilmalarga o'xshashligi shuningdek, -lik/лык, -chi/чы, -qan/-ken/-g'an/-gen shakllarining toponimlar yasashidagi ishtiroki xususida so'z yuritilgan.

Maqoladagi Aliketgan, Qumbosgan, Qo'yqirilgan tipidagi atoqli nomlar tuzilishiga va mazmuniga ko'ra gapga tenglashtirib, gap-toponimlar deb atash mumkinligi haqidagi fikr ham diqqatga sazovordir. Darhaqiqat, tarixan bu nomlar Ali ketgan ko'l, Qum bosgan qal'a, Qo'y qirilgan qal'a tarzida bo'lgan.

Tilshunoslar toponimik so'z yasalishini tildagi so'z yasalishdan umuman ajralib turishini istaydilar. Shuning uchun bo'lsa kerak, N.V.Podolskaya nomshunoslikdagi so'z yasalishi toponamastik grammatika deb aytilayotganligini ta'kidlab, “Onomastik so'z yasalish muammolari”¹ nomli maqolasida mavzuga doir muhim fikrlarni o'rta tashlagan edi.

Toponimika onomastikaning tarkibiy qismi sanalar ekan, toponimik so'z yasalish ham onomastik so'z yasalish doirasida qaralishi, binobarin, onomastik so'z yasalish qoidalarini o'zida mujassam etishi qonuniy bir hol sanaladi. Demak, toponimistik grammatika onomastik grammatikaning ichida qaralishi, onomastik grammatika esa bu yo'nalishlarning yuqorisida turishi lozim. N. V. Podolskaya masalaga ana shu nuqtayi nazardan turib yondashadi va quyidagilarni yozadi: “Onomastik so'z yasalishini atoqli otlar morfologiyasi va sintaksisi bilan birgalikda onomastik grammatikaning tarkibiy qismi sifatida qarash kerak. Shu bilan birga, so'z yaslanishi onomastik grammatikada alohida bo'lim bo'lishi lozim. Uning quyidagi aytganlari ushbu fikrlarni mustahkamlashga qaratilgan: “Biz onomastik, ayniqsa, toponimik tizim to'g'risida gapirganimizda lokallashgan, bir hududga to'g'ri kelgan tizimni nazarda tutamiz. Onomastik so'z yasalishi haqida gapirganimizda esa zarurat tufayli hududdan emas balki tilga dahldorlik nuqtai

¹ Н.В.Подольская. Проблемы ономастического словообразования (к постановке вопроса) //Вопросы языкознания, 1990, 3.-40.

nazardan kelib chiqamiz. Onomastik soʻz yasash tizim ichidagi va til / dialekt ustunlik qiluvchi soʻz yasashining ichidagi tizim (podsistema)dir”¹.

Onomastik soʻz yasash qoidalarining ilmiy asoslarini tahlil qilar ekan, N.V.Podolskaya masalaning muhimligini “Hozirgi paytdagi vazifa maʼlum til grammatikasidan mustaqil boʻlgan, faqat onimik leksikaga xos boʻlgan grammatik elementlarni, kategoriyalarni, jarayonlarni topishdan iborat” deb izohlaydi va onomastik grammatikani yaratish istiqbolli ekanligini taʼkidlaydi.

N.V.Podolskaya onomastik soʻz yasash jarayonini birmuncha ilmiy ikkinchi bir nom bilan – grammatik onimizatsiya atamasi bilan nomlagan va uni semantik onimizatsiya tushunchasi bilan oʻzaro oppozitsiya va aloqadorlikda olib tahlil etgan. Uning taʼkidlashicha, “Grammatik onimizatsiya semasiologik jarayon bilan hamqadam boʻladi. Garchi semantik soʻz yasash tushunchasi mavjud boʻlsa-da, fikrimizcha, semantik onimizatsiyani soʻz yasash jarayoni kategoriyalariga kiritib boʻlmaydi”. Shundan soʻng u semantik onimizatsiyaning oddiy, metaforik va metonimik koʻrinishlari haqida mulohaza yuritadi va ularning har biriga atroflicha izohlar beradi. Jumladan:

Apellyativning oddiy semantik onimizatsiyasi deb shunday holatlarni aytish mumkinki, turdosh otlardan hech qanday yasashsiz paydo boʻlgan atoqli otlar obyektning nomlanish vaqtidagi tabiiy xususiyatlarini aks ettiradi va apellyativning semantikasini, masalan, tarixiy antroponimlar boʻlgan Gluxoy, Britoy, Guban, Krikunlardagi kabi faqat maʼlum muddatgacha saqlab turadi. N.V.Podolskaya va A.V. Superanskayalar buni lingvistik jarayon deb hisoblaydilar va soʻzlarda desemantizatsiya hodisasi, yaʼni soʻzning dastlabki semantik maʼnosida oʻzgarish sodir boʻlib, yangi vazifalarni bajarishga kirishishini qayd etadilar.

Metaforik onimizatsiya nomlangan obyektning yoki subyektning boshqa obyekt bilan haqiqatan yoki zohiran oʻxshashligidan kelib chiqadi: kishi laqablari: Doska, Utyug.

¹ Н.В.Подольская. Проблемы ономастического словообразования (к постановке вопроса) // Вопросы языкознания, 1990, 3.-42.

Metonimik onimizatsiya – bu bir obyekt nomining boshqasiga o‘zaro yaqinligidan kelib chiqqan ma’noviy uyg‘unlik asosida ko‘chishi, masalan, ko‘llar va daryolarning ular qirg‘og‘ida o‘sadigan o‘simliklar bilan nomlanishi: Berezovka daryosi, Moxovka ko‘li kabi.

A.V.Podolskaya va A.V.Superanskayalarning shu o‘rinda yana bir fikrini eslab o‘tish joiz. Ular apellyativ onimizatsiya jarayoni bilan semantik jarayonni farqlash lozimligini uqtirishadi va ta’kidlashadi, bu jarayonda, birinchi navbatda, so‘zning qo‘llanishi o‘zgaradi. Bu usulda, asosan, atoqli ot yasaladi. Apellyativ onimizatsiya deganning ma’nosi shu. Uni yana nol onomastik affiksatsiya bilan shakllangan onomastik konversiya deyish ham mumkin. Bu usulni semantik usul deyish qanchalik noto‘g‘ri bo‘lgani singari metaforik usul deyish ham noto‘g‘ridir. Chunki metafor stilistik figura sanaladi va bu yerda stilistikaning hech qanday ahamiyati yo‘q.¹

Umuman, so‘z toponimga aylangunga qadar ma’lum lingvistik jarayonlarni, masalan, so‘z yasalihi, leksikalizatsiya, konversiya kabi jarayonlarni boshidan kechirishi mumkin. Shunday ekan, hosila birlikka bo‘lgan munosabatda uning onomastizatsiya, aniqrog‘i, toponimizatsiya jarayoniga o‘tgunga qadar bo‘lgan holati - apellyativ leksika holati alohida o‘rganilishi lozim. Topoformantlarning etimologiyasini aniqlashda ana shu birinchi bosqichga murojaat qilmasdan turib masalani hal qilib bo‘lmaydi.

Toponimizatsiya jarayoni, aksariyat hollarda, metonimizatsiya va konversiya hodisalariga aloqador. Masalan, O‘qchi mahallasi- O‘qchi mahalla- O‘qchi kabi. Misolda so‘z birikmasi bir so‘zga aylangan bo‘lsa ham komponentlar o‘rtasidagi botiniy aloqa saqlanib qolgan. Bu ham metonimizatsiya hodisasi tufayli qisqarishning bir yo‘lidir.

Demak, ma’lum ma’noda konversiya va metonimizatsiya hodisalari tildagi qisqaruv hodisasi bilan bog‘liq. So‘zlarni, umuman, til birliklarini mumkin qadar qisqa shaklda bayon etish, shu jarayonda asosiy mazmunni saqlab qolish o‘zbek tili tabiatiga mos keladi. Shuning uchun ham, N.V. Podolskayaning fikrlari asosga

¹ Подольская Н.В., Суперанская А.В. Терминология ономастики // Вопросы языкознания, 1969, 4. –С.144

olinishi, nomlanishdagi metaforizatsiya hodisasiga e'tibor berilishi lozim. Masalan, Nurobod tumani Ulus qishlog'ining davomi bo'lgan Tortuvli qishlog'ining g'arbiy chekkasida qirlarning tugash joyida Mulla Alining tumshug'i degan kichik tepalik mavjud. Bundan ellik yillar muqaddam qishloqning g'arbiy chekkasidagi eng oxirgi uy qishloqning ma'lumotli kishilaridan biri, ko'p yillar qishloq mullasi bo'lgan Ali boboniki bo'lgan va kichik tepalik shu kishining otiga nisbat berib nomlangan. Keyinchalik bu kichik tepalik Tumshuq deb nomlanadigan bo'lgan. B.O'rinboyev "Asrlardek barhayot nomlar" asarida Bulung'ur tumanida ham shu nomdagi qishloq mavjudligi haqida ma'lumot berib, uni "Tog' yo yirik balandliklarning bo'rtib chiqqan do'ng qismi tumshuq deb ataladi" tarzida izohlaydi.

Toponimlarda qisqaruvining sodir bo'lishi lingvistik jarayondir. Bu jarayonni tahlil qilgan K. Yusupov "Ayrim toponimlar masalasi" maqolisida tarixiy hujjatlarda Abdurahmon aftobachining cheki shaklida ifodalangan so'z birikmasi davrlar o'tishi bilan Aftobachichek shakliga kelib qolganligi, Nasriddinbek cheki, O'rmonbek cheki, Madiyorcheq, Yangichek kabi nomlar ham ana jarayonning mahsuli ekanligi xususida so'z yuritgan.¹

Xullas, so'z birikmasi shaklidagi toponimlarning bir so'zga aylanish usullaridan biri metonimik qisqaruv bo'lib hisoblanadi.

Semantik onimizatsiya hamroh bo'lgan doimiy harakatdagi jarayonlarning biri otlashishdir. Otlashishni o'ziniki bo'lmagan derivatsiya, konversiya deb ham nomlashadi. "Konversiya so'z yasallishning shunday turiki, so'z yasallish vositasi bo'lib, faqat so'z paradigmasi xizmat qiladi".

N.V.Podolskaya qarashlarida onomastik birliklar yasallishiga davriylik nuqtai nazaridan yondashishlar ham muhim o'rin tutadi. "So'z yasallish tahliliga sinxronik pozitsiyadan turib yondashish qabul qilingan, - deb yozadi u, - biroq onomastikada, ayniqsa toponimikada, amalda bo'lgan barcha nomlar turli davrlarga xos bo'lgan atamalar kompleksidan iborat. Toponimiyada bu turli davrlarga xos bo'lgan nomlarni "akkumulyatsiya qilish" (to'plam) mexanizmi

¹ Юсупов К. Айрим топонимлар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966,1. -Б.15-20.

amal qiladi, qadimgi toponimlardan va boshqa til materiyasi bilan mazmunan to'ldiriladigan qadimgi modellardan bugun foydalanish mumkin bo'ladi. (Shuning uchun) ...onimoshaklanishlarni tadqiq etishda, garchi sinxron o'rganishga va bir qator ishlar sinxroniya asosga qurilgan bo'lsa-da, diaxronik yondashish nisbatan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Diaxroniya har qanday paradigmani tarixiy rakursda qarashga imkon beradigan so'z yasash paradigmasida tavsiya etilgan morfem bo'linishlariga muvofiq keladi". N.V.Podolskaya o'z fikrlarini dalillash jarayonida V.N Toporovning "Nazariy toponimika tarixidan" maqolasidan quyidagi fikrlarni keltiradi: "mahalliy va atoqli otlar yaxlitligida ma'lum tizim bilan ayrim dasturlarni yoritishga intilish mavjud ekan, yaxshi ma'lum bo'lgan holat, garchi ma'lum til grammatikasidan qisman mustaqil bo'lsa-da, toponimik elementlarning mustaqil grammatikasini ishlab chiqishga yoki hech bo'lmaganda, ma'lum kategoriya va shakllarni notoponimik grammatikadan tanlab olishga xizmat qilishi mumkin".

Bu fikrlar ham o'zbek toponimikasini fan sifatida o'rganish, uning nazariy asoslarini ishlab chiqish jarayonida toponamastik grammatika masalasini ham diqqat-e'tiborida tutish lozimligini ko'rsatadi.

Toponimik so'z yasashi xususida T Enazarov ham o'z mulohazalarini bayon etib, ularni tasniflagan. Bular garchi "toponimik yasash tamoyilining me'yorlari" sifatida ko'rsatilgan bo'lsa ham, aslida toponimlarni yasash usullaridir: affiksatsiya usuli, kompozitsiya usuli, abbreviatsiya, onomastik konversiya usuli.

Lekin N.V. Podolskaya masalaga bir qadar kengroq ko'lamda qaraganligi uchun uning tasnifiga e'tiborni ko'proq qaratishga to'g'ri keladi. Olima onomastik so'z yasashining yo'llari va jarayonlarini tahlil qilib, quyidagilarni ko'rsatgan edi: affiksatsiya, so'zlarni qo'shish, so'zlarni yonma – yon qo'llash, takrorlar va so'zni takroriy holda qo'llash (peduplikatsiya), urg'uning o'zgarishi, birikmali shaxs otlarni hosil qilish, sintaktik qurilmalar qismining tushib qolishi, so'z birikmalarini bir so'zli atoqli otlariga aylantirish, qisqaruv, abbreviatsiya. "Onomastik so'z yasash tizimi begona nomlarni mavjud modellarga "moslaydi"

va ular payti kelib, shaxs otlari turlanishi va tegishli modellar shaklida turlana boshlaydi”¹

Shunday qilib, o‘zbek toponimikasini tadqiq etishning bugungi taraqqiyot bosqichida uning yasash bobida qaysi lingvistik sohalar bilan ko‘proq aloqador ekanligini, ular doirasida toponimik yasashlarning tutgan o‘rni qanday ekanligini bilish, yasash yo‘llarini aniqlash va bu yo‘llarning boshqa lingvistik so‘z yasashlardan farqi nimadaligini anglash toponimikaning nazariy masalalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Toponimikaga oid adabiyotlarda toponimlar strukturasi xususida ham gap boradi. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu alohida lingvistik birliklarning tarkibi tildagi boshqa tuzilishlardan farq qilmaydi. Shunday bo‘lsa-da, foydalanilgan materiallar doirasida ularning ayrimlariga ko‘z yugurtiramiz. J.Latipovning “Toponimlarning yasalishi” maqolasida gap aslida o‘zbekcha toponimlarning yasash xususiyatlari to‘g‘risida boradi. Ammo e’tibor qo‘shimcha toponimlarning yasashiga qaratilgani uchun ularning tuzilishiga ham to‘xtalib o‘tiladi. Darhaqiqat, toponimlar struktural jihatdan olib qaralganda, ularning bir qismini qo‘shma toponimlar hosil qiladi. Bu shakllanishdagi an’anaviy usullar ham ma’lum, ya’ni ular “aniqlovchi-aniqlanmish” tipdagi so‘z qurilmalaridan iborat. Ammo maqola muallifi uning boshqa ko‘rinishlari mavjudligini ham qayd etadi va buning isboti sifatida “O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston territoriyasida necha asrlardan buyon turli xalq va elatlar tomonidan turlicha talaffuz etilib, qator fonetik o‘zgarishlarga uchragan va tuzilishiga ko‘ra ayni paytda bir so‘zdan yasalganga o‘xshab qolgan” so‘zlar mavjudligini, aslida esa ular tarixdan qo‘shma bo‘lgan toponimlar ekanligini aytadi va quyidagilarni yozadi: “Turkiy tillardagi toponimlarning katta qismi asosan ikki va undan ortiq so‘zning turli sintaktik munosabatlari bilan qo‘shilishi va birikishidan hosil bo‘lgandir”.²

Muallif Darbozategi, quduqboshi, Yoqubbek guzari shaklidagi nomlar dastlab kelishik va egalik ko‘rsatkichlarini olgan so‘z birikmalari sifatida paydo

¹ Подольская Н.В. Проблемы ономастического словообразования // Вопросы языкознания, 1990. -Б. 40, 43.

² Латипов Ж. Топонимларнинг ясалиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 2. –Б.84.

bo'lganligini (masalan, darvozaning tegi/tagi, quduqning boshi, Yoqubbekning guzari kabi) keyinchalik talaffuz jarayonida kelishik qo'shimchasi (-ning) tushib qolib, har ikkala komponent qo'shilgan va toponimga aylanganligini qayd etadiki, bu o'zbekcha toponimlar paydo bo'lishidagi qonuniyatlardan biridir.

Shundan so'ng J. Latipov qo'shma toponimlarning komponentlari xususida so'z yuritadi va ularni morfologik tarkibga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratdi: ot+ot, sifat+ot, sifat+sifat, son+ot, numerativ+ot, ot+fe'l kabi. Muallif qo'shma atamalar strukturasidagi fonetik jihatdan, shakllanish tarixini xarakterlash jihatidan sifat, olmosh, fe'l, son kabi so'z turkumlaridan bo'ishi mumkin, ammo ular qanday so'z turkumiga aloqador bo'lmasin, ayni paytda, ot turkumiga ko'chgan so'z, ya'ni atoqli otdir, deydi.

Toponegizga yasovchi vositalar qo'shilishi natijasida so'z tarkibidagi struktural o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Bu hodisa bir yangi toponim yasashida yuz bermaydi, ammo uni istisno qilish ham mumkin emas. R.Z.Muryazov "Hozirgi nemis tili so'z yasash tizimida toponimlar" nomli maqolasida bu modifikatsiyaning turlari sifatida quyidagilarni: *усечение*= qisqaruv, *интерфиксация*= toponegiz va affiksning qo'shilish joyida bir yoki bir necha fonemaning paydo bo'lishi kabi.

Atoqli otlar tilda faqat leksik ma'noda emas, turdosh otlardan farqli orfografik, morfonologik, grammatik(morfologik va sintaktik), so'z yasash stilistik xususiyatlari bilan ham xarakterlanadi, deydi R.Z. Muryazov. Uning bu so'zlari garchi shaxs otlariga aytilgan bo'lsa-da, fikrni toponimik birliklarga nisbatan tatbiq etish mumkin.

H.Hasanov turkiy toponimlarning asosan ikki so'zdan (Issiqko'l, Denov, Qizilqum) kamdan –kam bir yoki uch so'zdan Nov, Zax, Shaxrixonsoy) yasash haqida ma'lumot bergan edi. Ammo olimning "nomlar eng avval bir so'zlik bo'lib, faqat turdosh ot bo'lganlar. Keyinchalik bularga ikkinchi so'zlar – sifatlar qo'shila boshlagan".

R.Z. Muryazov "Hozirgi nemis tili so'z yasash tizimida toponimlar" nomli maqolasida toponimlarning ichki qurilishi nuqtai nazaridan uchga bo'ladi: sodda,

yasama va tarkibli. O'z navbatida yasama toponimlar toponimlarni leksik-semantik jihatdan, struktural jihatdan, ya'ni affiks va tarkibiga ko'ra farqlashga yordam beradi.

Shundan so'ng maqola muallifi struktural so'z yasalishi jihatdan nemis tilidagi toponimlarni beshlikka ajratadi: sodda yoki yasama bo'lmagan, suffiksiz yasama, suffiksli yasama, murakkab, tarkibli kabi.

Sodda yoki yasama bo'lmagan toponimlarni topoleksemalar deyish mumkin.

T. Begjonov va K. Abdimurotovlar ham bu masalada o'z mulohazalarini bildirishgan edi. "Toponimlarga xarakterli struktural xususiyatlar xos. Toponimlar strukturalari deyilganda odatda, ularning aniq morfologik tiplari, ya'ni so'zning ma'lum ma'noda o'zgarishi, muayyan qo'shimchalar bilan uyg'unlashishi va so'z yasalishining ayrim ko'rinishlariga asos bo'lib xizmat qiladigan tiplariga oid xarakterli xususiyatlari tushiniladi.

Yasalish xususiyatlariga ko'ra ularni sodda va murakkabga ajratish mumkin. Sodda toponimlar bosh kelishikdagi otlar yoki yasama sifatlardir. Murakkab toponimlar esa yasalishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: qo'shma, birikmali va juft toponimlar. Turkiy toponimika turli-tuman fe'l toponimlarining keng qatlamli bilan xarakterlanadi".

Shunday qilib, toponimlar strukturalari haqida gap ketganda ilmiy manbalardagi fikrlar umumlashtiriladigan bo'lsa, o'zbek tilida tub va yasama toponimlar hamda sodda, qo'shma va murakkab toponimlarning mavjudligi, ularning tarkibi esa ot+ot, sifat+ ot, sifat+sifat, son+ot, numerativ+ot, ot+fe'l shaklida bo'lishi mumkinligi ma'lum bo'ladi.

Toponimlarning yuzaga kelishi xalq tarixi bilan o'zi paydo bo'lgan davrda shu hududda yashovchi xalqning tili va bu tildagi so'z yasalish modellari bilan chambarchas bog'liq. Masalaning ikkinchi muhim tomoni shundaki, bu toponimlar yillar davomida mumkin qadar o'zining ibtidoiy shakli va mazmunini saqlab qoladi. Faqat o'tgan uzoq davr va til taraqqiyoti natijasidagina ayrim fonetik yoki morfologik o'zgarishlarga yuz tutishi mumkin.

Shuning uchun ham toponimlar haqida gap ketganda ularning vujudga kelishga sabab bo'lgan omillar xususida mulohaza yuritish zarur bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda bu omillar ikkita lingvistik va ekstralingvistik tarzida beriladi.

III.2. Atoqli otlarning fonetik, grammatik va stilistik xususiyatlari

Atoqli otlarning fonetik xususiyatlari. Toponimik birliklar tarkibidagi fonetik jarayonlarni tahlil etish ham, shubhasiz, qiziqish uyg'otadi. Toponim tarkibidagi qaysi unlilar yoki qaysi bo'g'inlarga urg'u tushishini hozirgi o'zbek tili fonetik qoidalari bilan solishtirib ko'rish mumkin. Chunki har bir til toponimikasi muayyan fonetik xususiyatlarga ega. Lekin toponimlarning bu xususiyatlari bilan o'zbek tilshunosligida hech kim maxsus shug'ullangan emas. Vaholanki, tilning dialektal xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi toponimlarni fonetik jihatdan o'rganish tarixiy fonetikaga oid ko'plab munozarali masalalarga, tillarning qardoshlik jihatlariga oydinlik kiritishi mumkin.

Shuning uchun ham V.A.Nikonov bu sohadagi vazifalarni belgilab, "Tadqiqotning fonetik aspekti - toponimikada amalga oshirilishi lozim bo'lgan navbatdagi qadamdir. Hozirda yaxshi ma'lum bo'lgan tilda tug'ilgan nomlarning fonetik tahlilga hojat yo'q, ularni semantik jihatdan o'rganish ma'qul; ammo shu tildagi nomlarning o'tmish tabiatini semantik, hatto leksik tahlil etish yetarli bo'lmasligi mumkin va birinchilikni so'z yasalishi ba'zan fonetikaga bo'shatib beradi, va, nihoyat, agar nomni tug'dirgan tilning o'zi ma'lum bo'lmasa, so'z yasalishi tahlili hamma vaqt ham amalga oshavermaydi va fonetik tahlil asosiy bo'lib qoladi. Ularni bir- biriga qarama-qarshi qo'yish ma'nosizdir. Ular bir hodisaning turli toponimlarini o'rganadi", degan edi.

Atoqli otlarning grammatik xususiyatlari. Toponimlar o'ziga xos bo'lgan morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega.

Morfologik jihatdan olib qaralganda, toponimlarning asosiy qismini ot so'z turkumiga oid so'zlar tashkil qiladi. Buning sababi shundaki, ibtidoiy holatida

boshqa soʻz turkumiga tegishli boʻlgan toponimlar strukturasi ham vaqt oʻtishi bilan soddalanish, qisqarish, koʻchish kabi jarayonlar sodir boʻladi. Tarkibiy jihatdan tobora ixchamlasha boradigan toponimik qurilma bir soʻzga aylanadi va ot shaklini oladi. Ana shuning uchun ham otlarga oid soʻzlar boshqa soʻz turkumlariga qaraganda koʻpchilikni tashkil qiladi. Feʼl va sifatga oid soʻzlar otlarga qaraganda son jihatdan ozdir. “ Koʻpchilik geografik nomlar asosida vaqtlar oʻtishi bilan atoqli otlar maqomini oladigan turdosh otlar otlar yotadi”, deydi E.M.Murzayev va aholi yashaydigan joylar nomida birinchi kelib joylashgan mahalliy aholining ismlari laqablari nisbatan koʻproq uchrashini, koʻproq toponimlar bir xil, turgʻun takrorlanadigan qoʻshimchalarga egaligini, boshqa formantlar esa suffikslar koʻrinishida faqat grammatik vazifani bajarishini taʼkidlaydi.

Toponimlarning sintaktik xususiyatlari haqida ilmiy adabiyotlarda deyarli soʻz yuritilmagan. Buning boisi shundaki, atoqli otlar sifatida toponimlar deyarli bir soʻzdan iborat boʻladi. Soʻz birikmasi shaklidagi ham vaqt oʻtishi bilan qoʻshma soʻzga aylanadi va sintaksisning tekshirish doirasidan chiqib ketadi. Birikma shaklidagi, toponimik aniqlagichli qurilmali elementlarning bir soʻzga aylanish jarayoni ham substantivatsiyaning umumiy fonidagi lingvistik jarayondir. Shuning uchun ham A.L.Xromov “Soʻz qoʻshilishi va soʻz birikmasi prinsipida shakllangan toponimik modellarni oʻzaro aloqadorlikda olib qarash lozim. Chunki, birinchidan, ular oʻrtasiga keskin chegara qoʻyib boʻlmaydi va ikkinchidan, ularning tarkibiga, odatda, bir xil kalit soʻzlar kiradi” deb yozgan edi.

Toponimlarning stilistik xususiyatlari.

Toponimlar qaysi fanlar doirasida oʻrganilishidan, qaysi fan uchun koʻproq manfaat keltirishidan qatʼiy nazar, avvalambor, til materiali hisoblanadi. Shuning uchun ular tilning boshqa birliklariga xos boʻlgan xususiyatlardan, jumladan, stilistik xususiyatlardan ham holi emas. Toponimlar oʻzining asosiy maʼnosidan tashqari, yana qoʻshimcha maʼnolarni aks ettiradigan ushbu maʼnolar, odatda stilistik maʼnolar deyiladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda poetik onomastika tushunchasi mavjud.

Ayrim toponimlarning leksik ma'nosi, etimologiyasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ulardan ma'lum stilistik ottenkalar anglashilib turadi. Masalan, Begijon, Valijon, Gulzor, Gulbog', Do'stlarobod, Gulqishloq kabi toponimlarning qo'llanilishida yoqimlilik ottenkasi mavjud. Ularni joy nomlari yaxshi niyat bilan atashga xizmat qilayotganligi, bunda jon, gul, zar, obod kabi so'zlardagi ijobiylik ottenkasi ko'maklashayotganligi sezilib turibdi. Nomlarning ikkinchi bir qutbidan aslida etimologik jihatdan biror bir urug' yoki uning shahobchasi bo'lgan, salbiy ma'no ottenkalari anglashilib turadigan toponimlar joy oladi. Masalan, Galatentak, Yovuzxo'r, Yomontelpak, Olaxotin, Tortho'kiz, O'likqishloq kabi. Bu kabi stilistik ottenkalarga e'tibor qilish ham toponimlar etimologiyasining aniq bo'lishiga xizmat qilishi mumkin.

Geografik nomlar frazeologik birikmalar tarkibida alohida uslubiy vazifani ado etadi. Masalan, Gap desang qop-qop, ishni Makkadan top; Onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq; Tentakka To'ytepa bir qadam; Dongi Dog'iston ketdi singari frazemalarni olib qaraylik. Ular vtarkibidagi joy nomlari frazemalarning yuzaga kelgan o'rnini taxminan ko'rsata olish mumkin. Uchqo'rg'on va To'ytepa singari birliklar mana shu vazifani bajarishga xizmat qilmoqda. Ammo bu o'lchovni frazemalar tarkibidagi barcha toponimlarga qo'yish mantiqsizlikni keltirib chiqaradi. Chunki Gap desang qop-qop, ishni Makkadan top birligidagi Makka frazemasini shakllangan o'rnini emas, balki masofaning nihoyatda uzoqligiga ishora qilmoqda. Ayni paytda, Dongi Dog'iston ketdi frazemasidagi Dog'iston frazemasini ishtirokiga bu ikki holatning ham umuman aloqasi yo'q. U shunchaki frazema dagi dong so'ziga uyg'un, hamohang tarzda tanlangan joy nomi, xolos. Bu fikrlardan frazemalar tarkibida toponimlarning ishtirok etishidan turlicha maqsadlar ko'zda tutilishi haqidagi xulosa kelib chiqadi. Shu bilan birga, bu kabi ishtirok etishda aynan stilistik maqsad ko'zda tutilgan, degan fikrni aytishdan ham yiroqmiz. Ammo frazeologik matndan shu narsa ayonki, ular gapda toponimik birlik sifatida ma'no ifodalash doirasidan chiqqan va ularga ustama ma'no yuklanib, umumiy joy, manzil ma'nolarini anglatmoqda hamda o'zida ma'lum stilistik ma'no tashimoqda. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchidan, frazema

keltirib chiqaradigan stilistik ottenkani butunlay toponimga yuklab qo'yish ham to'g'ri emas, chunki har qanday frazemaning o'zida ekspressivlik, binobarin, statistik ma'no mavjud. Uning tarkibiy qismiga aylangan toponim esa turg'unlik ichida tur'unlik kasb etib, ana shu ma'noning yanada reallashuviga ko'maklashmoqda, xolos. Agar shunday bo'lmaganda edi, ularning o'rniga boshqa toponimlarni qo'llash mumkin edi.

Toponimlar tarkibidagi formantlarda, ya'ni ayrim qo'shimchalarda ham tilga xos bo'lgan stilistik ottenkalar namoyon bo'lishi mumkin. N.V.Podolskaya va A.V.Superyanskayalar tildagi subyektiv baho shaklini ana shunday morfologik birliklar sifatida qarashib, ular toponimlarga meliorativ (ko'tarinkilik), peyorativ (kamsituvchi), deteriorativ (pasaytiruvchi) yoki gepokoristiv (erkalovchi) ma'no ottenkalari berishi mumkinligini qayd etishadi. Bu holatni o'zbekcha toponimlarda ham faol ko'rganmiz.

Masalan, Alijon, Valijon, Begijon kabi toponimlar iliqlik, erkalash ottenkalari anglashilib turadi. B.O'rinboyev "Asrlardek barhayot nomlar" da Baqalchoq/Bakalchoq toponimi tarkibidagi -choqni munosabat anglatuvchi affiks deb to'g'ri baholangan. Ammo olim izohlaganidek, bakal qoraqalpoqlarning Qo'ng'irot qabilasi tarkibidagi bir urug'i bo'lsa, -choq ning unga qo'shilishi sun'iydir. Bu masalaning etimologik jihati va u, ayni paytda, e'tiborimizdan tashqarida turadi. So'zning bugungi qo'llanilishida -choqda haqiqatdan ham munosabat, ya'ni xuddi maqtanchoq, erinchoq, qo'zichoq so'zlaridagi singari kichraytirish, erkalash ottenkalari mavjud va bu so'zning stilistik jihati bo'lib hisoblanadi.

Etnotoponim bo'lgan Mirzabachcha, Xo'jabachcha atamaları tarkibidagi bachcha affiksoidi B.O'rinboyevning yuqorida nomi tilga olingan kitobida ikki xil talqin qilinadi. "Mirza-kotib, savodli, o'qimishli odam; yuqori tabaqalarga mansub kishi; janob. Mirzabachcha- o'qimishli, savodli bola demak", Xo'jabachchadagi bachcha fors-tojik tilidan olingan bo'lib, u bola birovning qaramog'i yoki ixtiyorida bo'lgan xushro'y, kelishgan o'yinchi o'g'il bola besoqol, raqqos

ma'nolaridadir"¹. Uning –vachcha variantli Boyvachcha ko'rinishi ham mavjud. Ushbu toponimlar tarkibidagi bachcha/vachchaning bugungi qo'llanishida salbiy o'ttenkaning kuchliligi seziladi.

Torinjak, Qunduzak toponimlari tarkibidagi –ak, Qizilravotcha, Bog'licha tarkibidagi –cha qo'shimchasi ham kichraytirish o'ttenkasini beradi. Ammo ularni Ag'roncha, Buloqcha toponimlari tarkibidagi –cha bilan aralashtirish kerak emas. Bu so'zlar tarkibida u stilistik ma'no anglatayotgan emas, balki shunchaki kichiklik ma'nosini bermoqda. Chunki Nurobod tumanida, yana Ag'ron qishlog'i bor. Qo'shrabot tumanida esa Buloq qishlog'i bor. Umuman, Ag'roncha Ag'ronga, Buloqcha Buloqqa nisbat berib qo'llanilganligi va bir qishloqning geografik ko'lami ikkinchidan kam ekanligi haqiqatga mos keladi.

O'zbek tilida -cha qo'shimchasining kichik, mayda so'zlari bilan sinonimik munosabatga kirishishi ma'lum. Shuning uchun o'zbeklilarda nayman, Nayman qishloq, Naymancha, Katta Nayman, Kichik Nayman toponimlari uchraydi. Ayni paytda, yana Kichik Naymancha, Katta Naymancha toponimlarining uchrashi va bunda –cha qo'shimchasining ishtiroki nafaqat kichraytirishni, balki erkalash o'ttenkasini ham beradi. Chunki bu o'rinda hududiy birlikning keng yoki torligini ko'rsatuvchi katta va kichik so'zlari ishtirok etmoqda. Kichik Buloqcha toponimi ham ana shu mazmun va modeldadir. Stilistik nuqtai nazaridan qaraganda, Narpay tumanidagi qishloq nomi Mayda qozoq e'tiborimizni tortadi. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, -cha qo'shimchasi mayda so'zi bilan ham sinonimdir. Shunday ekan, nega endi qishloqniyng nomini Qozoqcha deb bo'lmaydi? Shuning uchunki, bu o'rinda –cha dagi kichiklikni ko'rsatishga nisbatan kichraytirish, mensimaslik o'ttenkasi ustunlik qilib qoladi. Nomlanishda esa joyning yoki joy nomiga asos bo'lgan etnonimning kichikligi nazarda tutilgan. Nom qo'yuvchilar tomonidan esa bu holat noziklik payqalgan deb, bermalol ayta olamiz.

Ko'kcha, G'alcha/G'archa, Qoracha toponimlari tarkibidagi –chaning so'z o'zagiga qo'shgan ma'nosi sezilmas darajaga kelgan.

Toponimlardagi stilistik o'ttenkalarni kuzatish jarayonidagi qiziq faktlarga duch

¹ Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. –Самарқанд: Зарафшон, 2003. –Б. 195.

kelamiz. Pastdarg‘om tumanida Katta Buloqcha degan qishloq bor. O‘zbek tilida katta so‘zi –cha ga oppozitsiyada turadi, ularning yonma-yon kelishi xuddi poetik matndagi oksyumaronga o‘xshab ketadi. Ammo bu o‘rinda toponimika bu darajada munosabat bildirishga hojat yo‘q. Chunki buloqning nomlanishida oddiy jarayon -qiyoslash jarayoni yuz bergan, xolos. Buloqcha, aytaylik, uning yaqinidagi kattaroq buloq - Katta Buloqcha. Bir joyning nomi bo‘lgan Buloqcha ayna o‘xshash bo‘lgan ikkinchi joyning nomiga shundayligicha ko‘chirib qolingan. Ushbu holat ham xalqning ruhiyatiga mos keladi. Bu toponimdan statistik mazmun axtarish maqsadga muvofiq emas.

Asosli bir savol tug‘iladi: toponimlar tarkibidagi formantlarning stilistik ma’no anglatishi qachon sodir bo‘lgan. Bular qo‘shilgan so‘zning appelyativ holatidami yoki toponimga aylangandan keyingi holatidami? Savol qiziqarli va munozarali.

Bu savolga bir xil javob berib bo‘lmaydi. Chunki Alijon, Valijon, Begijon kabilarda kishilarning nomlari sifatida appellyativ holatda ham iliqlik, erkalash ottenkalari anglashilib turadi. Hatto bu ottenkalar qo‘llanish chastotasi hamda umumiylik, xususiylik bilan bo‘g‘liq ravishda joy nomlariga qaraganda kishi nomlarida kuchliroq ifoda etiladi.

Mirzabachcha, Xo‘jabachcha toponimlariga kelganda munosabat biroz o‘zgaradi. Ular aniq bir insonga qo‘llanganda, ya’ni appelyativ holatda dastlabki ma’nolari ijobiy bo‘lgan bo‘liushi mumkin. Ammo toponimlarga aylangandan keyingi nomlanish bilan hozirgacha o‘tgan vaqt o‘rtasidagi masofa ta’siridanmi, bu ma’noni da’vo qilib bo‘lmaydi.

Torinjak, Qunduzak, Kichik Naymancha, Katta Naymancha nomlarida boshqacha manzarani kuzatamiz. Ulardagi stilistik ma’no so‘zlarning toponimga aylanish jarayonida shakllangan. Chunki, Torinj, Qunduz shaklidagi so‘zlarda kichraytirish ottenkasi yo‘q, Kichik Nayman, Katta Nayman toponimllarida ham shunday. Keyingi ikki toponimda –cha nafaqat kichraytirish, erkalash ottenkasini bergan, balki bir joyni ikkinchi joydan farqlovchi qo‘shimcha ma’no ham bera olgan. Masalan: Kichik Nayman/Kichik Nymancha, Katta Nayman/Katta

Naymancha kabi.

Toponimlar lingvistik birlik sifatida bu kabi stilistik ma'no ottenkalarini berishdan tashqari geografik joy ma'nosi sifatida barcha uslublarda bab-baravar ishlatilaverish huquqiga ega va shuning uchun ularni funksional jihatdan chegaralash maqsadga muvofiq emas. Kelajakda toponimlarga xos bo'lgan shu stilistik xususiyatlar alohida tahlil etilishi lozim.

Xullas, toponimlarning qarab chiqilgan stilistik jihatlari ularni o'zbek tili va uning onomastikasi sohasining tarkibiy qismi sifatida qarashdan tashqari tilning har bir yarusida o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turishini ham ko'rsatadi. Binobarin, toponimik tahlil jarayonida bu jihatlarni hisobga olish tadqiqotlarning aniq va asosli bo'lishini ta'minlaydi.

XULOSA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasidan quyidagi xulosalar olindi:

1. Onomastika keyingi yillarda tilshunoslik fanining alohida sohasi sifatida yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Ushbu sohaning yirik tadqiqotchilari voyaga yetdi. Onomastika, ya'ni atoqli otlarning nazariy masalalariga, geografik obyektlarni hududiy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan monografik kuzatishlar birin-ketin paydo bo'lmoqda, doktorlik va nomzodlik darajasida dissertatsiyalar yozilmoqda. Lekin shunday bo'lsa ham ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, tahlil qilish tilshunoslar oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

2. Bugungi kungacha nomshunoslik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ilmiy tadqiqotlar shaklida bo'lgan. Nom va nomshunoslik odamlar ongiga milliylik, milliy manfaat, qadriyat, ma'naviyat va ma'rifatni singdiradigan ijtimoiylikka xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarga egadir.

3. Nomshunoslikka oid tadqiqotlarni bir butun holda umumlashtirish va ularning umumlashma xulosalari asosida umumiy nomshunoslik masalalari, shuningdek, o'zbek nomshunosligining bahsli bo'lgan nazariy va amaliy masalalari haqida fikr yuritishga imkon yaratish va ularni tadqiq etish lozim.

4. Nomshunoslikni fanda ikkinchi bir termin bilan onomastika deb ham atashadi. Bu ko'proq Yevropa, shuningdek, rus, qozoq, ozarbayjon, qirg'iz, tatar, turkman olimlarining tadqiqotlarida bayon etilgan. O'zbek tilshunosligi sohasida nomshunoslik alohida bir sohasi bo'lish bilan birga hozirgi zamon ilm-fanning talablaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Zero, barcha xalqlarda nomga, nomlanishga munosabat e'tiborda bo'lgani uchun amalda qo'llanilayotgan nomlarni to'g'ri, aniq va xatosiz yozish bu sohadagi ham savodxonlikni, ham madaniylikni, ham ma'rifiylikni ifodallovchi me'yoriy holatlardan biri sanaladi.

5. "O'zbek tilshunosligi"ning asosiy maqsadi - mamlakatimiz hududidagi umumiy hamda xususiy nomshunoslik masalalariga xos bahsli muammolarning ilm-fanning zamonaviy talablariga tayanib, asosli va o'rinli yechimlarini topishdan iborat.

6. O'zbek nomshunosligining dolzarb muammolari bugungi kunda hal etilishi lozim bo'lgan masalalarni o'rganish, o'zlashtirish jarayonida davrning ilm-fan oldiga qo'ygan ilmiy va amaliy talab, taklif va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda geografiya, etnografiya, tarix, tilshunoslik, falsafa, geologiya kabi bir qancha fanlarning tutashgan nuqtasida vujudga kelgan.

7. Har bir sohaning o'z o'rganish obyektlarini tadqiq etish metodlari bo'lganidek "O'zbek nomshunosligi"da ham qo'llanadigan bir qancha metodlar bor. Ularning mazmuni va talqinida tilshunoslikka oid dalillarning e'tiborga olinishi nazardan chetda qolmasligi shart. Nomshunoslik, ya'ni onomastika ham tilshunoslikning tadqiqotlar olib boriladigan bir sohasi sifatida tavsifiy, qiyosiy solishtiruv, areal (hududiy), semiotik, stilistik, statistik metod singari o'ziga xos metodlar tizimi ishini o'rganadi.

8. Har bir tilning so'z yasash qonuniyatlari, shubhasiz, atoqli otlar yasash tizimida ham o'z ifodasini topadi. Ammo atoqli otlar so'z yasashning har bir tilda o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

9. Toponimlar strukturasi haqida gap ketganda ilmiy manbalardagi fikrlar umumlashtiriladigan bo'lsa, o'zbek tilida tub va yasama toponimlar hamda sodda, qo'shma va murakkab toponimlarning mavjudligi, ularning tarkibi esa ot+ot, sifat+ot, sifat+sifat, son+ot, numerativ+ot, ot+fe'l shaklida bo'lishi mumkinligi ma'lum bo'ladi.

10. Morfologik jihatdan olib qaralganda, toponimlarning asosiy qismini ot so'z turkumiga oid so'zlar tashkil qiladi. Buning sababi shundaki, ibtidoiy holatida boshqa so'z turkumiga tegishli bo'lgan toponimlar strukturasi ham vaqt o'tishi bilan soddalanish, qisqarish, ko'chish kabi jarayonlar sodir bo'ladi. Tarkibiy jihatdan tobora ixchamlasha boradigan toponimik qurilma bir so'zga aylanadi va ot shaklini oladi.

11. Toponimlar qaysi fanlar doirasida o'rganilishidan, qaysi fan uchun ko'proq manfaat keltirishidan qat'iy nazar, avvalambor, til materiali hisoblanadi. Shuning uchun ular tilning boshqa birliklariga xos bo'lgan xususiyatlardan, jumladan, stilistik xususiyatlardan ham holi emas.

Xullas, atoqli otlarning qarab chiqilgan tarkibiy tahlili ularni o'zbek tili va uning onomastikasi sohasining tarkibiy qismi sifatida qarashdan tashqari tilning har bir yarusida o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turishini ham ko'rsatadi. Binobarin, atoqli otlar tahlili jarayonida bu jihatlarni hisobga olish tadqiqotlarning aniq va asosli bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Тошкент, 1997.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Тошкент, 1992.
3. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. Тошкент: ЎзФан, 1951.
4. Абдусаматов М. Форс тили. Тошкент: Ўзбекистон, 1971.
5. Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
6. Бафоев Б. Кўл сўзнинг маънолари ва тарихи // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1992. 2-сон.
7. Бартольд В.В. Сочинения Т.Ц.ч.1. Москва, 1963.
8. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006.
9. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. Тошкент, 1990 йил
10. Бегматов Э. Антропонимика. Тошкент: Фан, 2012.
11. Дўсимов З. «Арна» сўзи ҳақида.// Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1969. 6-сон.
12. Дўсимов З.Топонимик индикаторлар // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1972. 5-сон.
13. Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. Тошкент, 2002.
14. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Тошкент: Фан, 1985.
15. Дўсимов З. Функционал индикаторлар.// Филологик тадқиқотлар. 1-том. Урганч, 1998.
16. Дўсимов З. Топонимларнинг ясаиш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 2.
17. Жабборов Х. Суғориш объектларининг номланиш хусусиятлари ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. 3-сон.
18. Жабборов Х., Нафасов Ш. Давлат тили ва суғоришга оид атамалар//Илмий, амалий конференция тезислари. Навоий 1993.

19. Жаббаров Х. Ўзбек тилининг суғориш лексикаси. Филология фанлари номзоди. Автореф. Тошкент, 1996.
20. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. Тошкент, 1969.
21. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент: Фан, 1977.
22. Йўлдошев Р. Плеоназм ҳодисасига доир. // Ўзбек тилшунослигига доир. -Тошкент, 1994.
23. Йўлдошев Р. Огаҳий ижодида мироблик билан боғлиқ сўзлар. Урганч. 2004.
24. Йўлдошев Р. Авесто ёзуви ва тили. // «Авесто» - буюк қомусий асар. Тошкент.2001.
25. Йўлдошев Р Қадимги туркий тил. Урганч, 2005.
26. Караев С.О. О показателях множественности в топонимах Узбекистана // Советская тюркология, 1979, 5.
27. Комилов Н. Исми шариф // Соҳиб Камол. 505 исм маъноси. Қарши, Насаф, 2004.
28. Латипов Ж. Топонимларнинг ясалиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 2. – Б.84.
29. Латипова Ҳ. Жой номларини ифодаловчи сўзлар синонимияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2003, №2
30. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. Индекс луғат: Тошкент. Фан. 1967.
31. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. Урганч, 1999.
32. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. Урганч, 1973
33. Мирортиқ Мирабдулла ўғли. Жўғрофия атамалар луғати. Тошкент: Фан, 1992.
34. Мирзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. Москва, 1984.
35. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоқистондаги ўзбек шевалари. Тошкент, 1959.

36. Нафасов Ш. Ўзбекча номларда қўшимча қўшиб яшаш борми? // «Жой номлари – халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси» мавзусидаги республика миллий амалий конференцияси материаллари. Навоий шаҳри, 1998.
37. Нафасов Т. Ўзбек топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1988.
38. Наимов С. Топонимик аниқлагичлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983.
39. Нураддинова Р. Атоқли отларнинг грамматик тузилиши ва ясашига доир терминлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2004, №6
40. Отажонова А. Хоразм этнонимлари. Тошкент: Фан, 1997.
41. Охунов Н. Жой номлари таъбири. Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
42. Огаҳий. II жилд. (Девон). Тошкент, 1972.
43. Подольская Н.В., Суперанская А.В. Терминология ономастики // Вопросы языкознания, 1969.
44. Подольская Н.В. Проблемы ономастического словообразования // Вопросы языкознания, 1990, 3.
45. Раҳимов С. Хоразм антропонимларининг баъзи хусусиятларига оид кузатишлар.// Филологик тадқиқотлар. Урганч, 1999
46. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – Москва: Наука, 1974.
47. Тепляшина Т.И. Из патронимии каринских татар// Советская тюркология, 1972,5.
48. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент, 1964.
49. Турдибеков М. «Шажараи турк» тилдаги баъзи гидронимларга доир мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1996. 5-сон.
50. Улуқов Н. Наманган вилоятидаги ариқ номлари. ЎТА, 2004.
51. Холмўминов Х. Сурхондарё топонимиси тизимидаги индикаторлар //Тил ва адабиёт таълими, 2002. 5-сон.

52. Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микропонимии Таджикистана. – Душанбе: Ирфон, 1975.
53. Эназаров Т. Туркий содда топонимларнинг этимологик тадқиқи. – Тошкент: Университет, 2002.
54. Эназаров Т., Ҳусанова М., Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги. Тошкент: Наврӯз, 2015.
55. Юсупов К. Айрим топонимлар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966,1.
56. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-2-томлар. Москва: Рус тили, 1981.
57. Ўзбек классик адабий асарлари учун қисқача луғат. Тошкент, 1951.
58. Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. –Самарқанд: Зарафшон, 2003.
59. Ўрозов М. Топонимик аниқлагичлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. 4-сон.
60. Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар. Тошкент: Фан. 1986.
61. Қораев С. Географик номлар маъноси. Тошкент. Ўзбекистон. 1978.
62. Қораев С. Топонимика - жой номлари ҳақидаги фан. Т. Фан. 1980.
63. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, 2001.
64. Ҳусаинов Н. Антропонимлар ва далиллаш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1999, №6.